Annotatsiya: *O‘zbek xalqining hozirgi kundagi adabiy tili hozirgi holatigacha uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Avvaliga jamoa, urug‘, qabila shaklida yashab, asta-sekinlik bilan bir xalq sifatida birikdi. Yurtimizda ilk renessans davrida til va adabiyot ancha rivojlandi. Ushbu maqolada o‘zbek tilida ajralmas o‘ringa ega bo‘lgan Qashqadaryo qipchoq lahjasiga kiruvchi ayrim so‘z, ibora hamda maqollar tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Dialekt, sheva, qipchoq lahjasi, dialektologiya, etnolingvistika, etimologiya.*

Kirish

O‘zbek tili shevalari orqali ajralib turuvchi, shu bilan bir qatorda shevalari bir-biridan keskin farq qiladigan turkiy tillardan hisoblanadi. Professor Y.D.Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligibilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma’lumot bergan edi⁵. Bizga ma’lumki, shevadagi so‘zlar tilning asl mohiyatini to‘la- to‘kis yoritishga xizmat qiladi. O‘zbek xalq shevalari necha asrlar mobaynida o‘rganilsa ham, shu kungacha mukammal sheva lug‘ati yaratilmagan ekan. Albatta, 1971-yilda “O‘zbek xalq shevalarining lug‘ati” yaratilganligini inkor etolmaymiz, lekin uning tarkibida to‘qqiz mingta so‘zning borligi va bu juda kam ekanligini ta’kidlash lozim. “Agar keksa avlod nutqida saqlanib kelayotgan noyob so‘z va iboralar zudlik bilan yig‘ib olinmasa, barcha mas’uliyatni o‘z zimmamga olib aytamanki, ular hofizasidagi bir qism dialektizmlar umuman butkul ketishi mumkin”,⁶- deganedi akademik Shonazar Shoabdurahmonov. Olimning ushbu so‘zlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ko‘ramizki, qipchoq shevasi ham uzoq tarixga ega. O‘sha vaqtdagi shevaning xususiyatlari hozirgi kungacha saqlangan. Buni quyidagi

⁵ Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1978.

⁶ Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962.

maqola orqali ham ko‘rib o‘tamiz. Qashqadaryo viloyati shevalari ikki dialektal zona guruhiga bo‘lingan. Bular: 1)Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. 2)Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Qamashi tumani shevasi Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari guruhiga kiradi. Ushbu shevadagi dialektal so‘zlar dialektal ma‘nolari va eshtilishi bilan inson e‘tiborini tortadi. Quyida shulardan ba‘zilarini tahlil qilamiz:

Shoha- sanqchi shaklidagi lekin ketmon va belkurak o‘lchamidek bo‘lgan mehnat quroli. U asosan somon, hashaklarni to‘plashda ishlatiladi. Masalan: Bedani shohada apke (olib kel).

Girdixona- ko‘rpacha. Ko‘pincha 4 yoki 6ta bir xil rang va o‘lchamdagi ko‘rpacha to‘plamiga aytiladi. Masalan: Kelin nechta girdixona qilibdi? Oltita qilgan ekan.

Cholap (ba‘zi joylarda chalop)- chakki (yog‘li suzma)ni suyultirib sutdek holatga kelganda ichiladigan ichimlik. Eslatib o‘tish joizki, ushbu ichimlikni ayron va qimizdan farqi bor.

Keskan osh- ingichka kesilgan xamirdan tayyorlanadigan suyuq ovqat. Asosan katta tadbir va to‘ylarda birinchi taom sifatida beriladi.

Kunda- daraxt to‘nkasi. Masalan: Salim charchab kelib kundaga o‘tirdi.

Tilichka- traktorning paxta yoki bug‘doy tashish uchun ulab qo‘yilgan qo‘shimcha qismi. Xalq orasida “Bir tilichka bolali bo‘linglar” iborasi farzand tilash ma‘nosida juda ko‘p qo‘llanadi.

Chashkay- kunning o‘rtasi. Peshin vaqti. Masalan: Bu bola chashkaygacha uxlaydi.

Hova- aynan yomg‘irning o‘zi. Masalan: Bugunam hova joyvradiku.

Jelak- qariya va yoshi katta ayollar kiyadigan, paranjiga o‘xshash bosh kiyim. Masalan: Momam jelagini jovinib ketdi.

Jorma palov- exson oshi. Asosan keng adirlikda mahalla ahli bilan tayyorlanib, shu joyning o‘zida iste‘mol qilinadigan taom.

Qoyirma non- tuqqan ayollar iste‘mol qiladigan non turi.

Umoch osh- xamirni guruch hajmida maydalab, sutda qaynatiladigan taom.

Zardoli- quritilgan o‘rikning yetilib pishgan holati. Xom holati esa dovuchcha deyiladi.

Pidina- ariq bo‘yida o‘sadigan yalpiz.

Chaqirtikan- ismaloqning me‘yoridan ortiq yetilib, donlab ketgandagi holati.

Burum- yo‘lning qiya burilgan qismi, muyilish. Masalan: Manshul (Mana shu) burumdan so‘lg‘a ketasan.

Jiyirmoq-burmoq, burishtirmoq. Masalan: Menga qarab burnini jiyirdi.

Iyartmoq, iyartirmoq- ergashtirmoq. Masalan: Bu kampiram hech bachcha iyartmay juralmaydi.

Ko‘kay- yurak, qalb, dil. Masalan: Ko‘kayimdi kesdingku, Meni tirilay jedingku. (Xosila Rahimova)

Maymoq- oyog‘i qiyshiq inson. Masalan: Mahalladagi Shokir maymoqni taniysanmi?

Oyil, ayil- eshakning jabdug‘ini mahkamlash uchun ishlatiladigan arqon. Masalan: Eshagingdi oyili mahkamma?

Olashaqshaq- hakka qushi.

Boytal- urg‘ochi ot. Masalan: Kechagi ko‘pkarida Chori buvani ola boytali ovlab qobdi.

Illa- zo‘rg‘a, qiyinchilik bilan. Masalan: Illa jetgan jayimda, ketaman deydi.

Jolqi- bitta, yagona. Masalan: Sigiri jolqi tuvpti.

Sulliyi qurig‘an- sutdan qolgan, yoki sutga to‘ymagan farzand.

Ko‘kataloq, ko‘ktirnoq- ziqna, xasis kishi. Masalan: Shu hamsiya yomonam ko‘kataloqda.

Chapcha tuymoq- ikkiqat, homilador bo‘lmoq. Masalan: Suyunchi ber, opang chapcha tuypti.

Movqi bosilmoq- xumori qonmoq. Sog‘inib kutgan narsasi yoki insoniga yetishmoq.

Sonsizning savog‘i uzun- “savog” so‘zi tikish uchun mo‘ljallangan ip ma‘nosida kelgan.

Emi-temi shu bo‘lsin. “Duosini ijobat bo‘lsin” degan ma‘noda ishlatiladi.

Chechada qolding- ko‘chada qolding. Yoxud Chechaga qogan kun- qorong‘u kechaga qogan kun. Bu maqolda “checha” so‘zi kelinoyi, yanga ma‘nolarida kelgan.

Imdinida bo‘lmoq- maqsad qilmoq, harakat qilmoq, xohlamoq. Masalan: Imdiningda bo‘lsa-ku qilasan, erinasanda.

Hamal- hamalda jovg‘an amal. Hamal oyi mart va aprel oylarini o‘z ichiga olgani uchun ham shunday deyiladi. Ya‘ni marta yomg‘ir yog‘sa yer serhosil bo‘ladi.

Yaxshi kelsa hut- kadi kadi sut, yomon kelsa hut keragada put. Fevral oxiri va martning boshlanishi hut deyiladi. Agar shu oy yaxshi bo‘lsa ya‘ni qahratonlik bo‘lmasa chorva mollar ko‘proq sut beradi. Ammo aksi bo‘lsa chorva mollar ozib ketib, son qismi (put) ingichkalashib, kasallanib qoladi.

Savr- ekinlarga keldi davr. Savr- aprel oxiri va mayning boshi. Bu oyda ekinlar gullab, sekin asta hosilga kira boshlaydi.

Biz keldik kelin ko‘rgani, kelin ketibdi tezak tergani. Xalqimizda bu maqol kelinlik xizmatlarining ko‘pligi va kelinning vaqti tig‘izligini anglatadi.

Tuya elakka kelsa- oqiroq kelar. Noshukrlik ma’nosini ifodalovchi maqol hisoblanadi, tuyaga qanchadan qancha yuk ortilganda ham jim turib, oddiygina elak ortilganda baqirgani noshukrlik belgisidir.

Qontar ovsa, qoziq boshida qor turmas. “Qontar” so’zi qishdan sekin-asta bahorga chiqish ma’nosini bildiradi. Bundan tushunish mumkinki, kunlar isigan sayin qorlar kamayadi.

Barg’azon- kuzdagi barg to’kilishi, xazonrezgilik.

Quyanchiq- tutqanoq kasalligi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunga kelib shevaga oid so’zlarning ko’pchiligi etnografizm darajasiga kelib qolgan. Ularni saqlab qolish dialektologlarning asosiy vazifasidir. Shu qatorda 2019-yilda yozilgan A.Omonturdiyevning “Surxandaryo dialektal etnografik maqollarining izohli lug’ati” kitobi ham mazkur yo’nalishdagi zaruriy manbalardandir. Unda yig’ilgan mingga yaqin maqol va iboralarning ba’zilari Qashqadaryo qishloqlarida ham ishlatililishini ko’rish mumkin. Xulosa o’rnida yana bir gapni ta’kidlash o’rinliki, shevalarning dialektal so’zlarini ma’lum tizimda yig’ib borsak, katta hamda ko’p miqdorli dialektal, shevaga oid so’zlar majmui yig’ilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S., O’zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Omonturdiyev A., Rahmonov b. Surxandaryo dialektal etnografik maqollarining izohli lug’ati. Toshkent, 2019.
3. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O’zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O’qituvchi”
4. Shoabdurahmonov Sh. O’zbek adabiy tili va o’zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962.

ZARDO‘ZLIKNING TARIXI VA ZAMONAVIY TALQINI

Nurullaeva Ruxshona

Termiz davlat universiteti 3-kurs milliy libos, kashtachilik va to‘qimachilik yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: Zardo‘zlik Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va san‘atida muhim o‘rin egallagan amaliy san‘at turlaridan biridir. Ushbu maqolada zardo‘zlik san‘atining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy talqini ilmiy asosda yoritiladi va rivojlanishini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: zardo‘zlik san‘ati, zardo‘zlik naqshlari, geometrik shakllar, gul va o‘simlik motivlari, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati

KIRISH (Introduction)

Zardo‘zlik san‘ati O‘zbekistonning qadimiy madaniyatlaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos milliy meros sanaladi. Ushbu san‘at oltin va kumush iplar yordamida matolarga nafis naqshlar tikish orqali amalga oshiriladi. Zardo‘zlikning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi va u xalqning badiiy didi, ma‘naviyati hamda ijodiy salohiyatini aks ettiradi. Zamonaviy davrda zardo‘zlik san‘ati yangi talqinlarga ega bo‘lib, xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilinmoqda.

Zardo‘zlik san‘ati qadimdan turkiy va forsiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, uning ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq rivojlanishi zardo‘zlik san‘atining tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan naqshinkor matolar va zardo‘z ashyolari mazkur san‘atning qadimiyligini isbotlaydi⁷.

O‘rta asrlarda zardo‘zlik san‘ati o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishdi. Xususan, Temuriylar davrida Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda zardo‘z ustalarining faoliyati jadal rivojlandi. Ushbu davrda yaratilgan asarlar nafaqat mahalliy bozorlar, balki xalqaro ko‘rgazmalarda ham yuqori baholangan⁸.

Zardo‘zlik jarayonida ipak, oltin va kumush tolalar qo‘llaniladi. Ushbu tolalar maxsus ignalar yordamida matoga ishlanadi va o‘ziga xos naqshlar yaratiladi. Zardo‘zlik naqshlari odatda geometrik shakllar, gul va o‘simlik motivlariga asoslanadi⁹.

Bugungi kunda zardo‘zlik san‘ati yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. Zamonaviy dizaynerlar an‘anaviy naqshlarni saqlab qolgan holda, ularga yangi mazmun va shakl berishmoqda. Shu bilan birga, zardo‘zlik asarlari xalqaro moda sanoatida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda¹⁰.

⁷ S. Karimova. “O‘zbekistonning amaliy san‘ati tarixi”. Toshkent: Fan, 2010. M. Mirzaev., Buyuk Ipak yo‘li va hunarmandchilik rivoji. Samarqand: Sharq. 2015

⁸ T. Rashidov., *Temuriylar davri san‘ati*. Toshkent: O‘zbekiston. 2001.

⁹ Z. Usmonov., *Zardo‘zlikning texnikasi va amaliyoti*. Buxoro: Ipak yo‘li nashriyoti. 2019

¹⁰ O. Abdullayev., *Zamonaviy moda va an‘anaviy naqshlar*. Toshkent: Ilm-fan. 2020

USULLAR (Methods)

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar qoʻllanildi:

- Zardoʻzlik sanʼati boʻyicha tarixiy va zamonaviy ilmiy maqolalar tahlil qilindi.
- Oʻzbekistonning zardoʻzlik markazlarida amalga oshirilgan kuzatuvlar asosida maʼlumotlar toʻplandi.
- Zardoʻzlik sohasida faoliyat yurituvchi hunarmandlar va dizaynerlar bilan suhbatlar olib borildi.

NATIJALAR (Results)

Zardoʻzlik sanʼati dastlab qadimiy Buxoro va Samarqand shaharlarida rivojlanib, asosan saroy kiyimlari va diniy bezaklarni yaratishda qoʻllanilgan. XIV-XVI asrlarda bu sanʼat oltin davrini boshdan kechirdi¹¹.

Bugungi kunda zardoʻzlik texnologiyalari va naqsh uslublari oʻzgarib, modalar dizayni va turizm suvenirilariga moslashtirildi. Misol uchun, milliy naqshlardan ilhomlangan zamonaviy koʻylaklar xalqaro koʻrgazmalarda namoyish qilinmoqda¹².

Zardoʻzlik mahsulotlari eksport qilinib, mahalliy ustalarga iqtisodiy daromad keltirmoqda¹³.

Buxoro va Samarqandning milliy kiyimlari Oʻzbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi va noyob zardoʻzi kashtalari bilan ajralib turadi.

XIX asrda Buxoroda zardoʻzlik sanʼati gullab-yashnagan. Zardoʻzi kashtalar bilan, asosan, saroy aʼyonlari, ayollar va erkaklar kiyimlari: chopon, belbogʻlar, bosh va oyoq kiyimlar bezatila boshlandi. Zardoʻzlik sanʼatida zardoʻzi-zamindoʻzi texnikasi keng tarqaldi, bunda asos sidirgʻasiga kashta bilan tikib chiqiladi.

XX asrda zardoʻzi-guldoʻzi texnikasi rivojlandi, bunda naqsh gullari qattiq qogʻoz yoki kartondan qirqib olinib, mato ustiga qoʻyiladi va zar ip bilan tikib, qoplanadi.

MUNOZARA (Discussion)

Hozirgi vaqtda zardoʻzlik sanʼati anʼanalari yanada yuqori pogʻonaga koʻtarildi. Buyumlarning turlari koʻpaydi, kompozitsiyalar ishlab chiqish sifati yaxshilandi. Doʻppilar, ayollarning yengsiz nimchalari, shippaklar, belbogʻlar, sumkachalar, kartmonlar va boshqalar keng tarqaldi (61-rasm).

Shunday qilib, Buxoro va Samarqand Oʻzbekistonning zargarlik va zardoʻzlik sanʼati rivojlangan markazlaridan hisoblanadi.

Zardoʻzlik — bezak sanʼati turi, amaliy sanʼatning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi.

¹¹ S. Karimova. “Oʻzbekistonning amaliy sanʼati tarixi”. Toshkent: Fan, 2010.

¹² M. Mirzaev,. Buyuk Ipak yoʻli va hunarmandchilik rivoji. Samarqand: Sharq. 2015

¹³ O.Abdullayev,. *Zamonaviy moda va anʼanaviy naqshlar*. Toshkent: Ilm-fan. 2020

To‘rtburchak chambarakka (korcho‘pga) o‘rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va b. matolarga zardo‘zi usulida kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtada ba‘zan metall, tosh, shisha munchoklar ham ishlatiladi, turli matolar (baxmal, shoyi)dan quroq qilinadi. Oldindan tayyorlangan (rassomlar tomonidan yaratilgan mujassamot nusxasi kuchirilgan) axta qog‘ozlardan keng foydalaniladi. Matoga mustahkamlangan (tikilgan yoki yopishtirilgan) axta qog‘oz zar ip bilan bir tomonlama qoplab tikiladi (mustahkamlovchi chok uchun zar ipga moye rangdagi ipdan foydalaniladi), natijada naqshgul yuzasi zar iplar bilan qoplanadi, matoning teskarisida naqshgul shakligina hosil bo‘ladi. Zardo‘zlar bezak yaratishda bir necha usulni qo‘llaydilar: zardo‘zi zamindo‘zi va zardo‘zi guldo‘zi, shuningdek, birishimdo‘zi (ipak ishlatilganda), pulakdo‘zi (tugmasimon metall yaproqchalar qo‘llanganda). Mustahkamlovchi va tahrir choklarning bir necha xilini mohirona qo‘llanishi hamda ularning naqsh mujassamoti bilan uyg‘unlashuvi zardo‘zi buyumlarga joziba va nafosat baxsh etadi; ularning badiiy qimmatini naqsh mujassamoti, xom ashyosi, tikilishi hamda zardo‘z ustaning did va mahoratiga bog‘liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an‘ana zardo‘zlik badiiy hunarmandlik turi sifatida Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan. Asosan, binolar ichini bezaydigan buyumlar, ayollarning bayram liboslari zardo‘zlik bilan tayyorlangan.

Arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar O‘rta Osiyo xalqlari orasida zardo‘zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ispan elchisi Klavixo uz esdaliklarida zardo‘zlik usulida tikilgan ko‘rpato‘shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida, erkak va ayollarning zar ipda tikilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining "Hindiston safarnomasi" risolasida Shohruх (1442) Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilari orqali unga zardo‘zi do‘ppi sovg‘a qilgani qayd etilgan. Vosifiy o‘zining risolalarida zardo‘zlik kasbi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Darqariqat, 15—18-asrlarda Buxoro, Samarqand, Hirotda zardo‘zlik yuksak pog‘onaga ko‘tarilgan. Uning 19-asrdagi taraqqiyoti Buxoro bilan bog‘liq. Buxoroda saqlanib kelayotgan zardo‘zlik kasbi uzoq davr mobaynida sayqal topib, takomillasha borgan.

Zardo‘zlik bilan, asosan, erkaklar shug‘ullangan (hozir ayollar orasida ham keng tarqalgan), ular ustaxonalarga uyushib ishlashgan. 19-asr o‘rtalari 20-asr boshlarida yaratilgan zardo‘zi buyumlar (to‘n, kamzul, chakmon, chalvor, poyabzal, belbog‘, salla, kuloh va jul kabi)ning deyarli barchasi amir va uning oilasi, saroy a‘yonlari uchun tayyorlangan, qisman badavlat xonadonlar buyurtmalari ham bajarilgan. 19-asr 30—60 yillarida zardo‘zlikda aks ettirilgan mujassamotlar qanchalik oddiy bo‘lsa, kashta — gullar ham shunchalik ravon va jozibador bo‘lgan. 19-asr 70—80 yillarida zar ip yoki zar aralashtirib eshilgan ipak ip (pushti, to‘q qizil, moviy, yashil)dan foydalanilgan. Zardo‘zlikning zardo‘zi birishimdo‘zi nomli o‘ziga xos turi shu davrga xosdir. 1893-yildan zar iplarning yangi navlari ko‘p miqdorda ishlab chiqarilib, ular rangli ipak iplarni siqib chiqardi va umumiy tikish uslubini ham tubdan o‘zgartirib yubordi.

1890— 1900 yillardagi zardo‘zlik zargarona o‘ta nozikligi bilan ajralib turadi. Turli ko‘rinishdagi bo‘rtma girixlar, yulduzchalar va shunga o‘xshagan

boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turgan, ayniqsa, davqur mujassamoti alohida o'rin tutgan. 20-asr 20 yillarida barcha amaliy buyumlarning turlari o'zgardi, avvalgi hashamdor buyumlar o'rnini nafis ishlangan, davr talabiga mos buyumlar egalladi, naqsh mujassamoti soddalashtirildi, an'anaviy naqshlar davr ruhini ifoda etuvchi shakllar bilan boyitildi. Zardo'zlar ayollarning bayram liboslari (ko'ylak, nimcha, do'ppi, kamar, kavush, sumkacha), an'anaviy buyumlar, erkaklar uchun sovg'a to'nlar, do'ppilar tayyorlay boshladilar. 40—50 yillar boshida mahobatli zardo'zi namoyonlar yaratish sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki yirik ish Navoiy teatri uchun tikilgan zardo'zi parda bo'ldi (1947, A. Shchusev chizgisi, hajmi 7x27 m). Rassomlarning amaliy san'at ustalari bilan hamkorligi hamda ijodiy izlanishlar natijasida yangi mujassamotli mayda buyumlar, badiiy jihatdan qimmatli namoyonlar yaratildi va yaratilmoqda: "Kitoba" (1952, N. Aminov chizgisi), "Paxta" (1955, M. Prutskaya chizgisi), "Bayram" (1959, V. Stolyarov va M. Ahmedova chizgisi), "Girih" (1962, V. Stolyarov chizgisi), Alisher Navoiyning 525 yilligiga (1968) va b.ga bagishlangan namoyonlar zardo'zlikning katta yutug'i bo'ldi. 90yillarga kelib zardo'zlik qayta tiklandi. Buxoro, Andijon, Namangan, Fargona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax sh.lari, Surxondaryo viloyati zamonaviy zardo'zlik san'atining markazlari hisoblanib, zardo'z ustalar (N. Aminov, B. Jumayev, S. Akbarova, T. Sodikrva, G. Bozorova, G. Pirimqulova, M. Habibova, G. Nurtoeyeva, M. Muhiddinova, D. Tosheva va b.) chopon, do'ppi, nimcha kabi liboslar katorida mavzuli namoyonlar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko'zoynak g'ilofi, upaelik sumkachalarini zardo'zlik usullarida bezatishni rivojlantirdilar¹⁴.

Xulosa: zardo'zlik san'ati – bu faqat amaliy san'at turi emas, balki milliy madaniyat va tarixni aks ettiruvchi boy merosdir. Zardo'zlik san'ati O'zbekistonning boy madaniyati va ijodiy salohiyatining yorqin namunasi hisoblanadi. Zardo'zlik san'atining rivojlanishi O'zbekistonning madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan holda, bu san'at turining imkoniyatlari yanada kengaymoqda. Ammo, texnologik rivojlanish jarayonida an'anaviy texnika va naqshlarning asl ko'rinishini saqlab qolish masalasi dolzarbdir.

Uning zamonaviy talqini esa milliy qadriyatlarni dunyo miqyosida targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu san'atni xalqaro miqyosda targ'ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir, har birimizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. Karimova. “O'zbekistonning amaliy san'ati tarixi”. Toshkent: Fan, 2010.
2. M.Mirzaev. Buyuk Ipak yo'li va hunarmandchilik rivoji. Samarqand: Sharq. 2015.

¹⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zardo%CA%BBzlik#Manbalar>

3. T. Rashidov,. Temuriylar davri san’ati. Toshkent: O‘zbekiston. 2001.
4. Z.Usmonov. Zardo‘zlikning texnikasi va amaliyoti. Buxoro: Ipak yo‘li nashriyoti. 2019.
5. O.Abdullayev. Zamonaviy moda va an’anaviy naqshlar. Toshkent: Ilm-fan. 2020.
6. J. Rajabova. “Zardo‘zlik san’ati va zamonaviy moda”. Ilmiy maqola, 2021.
7. M. Abdullayev. “Zardo‘zlik mahsulotlarining eksport salohiyati”. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING NUTQ KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Nurmatova Mashhura Tuychi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi. Nutq ko‘nikmalarining asosiy talablari, nafaqat grammatik bilim, balki haqiqiy jamiyat tayanchlarida til ko‘nikmalaridan samarali foydalanish qobiliyati ham ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy texnologik va ta’lim jarayonlarini integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratiladi. Dars jarayonlarida turli xil tasvirlar, matnlar, topishmoqlar yordamida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan turli xil texnologiyalar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *nutq, rag‘batlantirish, motivatsiya, nutq malakalari, nutq qobiliyatlari, ta’limning kommunikativ yo‘nalishi, og‘zaki nutq, yozma nutq.*

Abstract: *This article analyzes the process of formation of speech skills of elementary school students. The main requirements of speaking skills are considered, not only grammatical knowledge, but also the ability to use language skills effectively in the context of real society. Special attention is paid to the integration of modern technological and educational processes. In the course of the lesson, various technologies aimed at developing students' speech are discussed with the help of various images, texts, riddles.*

Key words: *speech, motivation, motivation, speech skills, speech skills, communicative direction of education, oral speech, written speech.*

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования речевых навыков учащихся младших классов. Основными требованиями к навыкам говорения считаются не только грамматические знания, но и умение эффективно использовать языковые навыки в условиях реального общества. Особое внимание уделяется интеграции современных технологических и образовательных процессов. В ходе занятия обсуждаются различные технологии, направленные на развитие речи учащихся, с помощью различных изображений, текстов, загадок.

Ключевые слова: речь, мотивация, мотивация, речевые навыки, речевые навыки, коммуникативное направление обучения, устная речь, письменная речь.

Kirish.

Nutq-insonning fikrini, his-tuyg'ularini, maqsadlarini boshqalar bilan muloqotda ifodalashning muhim vositasidir. Nutq ko'nikmalarining rivojlanishi esa har bir bola uchun uning muloqot, o'rganish va ijtimoiylashish jarayonida katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularning o'z fikrini to'g'ri va aniq ifodalashiga yordam berish, kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda ular uchun qulay sharoit yaratish, turli xil vazifalar va mashqlar orqali nutq faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek, nutqiy madaniyatni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda bolaning nutqni to'g'ri va mukammal ishlatishi, imlo qoidalari va grammatikani o'rganishi, so'z boyligini oshirish kabi masalalar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Material va metodlar. Maktab o'quvchilarida nutq malakalarini shakllantirish boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu muammoni hal qilish maktab rivojlanishining turli bosqichlarida turli nazariy asoslarga qurilgan. Bugungi kunda ko'pgina olimlar nutq faoliyati nazariyasini eng samarali asos sifatida tan oladilar, unga ko'ra nutq shaxsning psixologik-pedagogik rivojlanishining mahsuli sifatida qaraladi. Nutq qobiliyatlari uchta harakat majmuasini izchil amalga oshirishni talab qiladi: birinchidan, o'qilgan matnni yetarli darajada tushunish, matnning asosiy g'oyasi va tuzilishini ajratib ko'rsatish qobiliyati; ikkinchidan, o'qilgan ma'lumotni aniq va mantiqiy yetkazish qobiliyatini nazarda tutadigan matnni to'g'ri takrorlash; uchinchidan, suhbatdosh bilan ma'lum bir kommunikativ vaziyatda o'qilgan narsa haqida o'z nutqini qurish qobiliyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni rivojlantirish

jarayonini takomillashtirish quyidagi tamoyillarni qo'llash bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ta'limning kommunikativ yo'nalishi buning uchun eng muhimi o'quv jarayonini nutq mashqlari bilan to'ldirishdir (savollarga javob berish, turli grafikalar asosida dialoglar tuzish, qayta hikoya qilish, bajarilgan ish haqida fikr almashish, taqdimotni muhokama qilish, rasm chizish, multfilm, rolli o'yinlar va boshqalar.

2. Nutq va tafakkur rivojlanishidagi birlik. Bu tamoyil o'quvchilarni lingvistik va nutqiy namunalardan xabardor qilishga va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qulay darajada tushuntirishga qaratilgan mashqlarni o'quv jarayoniga kiritishni nazarda tutadi. Bularga, masalan, so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nosini taqqoslash, frazeologik birliklar, maqollarning ma'nosini tushuntirish va boshqalar kiradi. O'quvchilardan o'z mulohazalarini tushuntirish va isbotlay olishlarini talab qiladigan fikrlash kabi matn turi alohida ahamiyatga ega.

3. Til tuyg'usini shakllantirish va o'quv faoliyatida unga tayanish. So'zlarning leksik ma'nosi bilan ishlash. So'zlarning ma'nosini tushunishda qiyinchilik, ayniqsa ko'p so'zlarni tushunish, kichik maktab o'quvchilarining til va nutq rivojlanishidagi muammolardan biridir. Ko'pincha, so'zning ma'nosini umuman tushunmagan holda, zamonaviy bolalar uni ma'lum bir nutqda qo'llash maqsadga muvofiqligini anglamaydilar. Shu o'rinda quyidagicha vazifalarni bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi: Nutqimizga kiritish uchun taklif qilingan so'zlardan so'z tanlash; noto'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanilishi aniqlangan matn yoki jumlani tahrirlash va yozuvchilar, so'z ustalari va boshqalar tomonidan lingvistik vositalardan foydalanishni kuzatish.

4. O'quvchilarning nutq faolligini rag'batlantirish. Bu tamoyilning amalga oshirilishi darsning mazmuni, uning tuzilishi, usul va metodlarni tanlash, mashqlar turlari, faoliyatni tashkil etish shakli bilan ta'minlanadi. Ushbu muammoni hal qilishda alohida rolni guruh va juftlik o'ynaydi, bunda umumiy nutq mahsulotini yaratish mumkin, masalan, tavsif yoki fikrlash elementlari bo'lgan hikoya insho, qiyosiy tavsif va boshqalar. Muvaffaqiyat uchun motivatsiya bolalarni nutq faoliyati rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etadi.

5. Og'zaki va yozma nutqning munosabati. Yozma bayonlarni oldindan tayyorlash va yozma nutqni to'g'ri tashkil etish. Bu tamoyil orqali o'quvchilar fikrlarini birinchi yozma bayon etishadi, keyin esa og'zaki nutqqa ko'chirishadi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning so'zlashuv va yozish malakalarini rivojlantirish, balki ularning mantiqiy fikrlash, muhokama qilish, o'z fikrini aniq va ravon ifodalash

qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin va tushunarli tarzda bayon qila olishadi, bu esa ularning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta’sir qiladi. Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda nutq ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga, ular uchun muhim kommunikatsion vositalarni egallashga va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Выготский Л.С. Умственное развитие детей в процессе обучения. М.: Книга по требованию, 2013. - 135 с.

2. Планируемые результаты начального общего образования / [Л.Л. Алексеева [и др.]]; под ред. Г.С. Ковалевой, О.Б. Логиновой. М.: Просвещение, 2020. - 120 с.: (Стандарты второго поколения).

3. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari

4. Nishonaliyev U.N. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar //Xalq tahlimi j. T.: 1999, 6-son.28-31-b.

5. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. ped. f. n. dissertatsiya, Qarshi: 2008. 145 b.

O'Z YURTIGA SIG'MAY KETGAN BOBUR BOBOM

Uralova Gulmira Salim qizi

JDFU talabasi

Email:urolovagulmira4@gmail.com

Yulduz chaqnab, oy to'lmagan tunlarida,
Sarson bo'lib, shoh bo'lsada, topmay orom.
Sog'inch dilin o'rtayverib kunlarida,
O'z yurtiga sig'may ketgan, Bobur bobom.
Vafo dedi jafolarga ko'mdi olam,
Gohi ochiq, gohi berkdir darvozalar.
Tuhmatlari haddan oshdi qildi alam,
Xiyonatkor, qo'rqoq dedi ovozalar.
Yosh joniga armonlardan qalban tolib,
Musofirlik zardalari qo'ymay omon.
Samarqand-u Andijondan ko'zin olib,
Ko'ngil olib ketolmagan, nodir bobom.
Kimsalarga dardlarini aytolmayin,
Bu dard emas tarix dedi, tutdi qalam.
Sog'insada vataniga qaytolmayin,
Òz yurtidan yig'lab ketgan shoir bobom.
O'zga yurtni yurt tutmoqlik, bòlmay oson,
O'zga havo dimoğlarda qoldi mudom.
Yildek mushkul har bir lahza har bitta on,
Sabrlardan koshin qurgan, qobil bobom.
Shior bo'ldi, Temur so'zi: "rostiti",
Yurt qayg'usi bedor qildi kunduz oqshom.
Tiz cho'ktirmas, nonkòr bòlgan Bayda qasti,
Dushmanga ham saxiy bòlgan, odil podshom.
O'ylamangiz bu hammasi ixtiyormas,
Yurtdan ketgan hech bir banda baxtiyormas,
Jism-u tani uzoqlarga ko'chsa hamki
Bobur ruhi òz elidan ketolganmas!

("Yulduzli tunlar" Romani asosida yozildi)

MOTAM MAROSIMLARI

Rajabboyeva Sevinch

Urganch davlat Pedagogika instituti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada motam marosimlarining Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlarida turlicha o'tkazilishi to'g'risida ma'lumotlar berildi va ularda qilinadigan urf-odat, irim-sirimlarning mazmun-mohiyati ochib berildi.*

Kalit so'zlar: *Motam, marosim, urf-odat, irim-sirim, ta'ziya.*

Kishining vafoti munosabati bilan marhumning xotirasini yod etib o'tkaziladigan marosimlar. Motam marosimlari barcha xalqlarda mavjud, u geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, kishilarning ilmiy, diniy tasavvurlari va boshqa omillar ta'sirida o'zgarib borgan. Motam marosimlari marhum vafotining ma'lum kunlarida, fasl mavsumlarida hamda diniy bayramlarda o'tkaziladigan marosimlarga bo'linadi. Bu marosimlarda marhumning arvohi yod etilgan, arvohni shod etish uchun turli rasm-rusmlar bajo qilingan. Bu marosim turli viloyatlarda turlicha tarzda o'tkaziladi. Dastavval, Navoiy viloyatida ta'ziya marosimi qanday tartibda o'tkazilishini tahlil qilamiz.

Navoiyliklar ta'ziya marosimida yaqin insoni ya'ni otasi, onasi yoki jigarbandlari olamdan o'tganida qirq kun davomida yetti kishi ko'k rangdagi uzun libos kiyadi, ayollar boshlariga kichik ro'mol o'ragan holatda paranji yopinib yurishadi. 40 kunlik aza davomida ular fasillarimizning qaysi biri bo'lishidan qat'iiy nazar oyoqlariga maxsi va kalish kiyib yurishadi. Bu viloyatda biror bir uyda bir kishi olamdan o'tgan kundan boshlab, uch-besh kungacha ko'chaning boshiga biror taxtaga qizil mato osib qo'yishadi. Bu urf-odatning ma'nosi shu ko'chada biror kishi vafot etganligini belgi sifatida qo'yiladi. Ya'ni jon chiqdi, "qizil-qiyomat"- degan so'zlarning ham ma'nosi shundan dalolat berishini izohlaydi. Bu xonadonda ayollar uchun ichkariga, erkaklar uchun tashqariga joy hozirlansada, lekin ayollar o'lgan kishini uzatish jarayonida hovlida yig'laydilar. Marhum chiqqan uyda uch-besh kungacha ovqat qilinmaydi. Bu uyga ovqatni qarindoshlari pishirib keladilar, lekin mayda-mayda tao'mlar olib kelinishi irim qilinadi. Agar bu yerga bu taomlar ta'ziya ko'paymasin, davomli bo'lmasin xonadonda o'likning izi uzilmasligi belgisini bildirar ekan. O'lik chiqqan xonaning oyna usti yopilgan turishi kerak. Televizor yoqilmaydi. Ta'ziya bo'lgan uyning ayollari beliga qizil belbog' bog'lab qo'yishadi. Keyin ta'ziya bo'lgan xonadonda uch kungacha "nukcha" yoqiladi. Bu marosimni o'tkazishdan maqsad

xotiralash, ruhi tinch bo'lsin deb qilinadi. Yana ma'lumot o'rnida shuni aytishim mumkinki, ta'ziya bo'lgan xonadonda o'likni yuvish uchun murdasha'y keladi. Ammo, Navoiy viloyatining boshqa tumanlarida o'likni poksha'y yoki qarindoshlari yuvadi. Ammo Navoiy shahrida o'likni yuvishga alohida odam chaqiriladi. Murdasha'y o'likni yuvib bo'lgandan keyin, paranji yopib chiqib ketadi. Uning yuzini hech kim ko'rmasligi kerak. Shu tariqa har bir hududning ta'ziya marosimining o'ziga xos irim-sirimlarning mavjudligi bilan farq qiladi.

Haqiqatdan ham ta'ziya marosimlari turli hududlarda, ayniqsa, musulmon mamlakatlarida turlicha bo'lib, ular tegishli urf-odatlar bilan bog'langandir. Shu o'rinda Xorazm vohasining urf-odatlariga to'xtaladigan bo'lsam, chaqaloqdan tortib, barcha marhum va marhumalar vafot etganlarida yoshi katta otaxon va onaxonlarimiz tomonidan mayit oldida o'tirib salovatlar o'qiladi. Xorazm viloyatida bu marosim, umuman, boshqacha o'tkaziladi. Bu yerda ta'ziya bo'lgan xonadonning ayollari qirq kungacha “aza ko'ylagi” kiyishadi. Boshiga oq ro'mol o'rashadi. Ular kiygan ko'ylagi qizil gul bo'lmasligi kerak. Ko'ylagi rangi yopiq rangda bo'lishi, ko'k, qoramtir rangli bo'lishi, unda mayda gullari bo'lishi kerak. Aza ko'ylagini besh-yetti kishi kiyishi kerak bo'ladi. Ta'ziya bo'lgan xonadonda uch kungacha ovqat qilinmaydi. Yetti kungacha oynalar, televizorlar yopib qo'yiladi. Chunki oynadan o'lik ko'rinib qo'rqib ketmasinlar degan maqsadda qilinadi bu irim. Yeti kungacha bu xonadonda xamir ovqat qilinmaydi, yoygich, oqlov ishlatilmaydi. chunki o'lik yoyilish mumkin degan irim-sirimlari bor. Yetti kungacha uyda sovun ishlatilmaydi, narsa yuvilmaydi. Chunki o'likning og'zi ko'piradi degan irim qilingan. Xorazm viloyatida o'likni qarindoshlari birgalikda yuvishadi. Ta'ziya bo'lgan uydan aza ko'ylagi kiygan ayol to'y-hashamga borishi, bola tug'ilgan, chillali uyga borishi mumkin emas. Agar bola tug'ilgan uyga borsa, u uyga chilla tushib, biror yomon hodisa yuz berishi mumkin dgan irim qilinadi va bu bilan ta'ziya inson boshiga tushgan kulfat yangi chaqaloqqa ziyon yetkazmasligi odat tusiga krib qolgan.

Buxoro viloyatida ta'ziya marosimi ham o'ziga xos o'tkaziladi. Ta'ziya bo'lgan xonadon ayollari boshiga oq ro'mol, oq ko'ylak, kaltacha kiyib beliga oq belbog' bog'lashadi. Lachak kiygan ayollar lachagini kiyib yurishadi. Oyoqlariga qaysi fasl bo'lishidan qat'i nazar mahsi va kovush kiyib yurishadi. O'lik chiqqan uyda ovqat qilinmaydi. 3 kun bo'lganida “o'lik isi”, “uch oqshom” bo'ldi deb sho'rva qilinadi. 7 kun to'lganda esa, chalpak qilinadi, 3 dona qatlama qilinadi. Uyning oynalari, televizorlari yopib qo'yiladi. Xonadondan o'likni olib ketguncha ayollar ham, erkaklar ham hovlida yig'laydilar. O'likni olib ketishgandan so'ng, ayollar uyda yig'lashadi. Buxoroda o'likni “murdoshek” ya'ni maxsus yuvuvchi yuvadi. U kishi kelgandayam, ketgandayam yuziga paranji tortib keladi. U kishini hech kim kimligini bilmasligi kerak. O'lik

yuvilgan joyga “nukcha” oʻralib beriladi. Ana oʻsha joyda oʻlgan kishining yaqlaridan biri kirib suv qoʻyadi, olov yoqib suv isitadi. yetti kungacha shu xonaning chirogʻi yoniq turadi. Bur irim-sirimlarni qilishdan maqsad oʻlgan insonning ruhi shod boʻlsin deb qilinadi. Ayollar aza kiyimini 1yil boʻlganda yechishadi. Avvallari yillik yeti, toʻqqiz, oʻn bir oy toʻlganda qilinadigan boʻlsa, hozirda esh oy boʻlganda qilinadigan boʻlgan, ana oʻshanda ayollar aza kiyimlarini yechishadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi keltirib oʻtilgan taʼziya marosimidagi urf-odat va anʼanalar negizida inson qadri, uni oxirgi manzilga ham eʼzoz, hurmat ila kuzatish yotadi. Oʻzbek xalqining motam marosimlarining turli odat va irimlar bilan boʻliqligii koʻpchiligi xotin-qizlar bilan bogʻliq. Marosimning oʻtkazish tartibi, har bir hududda yaqinini yoʻqotgan insonga oʻziga xos tarzda, taʼziya bildirish jarayoni bir-biriga yaqinligi va farqli jihatlari qadimda kekxa avlod vakillaridan oʻtib saqlangani va bugungi kunda islom dinida zid boʻlgan irimlar “xurofot” deb taʼqiqlanishlari bilan bir muncha odat va irimlari oʻtkazilmasligi ham mavjudligin koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O. Madayev Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi – T. Mumtoz soʻz. 2010.
2. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Joʻrayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. Oʻzbek folklori - T.Darslik. 2020.
3. O.Safarov. Folklor- bebaho xazina.Toshkent. Muharrir nashriyoti. 2010.
4. B.Sarimsoqov. Oʻzbek marosim folklori. Toshkent. Fan, 1986.

OʻQUVCHILARNING POTENSIALINI KENGAYTIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING OʻRNI VA TAʼLIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Anvarova Saodat Sayfulla qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlangʻich taʼlim fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlangʻich taʼlimda oʻqituvchining oʻquvchilarga individual yondashuvi mavzusini yoritishga bagʻishlangan. Shuningdek, maqolada Individual taʼlim muhitini barpo etishda qoʻllaniluvchi metodlar ham koʻrib chiqildi.

Kalit soʻzlar: *zamonaviy texnologiya, individual ishlash, kognitiv faoliyat, diagnostika ishlari, “Kouching” metodikasi.*

Hozirgi rivojlangan texnologiyalar davrida taʼlim muassasalarida, xususan boshlangʻich sinflarda zamonaviy texnologiyalarni toʻgʻri qoʻllay olish, oʻquv jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda taʼlim sohasiga qaratilgan eʼtibor va kiritilayotgan sarmoyalar bugungi kun oʻqituvchisi yelkasiga katta masʼuliyat yuklaydi va ulardan kasbiy intiluvchanlikni talab etadi. Xususan, millatimiz kelajagiga va uning ravnaqiga befarq boʻlmagan pedagoglar uchun bugun oʻsish, rivojlanish va oʻzini har jihatdan koʻrsata oladigan davrlar keldi. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida davlat rahbari birinchi navbatda, eʼtibor yangi Oʻzbekiston uchun eng katta investitsiya boʻlgan taʼlimni qoʻllab-quvvatlashga qaratilishini taʼkidladi. “Najot - taʼlimda, najot - tarbiyada, najot – bilimda, chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, - deydi davlat rahbari[1].

Darsda oʻquvchilar bilan individual ishlash bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida amalga oshiriladi. Bu, birinchi navbatda, past natijalarga erishgan maktab oʻquvchilari oʻrganayotgan materialni oʻzlashtirish uchun tez-tez sinovdan oʻtkazilishida namoyon boʻladi. Bu ularning muntazam mashgʻulotlarga borishini ragʻbatlantirish va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Turli didaktik vazifalarni hal qilishda darsning barcha bosqichlarida individual ishlarni bajarish tavsiya etiladi: yangi bilimlarni oʻzlashtirish va ularni mustahkamlash, koʻnikma va koʻnikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash, oʻrganilganlarni umumlashtirish va takrorlash, nazorat qilish, tadqiqot usulini oʻzlashtirish va hokazo. Ushbu shakl yangi materialni mustaqil oʻrganishda, ayniqsa uni uyda dastlabki oʻrganishda samarali qoʻllaniladi. Taʼlimning individuallashtirilgan shakli oʻquvchilarning mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu shakl oʻquvchilarning materialni oʻzlashtirish sifatini tekshirish va mustaqil ishlash qobiliyatini aniqlash uchun har bir talaba oʻrganish imkoniyatlarini hisobga olgan holda muayyan vazifani bajaradigan va koʻpincha mashq qilinadigan ishlarni shunday tashkil qilishni oʻz ichiga oladi. Oʻqituvchi har bir mavzu boʻyicha talabalar oʻzlashtirishi kerak boʻlgan bilim va koʻnikmalarning taʼlim minimal roʻyxatini ishlab chiqishi, tekshirish va oʻzaro tekshirish uchun nazorat savollarini tanlashi kerak.

Dars mashgʻulotlarining jamoaviy tabiati oʻquvchilar oʻrtasida raqobatni keltirib chiqaradi, ularning bilim faolligini ragʻbatlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, intizom, mehnatsevarlik, doʻstlik va boshqa axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. Biroq, dars mashgʻulotlari jamoaviy tarzda

o‘tkazilsa-da, ta’lim va kognitiv faoliyat va o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish, ularning tafakkuri, xotirasi, aql-zakovati, qobiliyatlari, shuningdek, o‘rganish motivlari va munosabatlarining individual xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish va dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilar bilan individual ishlarni tashkil etish masalasi tug‘iladi[2].

Umumta’lim maktablarida sifatli ta’lim muhitini yaratishda individual yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish zarurati ortmoqda. Individual yondashuv natijasida ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga erishiladi. Individual ta’lim muhitini yaratishda o‘quvchilar bilan sinf rahbari, psixolog, fan o‘qituvchilari va maktab jamoasi tomonidan olib borilgan diagnostika ishlari natijasida har bir o‘quvchining shaxsiy portfoliosi shakllantiriladi. Diagnostika jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, analiz-sintez usullari asosida o‘quvchilarning bilish darajasi, qiziqishi, ijtimoiy ahvoli aniqlanadi. Diagnostika natijalariga ko‘ra faol o‘zlashtiruvchi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi hamda oraliqdagi o‘quvchilar guruhlari shakllanadi. Dars jarayonida o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar jamoaviy muhokama qilinishi, hamda ota-onasi oldida ma’suliyatsizlik va ishonchni oqlamaslik bilan bog‘liq vaziyatga duch kelishi o‘quvchida psixologik hurujlarni yuzaga keltiradi. Bunday jarayonlarda o‘quvchi darsdan sovrish, fanni o‘zlashtirmasligi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishining pasayishi hamda boshqa salbiy illatlarga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi. Keng jamoatchilik fikrlari tahlil etilganda o‘quvchi shaxsini hurmat qilinmasligi, uning jamoa oldida salbiy illatlari va kamchiliklarini muhokama qilinishi suitsitni keltirib chiqargan sabablardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Individual ta’lim – bu innovatsion o‘qitish usuli bo‘lib, bunda har bir o‘quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o‘quv dasturi bo‘yicha dars mashg‘ulotlarida ishtirok etadi. Dars davomida ular sinfdoshlari bilan birga dars jarayonida ishtirok etadi, lekin kun davomida o‘z vazifalarini bajarish uchun asosan yakkaxon ishlaydilar. Har bir dars, ular turli vazifalarni va har bir darsda shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini bajarishda, o‘qituvchi dars bermaydi, balki har bir o‘quvchi shaxsiy rivojlanishi uchun ko‘rsatmalarni taklif qiladi. Individual ta’lim birinchi navbatda o‘quvchi shaxsini, qadr-qimmatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Individual ta’lim o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, bilishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga, olgan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Individual yondashuv o‘quvchiga qulay bo‘lgan ta’lim muhiti va ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi. O‘quvchi dars jaroyonida fanlarni o‘zlashtira olmasligi, o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotlarni qabul qila olmasligi yoki darslikdagi mavzularni tushuna olmasligidan noqulay vaziyatlarga tushishi, uning ruhiy olamiga katta ta’sir qiladi. Jamiyatda inson qadr qimmatini ta’minlanishi, bevosita ta’lim jarayonida

o‘quvchi shaxsini hurmat qilinishi, o‘quvchi qiziqishlarini qo‘llab quvatlanishi, o‘quvchi kamchiliklarini jamoaviy muhokama qilinmasligi natijasida shakllanadi.

Individual ta’lim muhitini yaratishda “Kouching” metodikasidan foydalanish yaxshi samara beradi. “Kouching” metodikasi maqsadni va unga erishishning optimal yo‘llarini aniqlaydi; o‘quvchining mustaqilligi va javobgarligini oshiradi; o‘z faoliyatidan qoniqa olish; samarali hamkorlikning yangi yo‘llarini topish; qiyin holatlarda muhim yechimni tez topish; individual maqsadlarni ta’lim muassasasi maqsadlari bilan moslashtirish; o‘z hayot tarzini boyitish; yangi imkoniyatlarni ochish; hayotni yangi produktiv shaxsiy munosabatlar bilan boyitish va boshqalarga yordam beradi [3]. Kouching - inglizchadan tarjima qilinganda “Mashq qildirmoq” so‘zini anglatadi. Ta’limda esa, o‘qituvchi bilan o‘quvchining samarali faoliyatiga imkoniyat yaratuvchi uzluksiz jarayonni nazarda tutadi. Kouching - bu muhim o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘quvchiga individual konsultatsiya berish, uning ichki potensialini ochish, zarur qobiliyat va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, natija olish uchun ilg‘or strategiyalarni o‘zlashtirishdir. Kouching maqsadi – nimagadir o‘qitish emas, balki o‘quvchining zarur bilim va tajribani egallashi uchun o‘zini-o‘zi o‘qitishga sharoit yaratishdir. Bu metodika kasbiy va shaxsiy o‘sishi uchun o‘quvchilarning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar va o‘zgarishlarga ehtiyojlarini anglash, imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan. U ta’limda, shuningdek, biznesda, shaxslararo munosabatda, oilada, jismoniy sog‘lom bo‘lish kabi hayotning turli sohalarida rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan [4]. Kouchingdan foydalanish bilan o‘quvchilar o‘z maqsadlariga juda tez, eng samarali yo‘l va qoniqish olish bilan erishadi. Kouchingning afzalliklari shundaki, u o‘quv faoliyati samaradorligini yaxshilaydi, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiradi hamda ularni eng yaxshi yo‘llar va metodlar bilan o‘qitadi. Kouching tez o‘qitishni nazarda tutadi, bu jarayon o‘z navbatida: quvonch va qoniqish olib keladi; jamoada o‘zaro munosabat yaxshilanadi; hayot sifati, o‘qishda esa muhit yaxshilanadi; o‘qituvchida ko‘p bo‘sh vaqt mavjud bo‘ladi; ko‘plab kreativ g‘oyalar paydo bo‘ladi; inson resurslari va mahoratidan yaxshi foydalaniladi; o‘quvchilarning oldin aniqlanmagan iqtidorini ochadi va boshqalar [5].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul

qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi va imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva. –T.: Chopon NMIU, 2012. 90-bet.
3. Xarris D. Kouching: lichnostnyy rost i uspex. –M.: 2004. - 112 s
4. Maksimov V.Ye. Kouching ot A do Ya. Vozmojno vse. - SPb.: Izdatelstvo “Rech”, 2004. - 272 s.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI SUV RESURLARI, VA ULARNI
XUDUDIIY TAQSIMLANISHI HAMDA HALQ XO'JALIGIDAGI
AHAMIYATI**

Atajanova Araztaj

*Qoraqalpoq davlat universiteti, biologiya fakulteti,
Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish yo'nalishi
2- kurs (bakalavriat) talabasi
e-mail: araztajatajanova@gmail.com*

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining asosiy suv resurslari manbalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari tahlil qilinadi. Havzalarning ko'p yillik oqimi, suv resurslarining hududiy taqsimlanishi, milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va mavjud muammolar ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Suv resurslarini boshqarishning samarali usullari va kelajakdagi istiqbollar muhokama qilinadi.*

Kirish

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti suv resurslarining mavjudligiga va ularning samarali boshqarilishiga bevosita bog'liq. Markaziy Osiyoning qurg'oqchil mintaqasida joylashgan O'zbekiston uchun suv resurslarining cheklanganligi va ularning notekis taqsimlanishi muhim ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Asosiy qism:Maqolada O'zbekistonning asosiy suv resurslari manbalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari, ularning xarakteristikalarini va milliy iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinadi.

Amudaryo va Sirdaryo Havzalari: Gidrometeorologik xarakteristikalar: Amudaryo va Sirdaryo daryolarining ko'p yillik oqimi, suv oqimining mavsumiy o'zgarishi, suvning sifati va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Suv balansi: Har bir havza uchun suv balansi tenglamasini tuzish va uning tarkibiy qismlarini (oqim, yog'in, bug'lanish, yer osti oqimi) aniqlash. Havzalarni boshqarish: Amudaryo va Sirdaryo havzalarini boshqarishning hozirgi holati, mavjud muammolar (masalan, suv taqchilligi, ifloslanish) va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.Suv Resurslarining Hududiy Taqsimlanishi: O'zbekiston hududida suv resurslarining taqsimlanishining notekisligi, suv taqchilligi kuzatiladigan hududlar va suv resurslari boy hududlarning geografik joylashuvi xaritada ko'rsatiladi va tahlil qilinadi.Suv Resurslarining Milliy Iqtisodiyotdagi

Ahamiyati: Qishloq xo'jaligi Suvning qishloq xo'jaligidagi roli, sug'orish tizimlari va ularning samaradorligi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati. Sanoat: sanoat tarmoqlarida suv iste'moli va suvning ifloslanishi muammosi, suvni tozalash va qayta ishlash texnologiyalari. Ichimlik suvi ta'minoti: aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, suv sifati va uning nazorati. Mavjud muammolar va Ularning Yechimlari:Suv taqchilligi: Suv tanqisligini keltirib chiqaruvchi omillar (iqlim o'zgarishi, aholining o'sishi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmasligi) va uning yechimlari. Suv ifloslanishi: Suv ifloslanishining manbalari (sanoat, qishloq xo'jaligi, kommunal xizmatlar) va uning oldini olish choralari. Transchegaraviy suv muammolari: Amudaryo va Sirdaryo daryolari transchegaraviy daryolar ekanligini va suv resurslarini boshqarishda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilishning ahamiyatini ta'kidlash.Suv resurslaridan foydalanishni hisobga olish, rejalashtirish va samarali foydalanish muammolari. O'zbekiston qurg'oqchil, kontinental iqlimli, cho'l va chala cho'l zonalari hamda tog' va tog' oldi hududlaridan tashkil topgandir. Bizdagi o'rtacha yog'in miqdori 400 mm ni tashkil qilgan holda, bug'lanish koeffitsienti 2500-2700 mm ni tashkil etishi suv resurslarining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini bildiradi. O'zbekiston hududida hamma zamonlarda ham suv va suvdan foydalanish jiddiy muammo bo'lib kelgan. O'zbekiston dunyodagi eng qadimgi 26 sug'oriladigan dehqonchilikning markazlaridan biri bo'lib, sug'orish inshootlari ham qadim zamonlardan mukammal ravishda rivojlangandir. Bozor munosabatlariga o'tish natijasida O'zbekistonda suv resurslarini boshqarishning yangi tarkiblari ham paydo bo'ldi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, suv resurslarini boshqarish borasida hali yechilmagan muammolarning ko'pligini ham aytib o'tish mumkin. Ular ichida muhimlari quyidagilar: 1. Suv resurslarini boshqarishning yagona davlatlararo organiki tashkil etishning zarurligi. Mutaxassislarning hisoblariga qaraganda bunday organ maxsus maqomga, tarkibga, havzada suv resurslardan foydalanish va uning holatini baholash borasidagi ma'lumot markaziga ega «Sirdaryo», «Amudaryo» havzaviy suv birlashmalarini o'z ichiga oluvchi Xalqaro suv — energetika konsorsiumi bo'lishi lozim. 2. Mamlakatimizning yirik daryolari va suv manbalari (Amudaryo,Sirdaryo, Arnasoy, Orol dengizining ijtimoiy — iqtisodiy maqomini belgilash; 3. Suv resurslarini boshqarish masalalariga oid qonuniy va huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, bu masala bo'yicha yagona davlatlararo konsepsiyani ishlab chiqish; 4.Respublikalarning manfaatlarini hisobga olgan holda, suv sifati va miqdori monitoringi tizimini rivojlantirish; 5. Hidroekologik jihatdan «xavfli» hududlarni batafsil o'rganish; 6. Orol dengizi havzasi suv resurslarining yagona ma'lumotlar manbaini yaratish, bunda ulardagi tadrijiy o'zgarishlarni hisobga olish. O'zbekiston suv resurslarining katta qismini qishloq

xo'jaligida foydalanadi. O'zbekiston iqlimidan kelib chiqqan holda 1 ga yerga 1 yilda sarf qilinishi kerak bo'lgan suv 1200 m^3 qilib belgilangan lekin sarf qilinayotgan suv miqdori $1600\text{-}1800\text{m}^3$ ni tashkil qilmoqda. O'zbekiston suv resurslaridan norma bo'yicha foydalanilsa 4,2 mln. ga o'rniga 4,8 mln ga yerga dexqonchilik qilish mumkin. Agar ilg'or sug'orish texnologiyalaridan va tajribalaridan foydalansak. mavjud suv resurslari bilan 7-8 mln ga yerni sug'orish mumkin bo'lar edi. Sanoatda ham suvdan foydalanishning samarali usullaridan kam foydalaniladi. Foydalanilgan suvni tozalash, berk havzalar tashkil qilish sanoat korxonalarini nazorat qilish, belgilangan normalarga rioya qilish masalalari rivojlangan mamlakatlarga nisbatan bir necha marotaba past e'tibor beriladi. Kommunal xo'jaligida Yevropa mamlakatlari bir sutkada 300-350 l suv sarflasalar, bizda esa 600-550 l ni tashkil etadi. Shuning uchun mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar e'tibor berildi. 1) Ishlatilayotgan suvni hisobga olish. (qishloq xo'jaligi, sanoat va kommunal xo'jaligida ham) 2) Suvdan foydalanishni iqtisodiy mexanizmini yaratish.(normadan kam foydalanilganda va kam ifloslantirganda rag'batlantirish,aksi bo'lganda jarima solish, suvning tannarxini belgilash va baholash va hokazo). 3) Suvdan foydalanganlik uchun haq to'lashni tashkil etish.(suv o'lchagichlar o'rnatish, foydalanish normalarini belgilash). 4) Suv resurslarini nazorat qilish va foydalanishni rejalashtirish.5) Qo'shni davlatlar bilan tranzit suv resurlaridan foydalanishni xuquqiy asosini yaratish. Suv resurslarini tejash, muhofaza qilishning, ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ahamiyati. O'rta Osiyo suv resurslari agarda uni tejab ishlatilsa, 70- 80 million kishiga yetishi mumkin, BMT ning ma'lumotlariga ko'ra 2030 yillarga borib O'rta Osiyoda shuncha aholi yashaydi. O'rta osiyo aholisi 50 million kishiga yetmasdan Orol dengizining qurishi, suv tanqisligining sezilishi, bu eng avvalo suv resurslaridan tejamsiz foydalanish isrofgarchilikning nihoyatda yuqori ekanligini bildiradi. Suvdan noto'g'ri foydalanish: quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda: 1) Suv resurslarining tanqisligi; 2) Orol dengizi va ko'pgina tabiiy ko'llarning qurishi; 3) Mavjud sug'orilayotgan yerlarning sho'rlanishi vahosildorliknig keskin pasayishi. 4) Biologik xilma- xillikning kamayishi. 5)Mavjud suv resurslar suv manbalarini hamda uning atrofida ekologiyaning izdan chiqishi va ifloslanishi; 6)Suv resurslarida tuz miqdorining ortishi. 7)Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlay olmasligimiz. Yuqoridagi kamchiliklar suv resurslaridan foydalanishdagi asosiy kamchiliklar hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanishni yaxshilashning majmua amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, negaki yuqoridagi muammolarning hammasi bir-biriga chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston suvni tejash va muhofaza qilish zaruriyati yuqoridagi muammolarni yechish maqsadida

quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi. 1.Sug'orish tizimining tizimi va o'lchamlarini zamonaviy sug'orish texnikasi bilan mustahkamlash orqali uning samaradorligini oshirish. 2.Kollektor-zovur suvlarini tashlab yuborishni tartibga solish, ulardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish. 3. Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. 4. Qishloq xo'jaligida kam suv sarflaydigan o'simliklarga ixtisoslashtirish. 5. Suv manbalarining ifloslanishini oldini olish va boshqalar. Amudaryo havzasiga kiruvchi respublika va viloyatlar tarkibi.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning suv resurslari cheklangan va ularni oqilona boshqarish mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslarini saqlash va samarali boshqarish, shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev S.A, Otaboyev Sh, Sharipov R. Suvning inson hayotidagi ekologik mohiyati. T: Fan, 2009
2. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T.: Saodat RIS, 1997
3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.:O'qituvchi, 1995
4. Otaboev Sh, Nabiev M. Inson va biosfera. – T: O'qituvchi, 1995
- 5.To'raqul Qosimov. Hidrologiya va gidroekologiya.-T: O'qituvchi,1990

INKLYUZIV TA'LIMGA OID XORIJIY TAJRIBALAR

Maxmudova Dilnavoz Shavkatjon qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: *Inklyuziv ta'lim, ya'ni barcha talabalar, shu jumladan, nogironlar va o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, zamonaviy ta'lim tizimlarida muhim o'rin egallaydi. Bu yondashuv, nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida ham amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'limda xorijiy tajribalar, bu jarayonni yanada samarali va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit soʻzlar: *inklyuziv ta'lim, infratuzilma, o'quv dasturlari, metodlar, xorijiy tajribalar, strategiya.*

Kirish

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun qator dasturlar va strategiyalar ishlab chiqilgan. Bu tajribalar, har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda inklyuziv ta'limni amalga oshirishda yordam beradi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalar, o'qituvchilar, ta'lim muassasalari va davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida, xususan, Shvetsiyada, inklyuziv ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega. Ushbu mamlakatda ta'lim jarayonida barcha talabalar, shu jumladan, nogironlar va o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar mavjud. Ta'lim muassasalari o'z infratuzilmasini va o'qitish metodlarini shunday tashkil etadiki, har bir talabaning ehtiyojlari hisobga olinadi. O'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tib, inklyuziv ta'lim metodlarini qo'llashda tajriba orttiradilar. Shvetsiyada inklyuziv ta'lim jarayoni, nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida ham amalga oshiriladi. AQShda ham inklyuziv ta'lim tizimi keng tarqalgan. Bu yerda "Ishonchli ta'lim" dasturi orqali nogiron bolalar va o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar doirasida o'qituvchilar va pedagoglar nogiron bolalar bilan ishlashda zarur bo'lgan malakalarni egallashadi. Shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatiladi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. AQShda inklyuziv ta'limni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega.[1]

Yevropa mamlakatlarida ham inklyuziv ta'limga oid tajribalar mavjud. Masalan, Britaniyada "Barcha uchun ta'lim" dasturi orqali barcha bolalarga, shu jumladan, nogiron bolalarga ham sifatli ta'lim berish maqsadida ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu dastur doirasida o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkaziladi, shuningdek, ta'lim muassasalari nogiron bolalar uchun moslashtirilgan infratuzilma bilan ta'minlanadi. Britaniyada inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtiroki ham juda muhimdir. Ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Avstraliya inklyuziv ta'limni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llaydi. Bu yerda "Inklyuziv ta'lim strategiyasi" doirasida ta'lim muassasalari nogiron bolalar va o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun

maxsus dasturlar ishlab chiqadi. Avstraliyada o'qituvchilar o'zlarining pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda yangilab borishlari va zamonaviy metodlarni qo'llashlari talab etiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalari o'z infratuzilmasini nogiron bolalar uchun qulay qilish maqsadida yangilab boradilar.[2]

Germaniyada inklyuziv ta'lim jarayoni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Ta'lim tizimida nogiron bolalar va o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun maxsus dasturlar mavjud. Germaniyada o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'lim metodlari alohida o'rin egallaydi. O'qituvchilar nogiron bolalar bilan ishlashda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun maxsus treninglardan o'tadilar. Shuningdek, ta'lim muassasalari nogiron bolalar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida infratuzilma va o'qitish metodlarini yangilab boradilar.[3]

Inklyuziv ta'limda xorijiy tajribalar, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy tajribalarni o'rganish, ularning pedagogik metodlarini o'zlashtirish va ularni o'z sharoitlariga moslashtirish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xorijiy tajribalar, ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratadi. Inklyuziv ta'limda xorijiy tajribalarni o'rganish, nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida ham muhimdir. Barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash va nogiron bolalar uchun qulay sharoitlar yaratish inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Xorijiy tajribalar, bu maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi.[4]

UNICEFning O'zbekistondagi eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri e'tibordan chetda qolgan bolalarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishdir. Muhim ijobiy natijalar bilan bir qatorda tengsizlik hali ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan seziladi. UNICEF ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilmoqda. Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbiq etiladi. UNICEFning maktab binolarini universal loyihalash bo'yicha yo'riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash,

shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni UNICEF qo‘llab-quvvatladi. Bu inklyuziv maktablar sonini yanada oshirishda model bo‘lib xizmat qiladi.[5]

Xulosa:Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limda xorijiy tajribalar, ta'lim jarayonini yanada samarali va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. Har bir mamlakat o'z sharoitlariga mos ravishda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga intiladi. Bu jarayonda davlat, ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, nafaqat ta'lim muassasalari, balki jamiyatning barcha qatlamlarining hamkorligiga bog'liqdir. Xorijiy tajribalar, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda, shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida ham amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kadirova, D. (2020). "Inclusive education systems in foreign countries". Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan.
2. Abdurahmanova, S. (2019). "Inclusive education: foreign experiences and practice in Uzbekistan". State Pedagogical University of Uzbekistan.
3. Teshaboeva, M. (2021). "Development of inclusive education based on foreign experiences". National University of Uzbekistan.
4. Muradov, A. (2022). "Inclusive education: Foreign experiences and their impact on Uzbekistan". Tashkent State University of Economics.
5. Rahmonov, I. (2023). "Inclusive Education Abroad: Experiences and Innovations". Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
6. Karimova, L. (2021). "Inclusive education: Foreign experiences and possibilities of their application in Uzbekistan". State Institute of Art and Culture of Uzbekistan.
7. Nurmatova, Z. (2020). "Ways of development of inclusive education based on foreign experiences". State Pedagogical University of Uzbekistan.

PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI. O‘QUVCHILAR
SAVODXONLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Jo'raboyeva Madina

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 810-22-guruh
Talabasi
mjoraboyeva720@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola PIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasida o‘quvchilarning savodxonligini oshirish masalalari va istiqbollari bag‘ishlangan. PIRLS tadqiqotining maqsadlari, o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston uchun ahamiyati, 2021-yilgi natijalar tahlili va tavsiyalar keng ko‘lamda yoritilgan.

Annotation: This article is devoted to the issues and prospects of improving students' literacy within the framework of the international PIRLS study. The goals, specific features, significance for Uzbekistan of the PIRLS study, analysis of the 2021 results and recommendations are extensively covered.

Kalit so‘zlar: PIRLS, savodxonlik, xalqaro tadqiqot, o‘quvchilar, ta’lim sifati, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim tizimi, tahlil, strategiya, o‘quv jarayoni, tavsiyalar, O‘zbekiston ta’limi, matn tushunish, xalqaro reyting.

Keywords: PIRLS, literacy, international research, students, quality of education, reading literacy, primary education, education system, analysis, strategy, learning process, recommendations, education in Uzbekistan, text comprehension, international rating

Kirish

O‘quvchilarning savodxonligi milliy ta’lim tizimining samaradorligini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Bugungi kunda global miqyosda bu boradagi eng yirik tadqiqotlardan biri — PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) bo‘lib, har 5 yilda 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot ta’lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi va mamlakatlarning o‘zaro taqqoslanadigan natijalarini taqdim etadi.

Asosiy qism

PIRLS — IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan 2001-yildan beri har besh yilda bir marta o‘tkazib

kelinayotgan tadqiqotdir. Bu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda ikki xil matn: badiiy va axborot matnlari asosida savollar tuziladi. PIRLSning asosiy maqsadi o‘quvchilarning quyidagi ko‘nikmalarini aniqlashdan iborat:

- a) matn mazmunini to‘g‘ri tushunish;
- b) muayyan ma‘lumotlarni topish;
- c) matndagi fikrlarni tahlil qilish;
- d) xulosa chiqarish va umumlashtirish.

Tadqiqot natijalari mamlakatlarning ta‘lim sifatini yaxshilash bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqishlariga yordam beradi. 2021-yilda o‘tkazilgan PIRLS tadqiqotida 57 ta davlat ishtirok etdi. Quyidagi davlatlar eng yuqori natijalarga erishdi:

1. Singapur – 587 ball
2. Irlandiya – 576 ball
3. Gonkong – 573 ball
4. Rossiya – 567 ball
5. Shimoliy Irlandiya – 566 ball

O‘zbekiston esa 437 ball bilan 49-o‘rinni egalladi. Bu natijalar boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Qiyoslash uchun, qo‘shni Qozog‘iston 504 ball bilan 38-o‘rinni, Ozarbayjon 440 ball bilan 48-o‘rinni egallagan. PIRLS tadqiqotida yuqori natijalarga erishish O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Quyida ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar va ularning asoslari keltirilgan:

1. O‘quv dasturlarini takomillashtirish
 - a) matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi darsliklar yaratish.
 - b) o‘quv materiallarini xalqaro talablar asosida moslashtirish.
 - c) matn mazmuni bolalarning yoshiga mos bo‘lishi va ularni tanqidiy fikrlashga undashi kerak.
2. Malakali o‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash
 - a) o‘qituvchilarni PIRLS mezonlari bo‘yicha tayyorlash uchun maxsus treninglar tashkil etish.
 - b) darsda o‘yinli va interaktiv metodlardan foydalanishni kengaytirish.
 - c) o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslarini muntazam o‘tkazish.
3. O‘quvchilar uchun resurslarni boyitish
 - a) kutubxonalarni zamonaviy kitoblar bilan to‘ldirish va raqamli resurslardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

b) o‘quvchilarni oilaviy kitobxonlikka jalb qilish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish.

c) multimedia vositalaridan foydalanib, o‘qitish jarayonini jonlantirish.

4. Ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish

a) elektron darsliklar va interaktiv platformalarni taqdim etish.

b) o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini kuzatish uchun texnologik vositalar (masalan, onlayn test tizimlari) yaratish.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish

a) ota-onalar uchun bolalarni o‘qishga qiziqtirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

b) oilaviy ta’limga e’tibor qaratish va oilaviy kitobxonlikni targ‘ib qilish.

6. Qiyosiy tahlillar va xalqaro tajribani o‘rganish

a) PIRLSda yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish.

b) davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish orqali ta’lim resurslari va tajriba almashinuvini kuchaytirish.

7. Boshlang‘ich sinflar uchun qo‘shimcha dars mashg‘ulotlari tashkil etish

a) o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan maxsus mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish.

b) matn o‘qish va uni tahlil qilishga yo‘naltirilgan haftalik treninglar o‘tkazish.

8. Ta’lim muassasalarida motivatsion muhit yaratish

a) o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun turli mukofot va tanlov tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

b) o‘quvchilarni o‘qish jarayoniga jalb etadigan qiziqarli tadbirlarni tashkil etish.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarga ko‘tarilishi va boshlang‘ich ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. PIRLS talablari asosida sinov matni va savollar quyidagicha tuzilgan bo‘lib, ular bolalarning matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatlarini baholashga yordam beradi.

PIRLS uslubiga mos matn va savollar namunasi

“Oltin Qushning Sirli Sayohati”

Bir zamonlar, bir kichik qishloqda Ali ismli bola yashar edi. Uning eng sevimli mashg‘uloti — o‘rmon atrofida yurib, qushlarni kuzatish edi. Kunlardan bir kun, u qishloq chetida yorqin oltin tusli bir qushni uchratdi. Qush hech qanday oddiy qushga o‘xshamasdi — qanotlari quyosh nurida yaltirar, ovozi esa qo‘shiqqa o‘xshar edi.

“Oltin Qush, qayerga bormoqchisan?” — deb so‘radi Ali hayrat bilan.

“Men Sehrli Tog‘ga uchaman,” — dedi qush. “Agar sen ham meni kuzatib borsang, buyuk sirni ochaman.”

Ali qushning ortidan ergashdi. Yo‘l davomida ular turli sinovlarga duch keldilar. Birinchi sinov — ulkan bir ko‘prikdan o‘tish edi. Qush Aliga shunday dedi: “Qo‘rquvni yeng va faqat oldinga qara!” Ali qushning gapiga amal qilib, ko‘prikdan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Ikkinchi sinov esa, qorong‘i o‘rmon orqali o‘tish edi. Bu safar qush Aliga: “Tinchlan va yulduzlarning nuriga e‘tibor qil!” dedi. Ali yulduzlarni kuzatib, qorong‘ilikni yengib chiqdi.

Nihoyat, ular Sehrli Tog‘ga yetib keldilar. Oltin Qush Aliga qarab dedi: “Sen qo‘rquv va qorong‘ilikni yenga olding, endi senga mukofot sifatida dunyoning sirlarini bilishga qodir qalb beraman.”

O‘sha kundan boshlab, Alining yuragi hech qachon hech narsadan qo‘rqmasdi. U kichik qishlog‘iga qaytib, barcha bolalarga o‘z sarguzashtlarini so‘zlab berdi va ularni ham mard bo‘lishga undadi.

Savollar:

1. Test savollari

1.1. Ali oltin qushni birinchi marta qayerda ko‘rdi?

A) Uyida

B) O‘rmon chetida

C) Tog‘da

1.2. Aliga birinchi sinovda nima yordam berdi?

A) Qushning yo‘l ko‘rsatishi

B) Yulduzlarning nuri

C) Qo‘rquvni yengishi

1.3. Sehrli Tog‘da qush Aliga qanday mukofot berdi?

A) Oltin qanotlar

B) Qalbni boyituvchi sir

C) Sehrli kitob

2. Qisqa javob talab qiladigan savollar:

2.1. Alini oltin qush bilan sayohat qilishga nima undadi?

2.2. Qorong‘i o‘rmondan o‘tishda Ali qanday yondashuvdan foydalandi?

3. Voqealarni tartibga solish:

Berilgan voqealarni to‘g‘ri tartibda joylang:

Ali oltin qush bilan tanishdi.

Ali qorong‘i o‘rmondan o‘tdi.

Ali Sehrli Tog‘ga yetib bordi.

Ali ulkan ko‘prikdan muvaffaqiyatli o‘tdi.

4. Matndagi mantiqni tushunish savollari:

4.1. Sizningcha, “qo‘rquvni yengish” voqeasi hayotda qanday ahamiyatga ega?

4.2. Qushning Aliga aytgan gaplaridan qanday saboq chiqarish mumkin?

1. Test savollarining javoblari va ballari

Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball beriladi.

1.1. Ali oltin qushni birinchi marta qayerda ko‘rdi?

Javob: B) O‘rmon chetida

1.2. Aliga birinchi sinovda nima yordam berdi?

Javob: C) Qo‘rquvni yengishi

1.3. Sehrli Tog‘da qush Aliga qanday mukofot berdi?

Javob: B) Qalbni boyituvchi sir

2. Qisqa javob talab qiladigan savollar javoblari va ballari

Har bir to‘g‘ri va to‘liq javob uchun 2 ball beriladi.

2.1. Alini oltin qush bilan sayohat qilishga nima undadi?

Javob: Alini oltin qushning sirli gaplari va buyuk sirni ochishni istashi undadi.

2.2. Qorong‘i o‘rmondan o‘tishda Ali qanday yondashuvdan foydalandi?

Javob: Ali yulduzlarning nuriga e‘tibor qildi va shu orqali qorong‘ilikni yengib chiqdi.

3. Voqealarni tartibga solish savollari javoblari va ballari

To‘liq to‘g‘ri tartib uchun 3 ball beriladi, qisman to‘g‘ri tartib uchun 2 ball, noto‘g‘ri tartib uchun 0 ball.

To‘g‘ri tartib:

1. Ali oltin qush bilan tanishdi.

2. Ali ulkan ko‘prikdan muvaffaqiyatli o‘tdi.

3. Ali qorong‘i o‘rmondan o‘tdi.

4. Ali Sehrli Tog‘ga yetib bordi.

4. Matndagi mantiqni tushunish savollari javoblari va ballari

Bu savollar ochiq javob talab qiladi. Baholash mezonini quyidagicha:

To‘liq, izchil javob – 3 ball

Qisman to‘g‘ri javob – 2 ball

Noaniq yoki noto‘g‘ri javob – 1 ball

4.1. Sizningcha, “qo‘rquvni yengish” voqeasi hayotda qanday ahamiyatga ega?

Javob: Qo‘rquvni yengish har qanday qiyinchilikni yengishga yordam beradi. Hayotda mard bo‘lish va ishonchni oshirish uchun muhimdir.

4.2. Qushning Aliga aytgan gaplaridan qanday saboq chiqarish mumkin?

Javob: Qushning gaplari insonni qiyinchiliklarga dosh berishga, sabrli va jasur bo‘lishga undaydi. Qiyinchiliklarni yengish orqali yangi bilim va tajribalarga ega bo‘lish mumkin.

Xulosa: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, PIRLS tadqiqotlari xalqaro miqyosda boshlang‘ich ta‘lim sifatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi va ta‘lim tizimidagi dolzarb muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. Savodxonlikni oshirish uchun boshlang‘ich ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘qituvchilarni muntazam ravishda o‘qitish va zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish zarur. Kelgusida O‘zbekistonning PIRLS reytingida yuqori o‘rinlarni egallashi uchun tizimli yondashuvni kuchaytirish va xalqaro tajribalarni keng tatbiq etish lozim. Shu bilan birga, ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va dasturlar nafaqat milliy taraqqiyot, balki kelajak avlodning intellektual salohiyatini oshirish uchun ham asos bo‘ladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun jamoaviy sa’y-harakat va izchil strategiya talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. PIRLS 2021 hisobotlari.
2. Xalqaro ta‘limni baholash tashkiloti (IEA) ma’lumotlari.
3. <https://uz.wikipedia.org>

BOLANING MA’NAVIYATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Pulatov Hayotbek Abdugani o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi: huquq ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bugungi kunda farzandni tarbiyalashda oila a’zolari nimalarga e’tiborli bo‘lishi lozimligi, farzandning ma’naviy kamol topishida hamda madaniyatli shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida oilaning maktabning va tashqi muhitning ta’siri va tashqi muhitdan keladigan zarar yetkazuvchi omillarga qarshi qanday kurashish kerakligi aynan ma’naviy immunitetning shakllantirishning muhimligi borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ma’naviyat, komil shaxs, ma’naviy immunitet, tarbiya, din, ilm, huquqiy madaniyat, huquqbuzarlikka moyillik, omillar ta’siri,

Bugun biz zamonaviy dunyoda ya'ni internet takomillashgan asrda istiqomat qilmoqdamiz. Bu yangilanishlar va qulayliklar yaxshi lekin bir naqlni yoddan chiqarmasligimiz kerak “ Har narsaning bir yaxshisi bo'ladi – yaxshi deb ishonma pand berib qo'yadi”. Bu naqldan shuni anglash mumkinki, internet va qulayliklar yaxshi biroq bu bilan birga internet oqimlari va turli g'ayrimadaniy g'oyalar ham kirib kelmoqda.

Keling avvalo, madaniyat va ma'naviyat tushunchalarini qisqcha yoritib o'tsak.

Madaniyat haqida so'z borganda madaniyat haida ko'plab olimlar turlicha fikr bildirishgan va unga turlicha ta'riflar keltirishgani barchamizga ma'lumligini anglashimiz mumkin. Shu ta'riflardan kelib chiqiqb madaniyatga quyidagicha yondashadigan bo'lsak :

Madaniyat bu – umumiy bir yaxlit tizim deya qabul qilsak, har qanday hodislar jumladan ma'naviy hodisalarning umumiy jihatlarini nazariy tarzda ifodalaydi va ma'naviy hodisalarning jamiyatda namoyon bo'lishini amaliy jihatlarini ham o'rganadi.^[1]

Madaniyat boshqa jihatdan olib qaraganda “odob” tushunchasi bilan bir ma'noda qo'llanilishini inobatga olsak, madaniyat g'arb nuqtai nazardan butun jahon miqyosida keng qo'llaniladi. Odob esa aynan musulmon olamida madaniyat tushunchasi o'rinda qo'llaniladi.^[2]

Madaniyat tushunchasi “madaba” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'naviy ziyofat degan tushunchaga yaqin hisoblanadi.^[3] Ma'naviy ziyofatda esa albatta ziyolilar yig'ilib o'qigan asarlarini, savdogarlardan eshitgan yangiliklarni va yangi asar yozayotgan bo'lsalar o'zaro fikr almashinadilar desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz albatta.

Yuqorida biz ma'naviyat tushunchasini ko'p bora tilga olib o'tdik. Keeling endi qisman ma'naviyat tushunchasiga ham tushuntirish berib o'tadigan bo'lsak manfaatli bo'ladi.

Ma'naviyat tushunchasi keng ma'noda qo'llaniladigan yirik tushunchalardan sanaladi. Bu tushunchaga ham Sharq va G'arb mamalakati olimlari, ziyolilari, mutafakkirlari ko'pgina ta'riflarini berib fikrlarini bildirib o'tganlar.

Jumladan, so'z mulkning sultoni bo'lmish Nizomiddin Mir Alisher xazratlari o'zining turkey tilde yozilgan besh dostondan iborat bo'lgan “Hamsa” asarida inson ma'naviyatini va komil shaxsni shu darajada tasvirlaganki, bu asarini o'qigan har qanday inson bundan ma'naviy quvvat olmasdan qolmaydi. Ushbu asarida chin muhabbat qanday bo'lishligi, chin do'stlik qanday bo'lishligi, qolaversa rahbarlik qiluvchi shaxsning ma'naviy kamoloti qanday ko'rinishda bo'lishligi va bunda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida takrorlanmas fikrlar bitilgan ulkan ma'naviy boylik desam adashmagan bo'laman.

Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-Abror” asarida odob va axloq haqida shunday fikr bildiradi: “Masxaraboz kulgu uyg‘otishi uchun bir diram deb naq ikki shapaloq yeydi. Boyo‘g‘li ham o‘z ko‘rinishi jihatidan masxarabozga o‘xshab ketgani uchun hujum qiladilar. Bu masxarabozliklarning barchasi hayo va odob kelsa darhol daf bo‘ladi. Har bir aql-hushli inson o‘z so‘zini aql bilan so‘zlaydi”.^[4] Bundan ko‘rinadiki, inson o‘zining odobi bilan go‘zal bo‘lishi, inson xushxulq bo‘lishi, o‘zidan kattalarni hurmatlashi kichik yoshdagilarga esa izzat-ikromda muomalada bo‘lishi lozimdir. Bugungi yoshlarimiz bundan ancha ibrat olishsa arziydi.^[5] Sababi, Alisher Navoiy bundan VI asr avval insonlar masxaraboz va boyo‘g‘liga o‘xshab to‘g‘ri kelgan gaplarni gapirmasligi, suxbatdoshining katta yoki kichik ekaniga e‘tibor berishi kabi yoritgan xislatlar bugungi kun uchun ham munosib axloqiy qarash bo‘lib xizmat qiladi. Bugun biz farzandlarimizni boyo‘g‘lidek yoki masxarabozdek qilib jamiyatga tayyorlab bermoqdamiz qaysidir ma’noda bugungi yosh avlodni tarbiyalashda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yib kelmoqdamiz. Ibn Sinoning ta’biri bilan aytganda– “farzandni ona qornidaligidayoq tarbiyalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yib qo‘ymoqdamiz”. Yoshlarning turli buzuvchilikni targ‘ib qiluvchi, jinoyatchilikka undovchi materiallarni toosha qilishiga yo‘l qo‘yib bermoqdamiz. Ilk mustaqillik vaqtidan 2014-yilgacha bo‘lgan vaqtni oladigan bo‘lsak, hamda bugungi yangi o‘zbekiston yoshlarini imkoniyatlarini solishtiradigan bo‘lsak naznimizda imkoniyat ko‘p ammo sifat va o‘sinh pasaygan ilgari davrda imkoniyat bu darajada bo‘lmagan ammo, nisbatan sifat yuqori bo‘lgan. Farzandlarimizni tarbiyalashda dunyoviylikka emas diniy ilmlarga ham kuchli e‘tibor qaratishimiz dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Farzandlarimizni axloqli, ma’naviyatli, madaniyatli qilib tarbiyalashda ishtirok etayotgan barcha shaxslar bir yoqadan bosh chiqarib harakatni va tizginni mahkamroq ushlashi hamda bu tizginni axloqsizlik va ma’naviyatsizlik hamda jinoyatchilikni targ‘ib qilib kelayotgan o‘rgimchakka berib qo‘ymasligimiz shart deb o‘ylaymiz. Axloq va tarbiya borasida o‘rta asr mutafakkirlaridan biri Imom al-Buxoriy o‘zining “Al-adab al-Mufrat” asarida quyidagicha hadis keltiradi - “Abu Dardo (r.a) rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v): “Kimgaki muloyimlikdan nasiba berilgan bo‘lsa, unga yaxshilikdan nasiba ato qilingan bo‘ladi va kim undan mahrum qilingan bo‘lsa, yaxshilikdan ham mahrum bo‘lgan bo‘ladi. Qiyomat kuni mo‘min bandaning tarozusi og‘ir qiladigan narsa yaxshi axloqdir. Alloh Taolo yomon so‘z va yomon fe’llik kishiga albatta g‘azab qiladi”, dedilar^[6]. Yuqorida keltirilgan hadisni tahlil qiladigan bo‘lsak, tarbiyali, xushxulq bo‘lsa albatta Ka’ramli zotning marhamatiga sazovor bo‘ladi. Aksincha, yomon xulqli, badfel kimsalar esa Yaratganning g‘azabiga duch keladi. Shu badfel inson o‘z xatolarini anglab, qilayotgan ishlarini to‘xtata olsa va irodasini bunda sobit

etib, ma'naviyatini oziqlantirib, oziqlagan ma'anaviyati orqali butun ruhini poklay bilsa albatta marhamatli zot bandasining harakatlarini ko'rib gunohlarini kechirishi haqiqatdan holi emas.^[7] Qiyomat kuni kelganida birinchi navbatda farzandning yomon tarbiya topganligidan uning yaqinlari aziyat chekadi, ikkinchi navbatda bunga e'tiborsizlik bilan qaragan va shogirdini vaqtida to'g'ri yo'lga qaytarmagan yoki qaytaerishga harakat qilmagan ustozni aziyat ko'radi, keying o'rinda o'zi bila turib yomon yo'lga kirgani boisdan aziyat ko'rishi mumkinligini tushuntirish mumkindir

Muhataram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ma'anaviyat borasida Sunday fikrni ilgari suradi; - "Ma'anaviyat – insonni ruan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi,irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir".^[8] Demak bundan shuni anglash mumkinki, insonni ruhan poklanishga va qalban uyg'onishga chorlovchi eng kata kuch bu uning ma'naviyati hisoblanadi. Madaniyat esa,shu kuchni yuzaga chiqarish ko'nikmasi hisoblanadi.hamkorlik deganda ham aynan shu narsaga urg'ni berish to'g'ri bo'ladi.ota-ona farzandida ma'naviyatsni shklantirishga ko'maklashsa, ustozni shakllanayotgan ma'naviyatni yanada boyitib uni jamiyatda namoyon etishga o'rgatadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich 2024-yilni yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb nomaganligi ham bejizga emas albatta. Bu degani yoshlarga kelgusida yanada ko'p imkoniyatlar eshigi ochilishi, ularni diplomga emas aynan bir sohaga o'qishiga imkoniyat yaratish va yetuk, o'z kasbining halol va yetuk kadri bo'lib yetishishga poydevor bo'ldi deya olamiz.

Mavzumzning dolzarb masalasiga aylangan farzand tarbiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ulardan himoyalaniish borasida yakuniy yechimlarni berib o'tadigan bo'lsak, bugungi globallashuv davrida 7 yoshdan 70 yoshgacha qaraydigan bo'lsak har birining qo'lida zamonaviy rusumdagi uyali aloqa vositalarini ko'rishimiz mumkin. Farzand tarbiyasiga jiddiy ta'sir etayotgan katta omillardan biri mana shu hayotimizning bir bo'lagiga aylanib qolgan vositadir. Oila davrasida, dasturxon atrofida, o'zaro suhbatlashi vaqtlarida ovunchog'imiz farzandimiz emas balki qo'limizdagi shu telefondir. Farzandimiz mehr talab qilib yonimizga kelganida unga mehr berish emas fikri-hayolimiz ijtimoiy tarmoqda bo'layotgan voqelikdaligi va farzandni o'zidan itarib uning dilini xunob qilayotganimizdadir. Farzandimizning kunini 4 soati maktabda o'tganini bila turib u bilan qiziqmaslik,maktabda olgan ilmi haqida so'ramaslik ham jiddiy xatoliklarimizdan biridir. Frzandimiz ustozidan ozgina dakki eshitsa farzandning tomoninni olib ustozni uning oldida obrosizlantirish va behurmat qilib haqoratlashimiz farzandning ustozga va ilmga bo'lgan munosabatini salbiy

tomonga o‘zgarishiga jiddiy sababdir. Farzandimizga eng qimmat rusumli telefon olib berishga qurbimiz yetadi xattoki olib beramiz ham ammo uning nazoratiga kelganda tizginni bo‘sh qo‘yayotganimiz, farzandga internetga kirishni o‘rgatayabmizku ammo internet odobini o‘rgatmasdan qoldirayotganimiz bu ham madaniyatsiz shaxsning bittaga ko‘paytishimizga sabab bo‘layotgan harakatimizdir.

Agarada biz yuqorida keltirilgan xatolarimizni, kamchiliklarimizni ma‘nan anglab yetsak, farzandimizga telefon olib berishdan oldin telefon odoblari, internet odoblaridan tushuncha berib farzandni tayyorlab keyin telefon olib bersak, olib bergan telefonimizdan u nima maqsadda foydalanayotganligiga jiddiy ahamiyat qaratsak, farzandimizga mehr berib ustozlari bilan hamkorlikda unga ham ma‘nan ham madaniyat, ham jismonana, ham ruhan madad berib qo‘llab quvvatlasak albatta jamiyatga kelgusida barkamol shaxsni yetishtirib beramiz va uning orqasidan faqat tuxmat, ta‘na-dashnomlar emas balki shirin so‘z va rahmatlar eshitamiz albatta. Bularning barchasini izchil yo‘lga qo‘yish uchun avvalo otalarni ham qaytadan tarbiyalashimiz zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abdullayev M, Ochildiyeu A ‘Madaniyatshunoslik asoslari’ darslik. Toshkent 2006 (5-bet)

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ‘Ijtimoiy odoblar’ asari “HILOL – NASHR” T:2021 (6-bet)

2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ‘Ijtimoiy odoblar’ asari “HILOL – NASHR” T:2021 (6-bet)

3. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-Abror”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent. 2019. (38-39-b).

4. <https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/187>

5. Imom Al-Buxoriy. “Al-Adab Al-Mufrat”. 2-jild 75-b.

6. Qur’oni Karim ma’nolar tarjimasi. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida. 431-b

7. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch’ asar “Manaviyat” nashriyoti , T:2008 (19-bet)

ZARNIGOR XURRAMOVA SHE’RLARI



Zarnigor Xurramova Akbarjon qizi

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Uchtepa mahallasi 12-uy
+998947678410

2006-yil Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Uchtepa mahallasida tug‘ilgan va shu yerdagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabini tamomlagan. Zakovat, Yosh kitobxon tanlovlariga qatnashib faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. 2023-yil Oqdaryo tumanidagi yosh ijodkorlar uyushmasi a’zosi bo‘lgan. 2024-yil Ona tili va adabiyot fanidan til sertifikatiga ega bo‘ldi. Bolaligidanoq badiiy adabiyotga ixlos qo‘yganligi, she’riyatni sevganligi Zarnigorni adabiyot maydoniga yetakladi. 2024-yil Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. Oliy ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda faol ishtirok etadi.

Mitti tilak

Ko'pni tilamayman Sendan Allohim,
Senga yetib borarmi, dodi faryodim?!
Yolg'on dunyo osmonida qo'shqanotim,
Ota-onam sog'ligin ber ilohim!

Tashvishlar ortidan kelar tashvishlar,
Dard ila parishon jimgina kular.
Sendan faqat mening baxtmni tilar
Umrlariga umr qo'shgin ilohim

Yig'lamasin yosh ko'rmayin ko'zida
Ming ma'no mujassam shirin so'zida
Meni o'ylaguvchi tayin o'zida...
Kulgichli bir baxtlar bergin ilohim.

Viqor-la qadamin tashlasin mag'rur,
Baxtimdan toleyi yashnasin masrur.
Olamda ko'rmasin kamchilik qusur,
Yo'llariga omad bergin ilohim

Dilini og'ritsam qalbim xasratda,
Yurarman o'zimdan o'zim nafratda,
Kechirolmay o'zimni biror fursatda,
Jannati bog'ingdan taxt ber, ilohim

Yuzingizni burmang, Onajon

Bilib-bilmay xatolar qilsam,
Yuragingiz og'ritib qo'ysam.
Yashamoqdan hattoki to'ysam,
Yuzingizni burmang, Onajon!

O'z g'amimni o'ylaganimda,
O'zga dardin so'ylaganimda,
Sog'inchlardan bo'ylaganimda,
Yuzingizni burmang, Onajon!

Ahvolingiz so'rolmay qolsam.
Yoningizga borolmay qolsam,
Tik qarasa goho ko'zlarim,
Yuzingizni burmang, Onajon!

Begonalar sirim sotganda,
Dard quvonchdan nogoh ortganda,
Yomon so'zlar tig'day botganda,
Yuzingizni burmang, Onajon!

Azoblarga yo'liqqanimda,
Mehnatdan ham toliqqanimda,
Xatolardan qoqilganimda,
Yuzingizni burmang, Onajon!!

G'amga to'lib yig'laganimda,
Yurakkinam tig'laganimda,
Dunyolarga sig'maganimda,
Yuzingizni burmang, Onajon!

Onam...

Yo'linga termulib aslo tolmay siz,
Doug'a qo'l ochib sira tonmay siz,
O'zinga aybimni oshkor qilmay siz,
Jannat gullaridan a'losi onam.

Har yurgan yo'llarda meni o'ylaysiz
Allohdan doimo baxtim so'raysiz
Farzandlar iqbolin ko'rayin deysiz,
Jannat gullaridan a'losi onam.

Yuzingiz kulsa-da qalbingiz yig'lar,
Sezdirmassiz, vale ko'zingiz so'zlar
Dono so'zingizdan qalbimiz quv nar
Jannat gullaridan a'losi onam.

G'amingiz kimsaga aytmay yurasiz,
Bilmadim, ne baxtli xayol surasiz?...
Bizni joningizdan ortiq suyasiz
Jannat gullaridan a'losi onam.

Bolam deb kechadan bedor o'tasiz
Ro'zg'or kamin o'ylab tinim bilmay siz
Umr tez o'tganin hatto sezmay siz

Jannat gullaridan a'losi onam.

Barchadan kech uxlab erta turasiz,
Dardimning davosin yaxshi bilasiz ,
Farzand-chun hattoki jonni berasiz
Jannat gullaridan a'losi onam.



Yana buvinga

Dunyo go'zal bo'lardi har gal,
Buvijonim jilmayib qo'ysa,
Qani endi qaytsa o'shal dam,
Zarnigor deb yana bir suysa...

Suratingiz quchib charchadim,
Qani bir bor o'zingiz quchsam.
Yoningizga borgim keladi,
Iloj topsam, siz tomon uchsam...

Shiringina armonim sizsiz,
Sog'inchlarim sizgadir cheksiz,

Jarlikdaman men go'yo tubsiz,
Eh, afsuski yonimda yo'qsiz...

Sog'inchlarim qalbim tig'laydi,
Yurakkinam tinmay yig'laydi ,
Har soniya sizni qumsaydi ,
Qaytmaslikni yurak bilsaydi....

So'zlaringiz sog'indim juda,
Ko'nmayabdi yurak bechora,
O'yga tolar yana behuda,
Dardga davo topmas nachora...

Dunyo go'zal bo'lardi har gal,
Buvijonim jilmayib qo'ysa,

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Omonova Shahzoda

Osiyo texnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Yashil iqtisodiyot - bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o‘shni barqaror rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. O‘zbekiston Respublikasi uchun yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o‘shni yangi sifat darajasiga ko‘tarish imkoniyatini ham beradi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari, uning ahamiyati va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, tabiiy resurslar, ekologik barqarorlik, ekologik tarbiya, energiya manbalari.*

Kirish

Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi - iqtisodiy tizimni ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy adolatli qilishdir. O‘zbekiston, o‘zining tabiiy resurslari va geografik joylashuvi bilan, yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizda quyosh energiyasi, shamol energiyasi, biomassa va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. Bu energiya manbalaridan foydalanish, nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy o‘shni ham qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu konsepsiya mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o‘shni yangi yo‘nalishlarga yo‘naltirish uchun muhim qadamdir. Konsepsiya doirasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish va suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalar ko‘rib chiqilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida eng muhim jihatlardan biri - energiya samaradorligini oshirishdir. O‘zbekiston energiya iste'moli bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu esa energiya resurslaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Energiya samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish zarur. Bu jarayonlar nafaqat energiya

xarajatlarini kamaytiradi, balki ekologik muammolarni ham hal etishga yordam beradi. Shuningdek, O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi sohasida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, agroekologik texnologiyalarni qo‘llash va suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish mumkin. Bu nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini oshiradi, balki qishloq aholisining farovonligini ham ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ijtimoiy jihatlar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlash uchun aholining yashil iqtisodiyotga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ekologik ta'lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarur. O‘zbekiston aholisining ekologik savodxonligini oshirish, yashil iqtisodiyotning ahamiyatini tushuntirish va ekologik muammolarni hal etishga jalb etish muhimdir.[1]

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida xalqaro hamkorlik ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar, donor mamlakatlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Bu orqali mamlakatimiz yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida zarur bo‘lgan bilim va texnologiyalarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqaro tajriba va bilimlarni o‘rganish, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat siyosati va qonunchiligini takomillashtirish zarur. Davlat tomonidan yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar va dasturlar ishlab chiqilishi, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yordam berishi lozim. Bu orqali iqtisodiy subyektlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga qiziqish bildirishlari mumkin.[2]

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari juda kengdir. Mamlakatimizning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va inson salohiyati yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotga o‘tish, nafaqat ekologik muammolarni hal etishga yordam beradi, balki iqtisodiy o‘sishni yangi yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini ham beradi. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlik va davlat siyosati muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muvaffaqiyat qozonishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatilishi zarur. Bu hamkorlik, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, aholining yashil iqtisodiyotga qiziqishini oshirish va ularni bu

jarayonga jalb etish muhimdir. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, kelajak avlodlar uchun toza va sog'lom atrof-muhitni yaratish uchun zarurdir. Bu jarayon, nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy adolatni ham oshiradi. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, mamlakatimizning global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi. [3]

O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Yashil iqtisodiyot, asosan, ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasi bo'yicha jadal rivojlanmoqda. Mamlakatning geografik joylashuvi quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkonini beradi. 2023 yilga kelib, O'zbekistonning quyosh energiyasidan foydalanish quvvati 12 gigavattga yetdi. 2030 yilga kelib, bu ko'rsatkichni 30 gigavattga oshirish rejalashtirilmoqda. 2022 yilning oxiriga kelib, O'zbekiston 3,2 milliard kVt soat quyosh energiyasini ishlab chiqardi, bu 2021 yilga nisbatan 50% o'sishni anglatadi. O'zbekiston hukumati qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan "Yashil energiya" dasturini amalga oshirmoqda. Ushbu dastur doirasida 2023 yilda 1,5 milliard dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilindi. Energiya samaradorligini oshirish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. 2023 yilga kelib, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat dasturi doirasida 200 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Mamlakatda energiya sarfini kamaytirish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkor uskunalarni ishlab chiqarish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. 2022 yilda energiya samaradorligini oshirish natijasida 1,5 milliard dollarlik energiya tejaldi. Bu o'z navbatida, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga yordam beradi. O'zbekistonning energiya samaradorligi ko'rsatkichlari 2021 yilga nisbatan 10% ga oshdi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratmoqda. 2023 yilga kelib, mamlakatning 15% qishloq xo'jaligi mahsulotlari organik sifatga ega bo'ldi. O'zbekiston hukumati organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha turli dasturlarni amalga oshirmoqda. 2021 yilda O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 50 million dollarni tashkil etdi. 2022 yilda bu ko'rsatkich 70 million dollarga yetdi. O'zbekistonning organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari Yevropa bozorida talabga ega bo'lib, bu mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etmoqda. 2023 yilga kelib, suvni tejash texnologiyalarini qo'llash orqali 1,2 milliard kub metr suv tejash mumkin bo'ldi. Suvni tejash bo'yicha amalga oshirilayotgan

loyihalar natijasida qishloq xo‘jaligida suv iste‘molini kamaytirish maqsadida zamonaviy irrigatsiya tizimlari joriy etilmoqda. 2022 yilda qishloq xo‘jaligida suvni tejash bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar natijasida 200 million dollar iqtisod qilindi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.[4]

O‘zbekiston chiqindilarni qayta ishlash va boshqarish bo‘yicha dasturlar amalga oshirmoqda. 2023 yilga kelib, O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 20% ga yetdi. Chiqindilarni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida chiqindilardan foydalanish va ularni qayta ishlash jarayonlari samarali tashkil etilmoqda. 2022 yilda 1,5 million tonna chiqindi qayta ishlanib, 100 million dollar iqtisod qilindi. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash jarayonlari ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.[5]

Xulosa:Shunday qilib, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari, mamlakatimizning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotga o‘tish, O‘zbekistonning kelajagi uchun muhim qadamdir va bu jarayonda barcha jamiyat a‘zolari, davlat va xususiy sektor birgalikda harakat qilishlari zarur. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi, nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo uchun ijobiy natijalar keltirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, O. (2021). "Yashil iqtisodiyot va uning O‘zbekistondagi ahamiyati". O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 3-son, 45-50 betlar.
2. Toshpulatov, S. (2022). "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: O‘zbekiston tajribasi". O‘zbekiston fanlar akademiyasi ilmiy maqolalari, 2-son, 15-22 betlar.
3. Xolmatov, R. (2020). "Ekologik toza qishloq xo‘jaligi: muammolar va istiqbollar". O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 4-son, 30-35 betlar.
4. Saidov, D. (2023). "O‘zbekistonda energiya samaradorligini oshirish yo‘llari". Energiya va resurslarni boshqarish ilmiy-nazariy jurnali, 1-son, 10-18 betlar.
5. Rasulov, M. (2021). "Suv resurslaridan oqilona foydalanish: O‘zbekiston tajribasi". Suv va ekologiya jurnali, 5-son, 25-32 betlar.
6. Qodirov, A. (2022). "Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash: O‘zbekistonning yangi yondashuvlari". Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish jurnali, 3-son, 40-47 betlar.
7. Karimov, E. (2023). "Yashil moliya va investitsiyalar: O‘zbekistonning kelajagi". Moliya va iqtisodiyot jurnali, 2-son, 55-60 betlar.

**BOSHLANG'ICH SINF ONATILI DARSIDA SIFAT SO'Z
TURKUMINI O'GATISH USULLARI**

Tursunova Marjona Ismatillayevna

SHahrisabz davlat Pedagogika institutining Pedagogika fakulteteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sifat so'z turkumi borasidagi nazariy qarashlar, yasalish tizimi, yasalishidagi omonimlik masalasi alohida tahlil qilish muammosi undan tashqari ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitilishi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritilishi: Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *Leksik ma'no, lingvistik xususiyat, kategoriya, metodika, gramatika*

Kirish

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday? qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi ortirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi: Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza- ta'mi, xarakter- xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytgacha munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi.

Asosiy qism: O'quvchilar qanday?', qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan kim? yoki nima? so'rogiga javob bolgan sozni va unga bog'langan qanday? va qanaqa? sorogiga javob bolgan sozni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish. Ikkinchi bosqichda

asosan ikki vazifa: „Sifat“ tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi. „Sifat“ tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning „predmet belgisi“ degan umumlashtirilgan kategoriyaning o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi. b) qanday? yoki qanaqa? sorogiga javob boladi, d) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bogi yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilari)ga katta orin beriladi, O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun: 1. berilgan predmetlarning rangi, mazasi. shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday? shaftoli Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday? kitob Qalin, qiziqarli kitob; 2. berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali .. (tipratikan). Ehtiyolkor, ayyor, yovvoyi (tulki); Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifodalashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va ko'm-kok, yam-yashil kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi. Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda sifatni eng oson va samarali usulda o'rgatish uchun quyidagi qadamlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Tushunchani oddiy qilib tushuntirish: Sifatni sodda til bilan izohlang. masalan: "Sifat bu - narsalarning qanday ekanini aytadigan so'zlar: yaxshi, katta, kichik, chiroyli, tez, va hokazo.

Sifatlarni o'quvchilarning kundalik hayotidagi narsalar bilan bog'lab tushuntirishda tushunish ham oson bo'ladi natija ham yaxshi.

2. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish: Rasmlar, oyinchoqlar, yoki haqiqiy buyumlarni namoyish qilib, ularning xususiyatlarini tavsiflashni so'rang

Masalan: ◦ "Mana bu qizil olma. Qanday olma?" "Mana bu katta kitob. Qanday kitob?" Ushbu mashq o'quvchilarda

sifatni tanib olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. O'yinlar orqali o'rgatish: "Sifat top" o'yini: Bolalarga biror narsa yoki rasmni ko'rsating va ulardan sifatlarni topishni sorang "Qanday?" savoli o'yini: O'quvchilardan savollar so'rang. masalan: ◦ Olma qanday? ◦ Quyosh qanday? Mushuk qanday?

4. Qo'shiq va she'rlar orqali o'rgatish: Sifatlar bilan boyitilgan she'rlar yoki qo'shiqlarni o'rganish o'quvchilarga ularni yodda saqlashni osonlashtiradi. Masalan: "Quyosh iliq, osmon moviy, Gullari chiroyli, bargi yangi.

5. Hikoya tuzish va rolli o'yinlar: • Oddiy hikoya yoki vaziyatni aytib berib va bolalardan uning ichida sifatlarni topishni yoki sifatlar qo'shishni so'rang.

Misol: "Bir kuni katta va quvnoq mushuk kichik, chiroyli uychada yashadi.

6. Mustahkamlash uchun mashqlar: Sifatni boshqa so'z turkumlaridan ajratishni mashq qildiring Masalan, quyidagilardan sifatni topishni so'rang: ◦ Daraxt, yashil, chopmoq, katta. To'ldirish mashqlari: Gaplarni sifat bilan to'ldirishni o'rgatib Misol: Olma_____ (qanday?). Quyosh_____ (qanday?)

7. Ijodkorlikni rag'batlantirish: O'quvchilarga o'zlariga yaqin narsalar haqida sifatli gaplar tuzishni yoki rasmlar chizishni topshiring. Misol: Sening do'sting qanday? Sening rasm chizgan quyoshing qanday? Bu metodlar bolalarni qiziqtiradi va ularda sifat haqida aniq tushuncha shakllantiradi. Har bir darsda faoliyatni o'zgartirib turish ularga o'qishni yanada qiziqarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva O. Til korpuslarida lingvistik annotatsiya va uning prinsiplari. - Toshkent, 2022.

2. Abdullayeva O., Bozorqulova O*. Korpus lingvistikasida lingvistik tahlillar:

muammo va yechimlar / Ozbek tilitadqiqi va ta'limi muammolari Toshkent, 2021.27.10. 296-302-b

3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent, 2006.

4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. - Toshkent, 1974.

5. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent, 2010.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Xolmatova Gulsanam Absattor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limdagi o'quvchilarga ona tilini qay tarzda o'rgatish o'qish va yozish, nutq faoliyatini o'rgatish va bir nechta metodlardan foydalangan holda savod o'rgatish metodikasi, o'qish metodikasi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, o'qitish metodikasi, grammatika va fonetika, Metodika Yozuv faoliyati, So'z boyligini oshirish, va tinglab tushinish*

Kirish

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilim nazariyasiga, asoslanib barcha yaqin, o'zro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'rgatiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'qitishda juda katta mahoratni talab qiladi va bunda o'rgatilayotgan mavzularga alohida etibor qaratilishi lozim. Misol uchun boshlang'ich ta'limda so'z turkumlari ichida eng katta hisoblanmish fe'l mavzusini oladigan bo'lsak yuqori sinflarda qoida asosida o'rgatsak bo'ladi, albatta, u bola boshlang'ich shu mavzu bo'yich tushinchasi bo'lsa shunday ekan biz boshlang'ich sinflarda fe'l mavzusini harakatga oid so'zlar deb o'rgatsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy qism: Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish va boshqa fanlarni ham o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu qadimda ham o'z aksini topgan bunga o'z hissasini qo'shgan mutafakkurlarimizni tilga oladigan bo'lsam bular Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalarimiz ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Oldinlar ham makdabdor domlalar ham o'z usulari va tajribalariga asoslanib saboq berishgan. Keyinchalik 1931-yil 5-sentabrda qabul qilingan “Boshlang'ich va o'rta maktab haqida”gi 1932-yil 25 –avgustda qabul qilingan “Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida” gi qarorlar xato va kamchiliklarni barataraf qilishda juda katta samarasini berib kelgan. O'tgan asrning 50-70 –yillari mobaynida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgach, ta'lim sohasida ham katta islohatlar amalga oshirildi. Jumldan “Talim to'g'risida”gi Qonun ishlab chiqildi va davlat ta'lim standartlari ona tili dasturlari darsliklari yangilandi. **Savod o'rgatish metodikasi:** Savod o'rgatish bu-ya'ni darsliklardagi birinchi bo'lib harflarni o'rgatishdan boshlanadi. Bunga misol sifatida boshlang'ich sinflarni qolaversa boshqa sinflarning ham poydevori hisoblanadigan birinchi sinfga nazar solamiz. Bunda o'zimiz guvohi bo'lganimizdek “Alfbe” darsligidan boshlanadi. Bu esa pedagogdan juda katta bilim, ko'nikma, malakani talab etadi va bunda ko'pgina qiyichiliklar uchraydi, chunki bola birinchi sinfga kelganda o'rganish darajasi yaxshi bo'lgani bilan ko'pgina xatolar qilishi mumkin. Shuning uchun biz pedagoglar eng, avvalo, harflarni yodlashiga etibor qaratishimiz va harflarni to'g'ri talaffuz qilishni ham boshidan o'rgatib borishimiz zarur va shart hisoblanadi. Biz bolalarga bilim o'rgatishda faqatgina, chet elning texnologiyasini emas, balki o'zimiz yaratolgan o'zimizni va bolalar saviyasini qamrab oladigan ishlanmalar shu bilan birga bola ustida bolalar ustida to'g'ri ishlay olsak savod o'rganishi ortadi va shu bilan birga o'rgangan narsasini mustahkam o'rgana olsa bolalarda o'ziga nisbatan ishonch, bilim ham oshib boraveradi. Yuqorida takidlaganimdek ona tili o'qitishda eng, avvalo harflarga etibor berishimiz kerak, chunki ona tilida so'z bo'lmasa ona tilini tasavvur qilib bo'lmaydi biz so'zlarni hosil qilishimiz uchun eng, avvalo harf va talaffuzlariga etibor beribgina o'qitsak biz shundagina bolalarga savod bera olishimiz mumkin.

So'z boyligini rivojlantirish: O'quvchilarga yangi so'zlarni o'rgatish, ularning ma'nolarini tushuntirish, sinonim va antonimlarni tanishtirish zarur. Shuningdek, o'quvchilarni so'zlashuvda qo'llaniladigan to'g'ri jumlar bilan tanishtirish ham muhimdir.

Yozuv faoliyati: Yozuv mashqlarini bajarish orqali o'quvchilar tilni qo'llashda ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Boshlang'ich sinflarda yozuv faoliyati oddiy jumlar tuzishdan boshlab, kichik hikoyalar va she'rlar yozishga qadar kengayishi mumkin.

O'qish metodikasi: Bu metodika ham savod o'rgatish bilan deyarli farq qilmaydi. Nega deydi bo'lsak biz bolalarni ifodali o'qishini va o'qib turib to'g'ri yoza olishini o'rgatishga fikrimizni qaratamiz. Lekin, afsuski, biz hamma bolani ham bir tekisda o'qishga o'rgatolmaymiz, chunki har bitta bolaning psixikasi va dunyo qarashi har xilda bo'lganligi uchun agarda bir tekisda bolalar o'qishni o'rganolganda edi individual tarz joriy qilinmagan bo'lardi. Biz pedagoglar bolalarni o'qishini to'g'ri ya'ni harflardan harflarni ajarata olishni amaliy shakllarda harflarni o'rgatish jarayonida rasmlar asosida o'rgatsak bolalar eslab olishiga juda katta yordam beradi. Shunda biz bolajonlarga kelajagimiz

poydevorlariga to'g'ri, tez (meyorda), ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirib borish biz pedagoglarning mahoratlariga bog'liq.

Grammatika, fonatika, so'z yasashini o'rganish metodikasi:

Bu bo'lim elementlar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, Grammatik tushunchalar, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantiradi. Bunda harflarni bolalar yodlashini, savod o'rgatishda o'qishda talaffuzini, harflarni bir biriga qo'shish orqali so'zlarni hosil qilishni u so'zlarni to'g'ri yozishi esa, grammatikani hosil qiladi. Keyin so'zga qo'shimchalar qo'shish orqali so'z yasashini o'rgatib borilaveradi. Misol uchun gul+chi= gulchi kabi va hk

Metod va Metodika: Yuqorida aytilgan fikrlarni yanada mustahkamlash uchun metodlardan foydalanishi mumkin va shart hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bollalari diqqatini doim bitta joyga qaratib 45 minut darsni miyasi qabul qilmaydi shuning uchun, o'yinlar va diqqatni bir joyga jamlaydigan darsdan tashqariga chiqib ketmaydigan o'yinlardan foydalanishi kerak. Endi savol tug'ilishi mumkin metod nima metodika nima? Metod bu-yunoncha so'zdan olingan bo'lib “bilish va tadqiqot yo'li” usul degan ma'nolarni bildiradi. Metodika esa yunoncha biron bir ishni bajarish amalga oshirish biron bir fanning vazifasini va mazmunini belgilab turuvchi va bitta qolibga solib turadigan jarayon hisoblanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslariga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat: O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularning oddiy kutubxonadan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxondarajasiga ko'tarish. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi, bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishdir. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish shular jumlasidandir.

Tinglash va tushunish: O'quvchilarga tinglash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun audio va video materiallar, hikoyalar va ertaklar tinglatish foydalidir. Bu o'quvchilarning diqqatini jamlash va o'rgatish jarayoniga faol ishtirok etishga yordam beradi.

Ko'proq amaliy mashqlar: O'quvchilarni tilga oid turli xil mashqlarni bajarishga undash, ularning amaliyot orqali bilimlarini mustahkamlashga imkon yaratadi. Shu tarzda, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi o'z bilimini jonli va qiziqarli tarzda yetkazib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga harakat qilishi lozim.

Xulosa: Shu fan ya'ni ona tilini o'qitish bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsam aslida bu faning oxiriga yetib bo'lmaydi va shu bilan bir qatorda bolalarning savodini chiqarish bir xil usulda olib boriladi deyolmaymiz, chunki dunyoda nechta kishi milonlab inson yashashsa, ularning o'ziga xos psixikasi bor bolalarga qanday qilib bo'lsa ham savod o'rgatishimiz buning uchun chuqur bilimlarni egalab borishimiz zarur hisoblanadi. Yuqorida takidlaganimdek bilim berish o'z o'zidan savod ham o'z o'zidan chiqib qomaydi bu narsalar birinchi navbatda yuqori darjali bilim sabr va kreativlikni talab qiladi. Biz pedagoglar birinchi navbatda psixolog bo'lishimiz har bitta bola bilan qay tarzda ishlay olishimiz ota onasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olsakgina kelajak poydevorlaridan yuqori natijalar va mustaqil kelajak qaldirg'ochlarini tarbiyalay olishimiz mumkin. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov bobomiz takidlagaganidek ta'lim va tarbiya qushning qanotiga o'xshaydi. Ta'limsiz tarbiyani tarbiyasiz ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qush ham bitta qanotda ucholmagani kabi bolajonlarga ham tarbiyani shu qatorda shevaga xos so'zlardan va tidagi xatoardan foydalanmasliklari bularga bir nazar tashlaydigan bo'lsak tarbiyani ham bular negizida ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Miliy istiqlool mafkurasi- xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir –T..”O'zbekiston”, 2000.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.”Sharq”, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining “ta'lim to'g'risida”gi qonuni // Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.. “Sharq”, 1997.
- 4 Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari //”Boshlang'ich ta'lim”. Jurnal.- Toshkent,2005. -№ 5,6,8-9 betlar.
- 5 Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // “Boshlang'ich Ta'lim” jurnali. –Toshkent, 2005.-№ 5.21 -23- betlar.
- 6.Karima Qosimova –Toshkent “NOSIR”nashiryoti ,2017.

PHRASEOLOGY: PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR PROBLEMS

Rahimjonova Sevinch Dilshodjon qizi

*Student of the faculty
English language and literature
FSU.*

Abstract: *This article delves into the study of phraseology, focusing on phraseological units (PUs) and the challenges they present. The discussion covers the nature of PUs, their classification, and the difficulties encountered in their interpretation, usage, and translation. Special emphasis is placed on cultural specificity and idiomaticity, which often complicate understanding and cross-linguistic equivalence. The article also offers potential solutions to these challenges, contributing to the broader understanding of linguistic diversity and complexity.*

Keywords: *Phraseology, phraseological units, idioms, cultural specificity, translation challenges, linguistic diversity, idiomaticity.*

Аннотация: *Эта статья углубляется в изучение фразеологии, фокусируясь на фразеологических единицах (гной) и проблемы, которые они представляют. Обсуждение охватывает природу гной, их классификацию, и трудности, возникающие в их интерпретации, использовании и переводе. Особенный акцент делается на культурную специфичность и идиоматическую, которая часто усложняется. Понимание и кросс-лингвистическая эквивалентность. Статья также предлагает потенциальные решения. Эти проблемы, способствующие более широкому пониманию лингвистического разнообразия сложность.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологические единицы, идиомы, культурная специфика, проблемы перевода, Лингвистическое разнообразие, идиомативность.*

Annotatsiya: *Ushbu modda frazologiyani (yiring) va ular mavjud bo'lgan muammolar. Munozara yiringning tabiati, ularning tasnifi, va ularning talqinlarida, foydalanish va tarjimasida duch kelgan qiyinchiliklar. Maxsus Ko'pincha murakkablashadigan madaniyat va idiyomiklikning ta'kidlashicha tushunish va lingvistik tenglik. Maqolada ham potentsial echimlar mavjud. Ushbu muammolar, lingvistik xilma-xillikni kengroq tushunishga yordam beradigan va murakkablik.*

Kalit so'zlar: *frazologiya, faksologik birliklar, idiomalar, madaniy xususiyat, tarjima qiyinchiliklari, lingvistik xilma-xillik, idiyomiklik.*

Introduction: Phraseology is a crucial area of linguistics that explores fixed expressions, such as idioms, proverbs, and other multi-word units. Phraseological units (PUs) enrich language by adding expressiveness, cultural depth, and unique stylistic elements. However, their study and application are fraught with challenges, particularly in defining their scope, analyzing their structure, and addressing translation difficulties. This article seeks to provide an in-depth exploration of these issues and their implications.

The Nature of Phraseological Units

Phraseological units are multi-word expressions that function as single linguistic entities.

They are characterized by several key features:

1. Stability – Their structure is fixed and cannot be altered without losing their meaning.
2. Idiomaticity – Their meanings are often figurative and cannot be deduced from the individual words.
3. Cultural specificity – Their meanings and usage often reflect cultural or societal norms.

Examples include idioms like “spill the beans” (reveal a secret), proverbs like “A stitch in time saves nine” (timely action prevents bigger problems), and collocations like “make a decision.” These expressions showcase the richness of a language but also present significant challenges for learners and translators.

Challenges in Phraseology

Definition and Classification

One major issue in phraseology is the lack of consensus on the definition and classification of PUs. While most scholars agree on their idiomatic and stable nature, debates persist about their boundaries. For example, are all collocations (e.g., “strong coffee”) considered PUs? How do we distinguish idioms from proverbs or clichés? This ambiguity complicates linguistic analysis and teaching.

Cultural Specificity

Phraseological units are deeply tied to culture, making their meanings context-dependent and often difficult to translate. For example, the English idiom “to kick the bucket” (to die) might confuse non-native speakers due to its non-literal meaning. Similarly, the Uzbek expression “Chumchuq so‘yib boshiga qo‘rg‘on tikmas” (Don’t overreact to small issues) may have no direct equivalent in other languages. Idiomaticity and Ambiguity. The figurative nature of PUs often leads to ambiguity. For instance, the phrase “break the ice” can mean to initiate conversation or, literally, to crack ice. Without proper

context, understanding such expressions can be challenging, especially for language learners and non-native speakers.

Translation Challenges

Translating phraseological units is particularly challenging because of their cultural and idiomatic nature. Translators must decide whether to preserve the original meaning, adapt it to the target culture, or explain it explicitly. For instance, the idiom “as cool as a cucumber” might be translated literally, adapted to a similar idiom in the target language, or explained as “remaining calm under pressure.”

Proposed Solutions

To address these challenges, researchers and practitioners have proposed several

strategies:

1. Using equivalent idioms in the target language, where possible.
2. Adapting culturally specific PUs to align with the target audience’s cultural context.
3. Providing explanatory notes for expressions that lack direct equivalents.
4. Developing comprehensive phraseological dictionaries and resources for learners and translators.

Conclusion

Phraseology offers valuable insights into the richness and diversity of human language. Despite the challenges posed by the cultural specificity and idiomaticity of phraseological units, careful analysis and creative solutions can help overcome these obstacles. By doing so, we can enhance cross-linguistic understanding and appreciation of linguistic diversity.

REFERENCES

1. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford University Press.
3. Moon, R. (1998). *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press.
4. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins.
5. Cowie, A.P. (1998). *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford University Press.
6. Dobrovol’skij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives*. Elsevier.

**JADIDLAR MEROSI: ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTI
UCHUN ILHOM MANBAI**

Xadicha Aslonova Mashrab qizi

Parkent tuman politexnikumi Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Jadidlar merosi Markaziy Osiyo xalqlari uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ilhom manbai hisoblanadi. Ushbu maqolada jadidlarning ta'lim, madaniyat va milliy uyg'onishga qo'shgan hissasi, ularning bugungi zamon uchun ahamiyati hamda merosining davom ettirilishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Jadidlar merosi, Milliy uyg'onish, Turkiston ziyolilari, Ta'lim islohotlari, Zamonaviy jamiyati, Madaniy modernizatsiya, Matbuot va adabiyot, Teatr va san'at, Ijtimoiy islohotlar, Milliy o'zlik*

Аннотация: *Наследие джадидов имеет огромное значение для народов Центральной Азии и служит источником вдохновения для развития современного общества. В данной статье рассматриваются их вклад в образование, культуру, национальное пробуждение, а также значение их наследия в современности и его продолжение.*

Ключевые слова: *Наследие джадидов, Национальное пробуждение, Туркестанские интеллигент, Реформы в образовании, Современное общество, Культурная модернизация, Пресса и литература, Театр и искусство, Социальные реформы, Национальная идентичность*

Abstract: *The legacy of the Jadids holds immense importance for the peoples of Central Asia, serving as an inspiration for the development of modern society. This article explores their contributions to education, culture, and national awakening, as well as the relevance of their legacy in today's context and its continuation.*

Key words: *Jadid legacy, National awakening, Turkestan intellectuals, Educational reforms, Modern society, Cultural modernization, Press and literature, Theatre and art, Social reforms, National identity*

Kirish

Jadidlar harakati a'zolaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy “O'zbek gulistoni” asarida ta'limning millat uchun asosiy omil ekanligini quyidagicha ta'kidlaydi: **“Millatning kelajagi yoshlarning qo'lidadir. Ularga ta'lim berish – eng oliy burchdir”**

Jadidlar harakati Markaziy Osiyo xalqlarining milliy uyg'onish yo'lidagi tarixiy burilish nuqtasidir. Bu harakat jamiyatni savodli qilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Jadidlar faqat tarixiy shaxslar emas, balki bugungi kunda zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ilhom manbaidir. Ushbu maqolada jadidlarning merosi va uning zamonaviy ahamiyati atroflicha yoritiladi.

XX asr boshlarida jadidlar harakati O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarning markazida bo'ldi. Bu harakatning vakillari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi ziyolilar xalqni ma'rifat va yangilanish sari yetaklab, zamonaviy maktablar ochish, madaniyatni rivojlantirish va mustaqillik uchun kurashish yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar. Ammo bugungi kunda yangi avlod bu buyuk shaxslarni qanchalik taniydi?

Tarixiy merosni anglash zarurati

Yangi avlod uchun jadidlar faqat tarixiy shaxslar emas, balki milliy o'zlikni anglashda muhim bo'lgan timsollardir. Ularning faoliyati orqali xalqning o'tmishdagi og'ir sharoitlarda qanday yuksalishga intilganini tushunish mumkin. Ammo zamonaviy yoshlar orasida jadidlar haqida yetarli bilimga ega bo'lmaganlar ko'plab uchraydi. Bu holatning sababi – ta'lim tizimi va ommaviy madaniyatda bu mavzuga yetarlicha e'tibor berilmasligi bilan bog'liq.

Keling hozir jadidchilikning kelib chiqishi maqsadlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1.Tarixiy sharoit: Rossiya imperiyasi davrida Turkiston aholisi madaniy va ijtimoiy qoloqlikda edi. Jadidlar bu muammolarni bartaraf etish maqsadida o'z harakatlarini boshladilar.

2.Harakatning asosiy maqsadi: Milliy uyg'onishni amalga oshirish va xalqni zamonaviy hayotga moslashtirish.

3.Ta'limdagi islohotlar: Jadid maktablari, eski va yangi usul maktablari: Jadidlar eski usuldagi maktablarni tanqid qilib, zamonaviy bilimlarni o'rgatadigan yangi maktablar tashkil qildilar.

4.Fanlarni o'qitish tizimi: Matematika, tabiiy fanlar va dunyoviy ilmlarni o'rgatish jadid maktablarining asosiy maqsadi edi.

5.Qadriyatlarni saqlab qolish: Jadid maktablari xalqning milliy o‘zligini saqlab qolish bilan birga uni yangi ilmiy bilimlarga oshno qilishni maqsad qildi.

6.Asosiy shaxslar: Abdulla Avloniy, Ismoil Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat kabi yetakchilar harakatning peshvolari bo‘lgan. Ularning faoliyati nafaqat Turkiston, balki butun musulmon dunyosi uchun ahamiyatli edi.

7.Jadid gazetalari va jurnallari: “Tarbiyai Atfol”, “Sho‘ro” kabi nashrlar orqali milliy uyg‘onish g‘oyalari targ‘ib qilindi.

8.Teatr san’atining rivoji: Jadidlar yangi usuldagi teatrlarni tashkil etib, milliy birdamlik va ijtimoiy adolat masalalarini yoritgan spektakllar qo‘yganlar.

9.Ayollarning ta’lim olishi: Jadidlar ayollarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu jamiyatning kelajak taraqqiyoti uchun muhim qadam edi.

Chindan ham ushbu davrda yashagan ma’rifatparvarlar juda teran fikrlashgan. Hozirgi kunda jadidlar qoldirgan meroslarini o‘qir ekanmiz, nega bugungi kundagi yoshlar ularga munosib izdosh bo‘la olmayapti degan savol tug‘iladi?

Shaxsan o‘z fikrimni aytadigan bo‘lsam bunday izdoshlarni munosib qilib voyaga yetkazadigan ota-onalar kamaymoqda. Farzandlarni o‘z xohish istaklariga qo‘yib berish ham kata xatolarga yo‘l ochadi. Inson tarbiyasida oilaning o‘rni katta.

Kuni kecha 21-22-yanvar kunlari Toshkent davlat Jurnalistika universitetining bir qator faollari ishtirokida “Jadidlar va Behbudiy Merosini o‘rganishdagi yangi yondashuvlar” mavzusida an’anaviy xalqaro ilmiy –amaliy konferensiya o‘tkazildi. Bunda Behbudiyning nabirasi Shavkat Behbudiy ham uning ta’lim sohasidagi merosini davom ettirish zarurligini ta’kidlagan.

Ommaviy axborot vositalarining ta’siri

Televideniye, kino va internet platformalari orqali jadidlar merosini targ‘ib qilish yosh avlodning bu mavzuga qiziqishini oshiradi. Badiiy filmlar, hujjatli lavhalar yoki zamonaviy podkastlar orqali ularga oid tarixiy voqealarni ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda jadidlarning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan sahifalar tashkil etilishi kerak. Jadidlar maktablari va ularning yondashuvlari bugungi kunda ham ta’limda sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilhom manbai sifatida zamonaviy jamiyat islohotlaridajadidlarning g‘oyalaridan kuch olmoqda.Ba’zi yoshlar jadidlarni faqat tarixiy shaxslar sifatida tanib, ularning g‘oyalari va faoliyatining mohiyatini chuqur anglamaydilar. Bu holat, asosan, ta’lim tizimida jadidchilik mavzusiga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi yoki ularning merosi ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmasligi bilan bog‘liqdir. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 42 foizi jadidlar harakati haqida yetarli bilimga ega emas

Yoshlar orasida jadidlarni milliy qahramonlar sifatida tasavvur qiladiganlar

ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi jadidlar xalqning ma‘rifatga intilishi va mustaqillik uchun kurashish ramzi sifatida qadrlanadi. O‘zbekistonning mustaqillik davridagi davlat siyosatida ham jadidlarning milliy uyg‘onishdagi o‘rni qayta-qayta ta’kidlangan (“Jadidlarning merosi va zamonaviy ta’lim”, 2020). Ularning ijodi va faoliyati yoshlarning milliy g‘ururini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Jadidlarning qarashlarini bugungi kun talablariga mos tarzda tushuntirish ham muhimdir. Ularning asosiy maqsadi bo‘lgan ma‘rifat, taraqqiyot va mustaqillik bugungi kunda ham dolzarb mavzulardir. Yoshlar jadidlar g‘oyalaridan ilhom olib, zamonaviy texnologiyalar, fan va madaniyat sohasida yutuqlarga erishish yo‘lida harakat qilishlari kerak. Jadidchilar haqida qancha so‘zlasak oz, har bir ma‘rifatparvar jadidlarning hayoti ijodi bir film demakdir va ular hozirgi yoshlar ongi, dunyoqarishiga yetarlicha namuna bo‘la oladi. Ulardan qoldirilgan har bir asar bizning yoshlarimiz uchun ulkan merosdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik davrida amalga oshirilgan islohotlar jadidchilik g‘oyalariga yaqinlashgan bir qancha muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Jadidchilik harakati asosan ma‘rifat, ta’lim, ijtimoiy adolat, tenglik va zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Mirziyoyevning islohotlari ham bu g‘oyalarni davom ettiruvchi, jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlardir. Quyida Shavkat Mirziyoyevning jadidchilik g‘oyalariga mos keladigan ba’zi islohotlar keltirilgan:

1. Ta’lim tizimi islohoti

Mirziyoyev ta’lim tizimini yangilashga katta e’tibor qaratdi. Bu islohotlar jadidlarning ta’limdagi yuksak g‘oyalariga yaqinlashadi, chunki jadidlar ta’limni milliy uyg‘onishning asosiy omili deb hisoblashgan.

Yangi ta’lim standartlari: Maktablarda va oliy ta’limda zamonaviy o‘quv dasturlari, xalqaro tajriba asosida yangi metodika va texnologiyalar tatbiq etildi.

Ingliz tilining ahamiyati: O‘zbekistonning global jamiyat bilan integratsiyasini kuchaytirish uchun ingliz tili o‘qitishni kengaytirish.

O‘qituvchilarni malakasini oshirish: O‘qituvchilarni malakali va zamonaviy metodlar bilan ta’minlash.

2. Ijtimoiy adolat va inson huquqlari

Jadidlar ijtimoiy adolat va inson huquqlarini himoya qilishni o‘zining asosiy g‘oyasi sifatida belgilagan. Mirziyoyev davrida, ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlash borasida muhim qadamlar qo‘yildi.

Siyosiy mahbuslarni ozod qilish: Prezidentlik davrida siyosiy mahbuslarga nisbatan amnistiya e’lon qilindi va ko‘plab odamlar ozod qilindi.

Ayollar huquqlarini himoya qilish: Ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash uchun huquqiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirildi.

Yoshlar siyosati: Yoshlar uchun ta’lim, ishlash va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari yaratildi.

3. Iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tish

Jadidlar iqtisodiy yangilanishni, xususan, xususiy mulk va erkin bozorni rivojlantirishni ta’kidlaganlar. Mirziyoyevning iqtisodiy islohotlari bu g‘oyalarga mos keladi.

Iqtisodiy erkinlik: Xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish, erkin bozor iqtisodiyotini rivojlantirish.

Korruptsiyaga qarshi kurash: Korruptsiyaning oldini olish va davlat boshqaruvidagi shaffoflikni oshirish uchun qator chora-tadbirlar ko‘rildi.

Yangi iqtisodiy hududlar: Investitsiyalarni jalb qilish uchun erkin iqtisodiy zonalar va yangi savdo yo‘llarini rivojlantirish.

4. Madaniyat va milliy o‘zlikni saqlash

Jadidlar o‘z vaqtida milliy madaniyatni tiklash va xalqni ma’rifatli qilishni maqsad qilgan edi. Mirziyoyev bu g‘oyalarni davom ettirib, madaniyat va san’atga e’tibor qaratdi.

Milliy madaniyatni rivojlantirish: Milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun madaniy inshootlar, muzeylar va kutubxonalar qurildi.

Ma’naviyat va ma’rifat: Yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, ularning ruhiy-axloqiy tarbiyasini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi.

Shavkat Mirziyoyevning islohotlari jadidlarning asosiy g‘oyalariga mos keladi, chunki ularning asosiy maqsadi jamiyatni modernizatsiya qilish, ta’lim, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Mirziyoyevning islohotlari nafaqat O‘zbekistonning ichki taraqqiyotini, balki uning xalqaro maydondagi obro‘cini oshirishga ham qaratilgan.

Xulosa: Yangi avlod jadidlarni tanishi va ularning g‘oyalarini qadrlashi millatning ma’naviy yuksalishi uchun juda muhim. Umuman olganda jadidlarni ma’rifatparvarlik g‘oyalarini doimiy ravishda yoshlarga uqtirib borishimiz kerak deb o‘ylayman. Axir Yangi O‘zbekiston kelajagi yoshlar qo‘lida. Ular qancha ziyoli, ilmiy bo‘lsa Vatanimiz shu qadar rivojlanadi, gullab yashnaydi

Bu borada ota-onalar, o‘qituvchilar, ziyolilar va ommaviy axborot vositalari birgalikda harakat qilishlari lozim. Faqat shundagina jadidlar merosi avloddan-avlodga o‘tib, xalqimizni yangi marralar sari ilhomlantira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behbudiy M. Padarkush (drama). Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 1911.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1913.
3. Saidov A. O‘zbekiston jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: O‘zR FA, 2002.
4. Vohidov H. Jadidlarning ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati. Toshkent: Fan, 1998.
5. Shavkat Behbudiy. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari. Toshkent, 2023

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TA’LIM JARAYONIDAGI RO’LI

Ro‘ziboyeva O‘lmasoy Yo‘ldosh qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada professional ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida pedagogik diagnostika bilan shug‘ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biri ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik diagnostika,shaxs,innovatsiya,individual yondashuv,baholash va tahlil qilish,pedagogi texnologiya,psixologiya*

KIRISH

Respublikamiz ta'lim tizimida o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini diagnostika qilish, ta'limning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni individual yondashuv bilan qo‘llab-quvvatlashda pedagogik diagnostika muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik diagnostika – bu o'qituvchining o'quvchilarni baholash va tahlil qilish jarayonida qo'llaniladigan ilmiy va amaliy usullar tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim darajasi, qobiliyatlari, psixologik

xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini aniqlashdan iborat. Pedagogik diagnostika ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yanada samarali muloqot o'rnatish va ta'lim jarayonining individual yondashuvini amalga oshiradi. Pedagogik diagnostikaning rivoji psixologik diagnostika bilan bog'liq va bevosita uning negizida yuzaga kelgan. (1) Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubiy muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda.

Psixologik diagnostikaning o'zi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida psixologiya sohasida olib borilgan qator tadqiqotlarning g'oyalariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. So'nggi yillarda ta'lim va tarbiya amaliyotida pedagogik jarayon, holat, hodisalarni tashxislashga alohida e'tibor qaratilmoqda. (2) Binobarin, tashxislash pedagogik jarayon, holat, hodisalarning mavjud holatidan kelib chiqqan holda istiqbol vazifalarni belgilash imkonini beradi. Ta'limda pedagogik diagnostika - ta'lim-tarbiya faoliyatida uning sifat va samaradorligini aniqlab beruvchi amaliyot bo'lib, unda erishilgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni ko'rsatib beradi va uning takomillashtirish imkoniyatini ochib beradi. U dars jarayonida, ta'lim sub'ektlari faoliyatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik diagnostika o'quvchi-talabaning o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltiriladi. Diagnostikaning natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

Pedagogik diagnostikaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati

Pedagogik diagnostikaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati juda katta. U quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ta'limning samaradorligini oshirish – pedagogik diagnostika orqali o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini tahlil qilib, o'qituvchi ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun zaruriy o'zgartirishlarni amalga oshiradi.

-o'quvchilarga individual yondashuv – har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayoni har bir o'quvchiga moslashtiriladi. Bu o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi.

-o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni yaxshilash – pedagogik diagnostika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, chunki bu usul o'qituvchiga o'quvchilarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

-pedagogik yondashuvning rivojlanishi – o'qituvchilar pedagogik diagnostika yordamida o'z pedagogik yondashuvlarini tahlil qilib, ularni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.(3)

Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi Individual yondashish, o'quvchi va talabalarining individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarda ham aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi-talaba shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarini o'rganadi. Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubiy muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu asosda yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishlar belgilab olinmoqda .

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holati uzluksiz ta'lim tizimi ishtirokchilari: o'qituvchilarning o'zaro munosabatiarga kirishishi, pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llarini o'rganishni, umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey, kollej o'quvchilari, oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarining qobiliyatlari, iqtidori, bilimlarini o'zlashtirish hamda tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish yo'llari, vositalarini aniqlash; ta'lim-tarbiyaviy bosqichlararo uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostika ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxshilash uchun muhim vosita bo'lib

xizmat qilmoqda. Bu jarayon o'qituvchiga o'quvchilarning bilim darajasini, psixologik va emotsional holatini aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga, ta'lim jarayonini yanada individualizatsiyalashga yordam beradi. Shu sababli, pedagogik diagnostika zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Pedagogik diagnostika ta'limni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. U o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tahlil etadi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralami xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilibaytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qaydarajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, o'quv kursi va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi/
M.X. Toxtaxodjayeva va boshqalar. Prof. M.X. Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri
ostida. -Toshkent:
5. D.O. Ximmataliyev, S.B. Allayarova, D. Xalmatova, R.R. Karimov, I.N. Buxorov, Sh.V. Usmonov, M.O. Xakimova. Pedagogik diagnostika va korreksiya O'quv qo'llanma. – Toshkent.

**TANA A’ZOLARIMIZDAGI BIZ BILGAN VA BILMAGAN
JARAYONLAR YOXUD PSIXOSOMATIKA HAQIDA QISQACHA**

Ismailova Shohsanam Bahodir qizi

“O’zbekiston temir yo’llari” Markaziy poliklinikasi hamshirasi

Telefon: +998994671392 Gmail: shohsanam1303@gmail.com

Annotatsiya: *Har bir a’zoimiz bizning nafaqat tanamiz balki ongimiz bilan ham uzviy bog’langanligi va o’zining so’zlash uslubiga egaligi to’grisida, psixosomatika haqida maqola yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *psixosomatika, miya, yurak, ongosti, bosh, quloq, og’riq*

Kirish

Bir kuni yurak bilan miya suhbatlashib qolishdi. Yurak: “Nega bunchalar sovuqqonsan? Nega ketma-ket kelgan savdolardan biroz tin olishga, og’riqlar kamayishi, yaralar bitishiga vaqt bermaysan? Ko’z yoshlarimga qaramay doim qo’limdan tortasan?” - deb xasrat qilibdi. Miya esa “Eh yurakjon, sen juda xissiyotlarga to’lib toshasan, agar senga qo’yib bersa o’zingni o’zing kuyib ado qilganing yetmaganday, bir insonni taqdirini ostun-ustun qilishga qodirsan!” deb javob beribdi. Darhaqiqat, hayotimizga yopirilib kelgan ba’zi vaziyatlarda xissiyotlar og’ushida qaror qabul qilib, keyin afsus – nadomatlar qolganlar qancha oramizda.

Hech o’ylab ko’rganmisiz tana a’zolarimiz o’rtasida shunday suhbatlar bo’lib tursa? G’aroyib to’g’rimi? Bizga biron nima deyishga intilishiga nima deysiz? Bizlar tanamizni qanchalik bilamiz? Uni qanchalik tushunamiz? Aslida ular biz bilan “og’riqlar” orqali gaplashishligi haqida bilarmidingiz? Ba’zan ruhiyatimizdagi o’zgarishlar, noroziliklar, asabiy holatlarimiz tanamizda iz qoldirmasdan iloji yo’q. Qaysidir tana a’zoimizni zo’riqtirib yuborsak, u bizga og’riq orqali belgilar beradi. Bali og’riq bu bor yo’g’i bizga: “Xoy, azizim sen e’tibor qaratishing lozim bo’lgan bir narsa bor” demoqchidir. Bu o’zingizga e’tibor qaratishingiz zarurligi haqidagi qat’iy ogohlantirishdir. Bizga ne’mat bo’lib kelgan sog’lom tanamizga ko’pincha befarqlik qilamiz, uni asrab-avaylash hayotimizga ham kelmaydi. Bizning kasalliklarimiz ongosti bilan bog’liq bo’lishi mumkinligiga nima deysiz? Keling sizlar bilan inson xatti-harakati, o’y-fikrlari va u ro’yobga chiqaradigan maqsadlar bilan ba’zi bir kasalliklar o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rib chiqamiz.

Bosh – fikrlash jarayoni uchun javobgardir. Boshdagi og’riqlar xissiyotlar va fikrlar o’rtasidagi nomuvofiqlikdan darak beradi.

Quloq – eshitish va tinglash qobiliyatini ifodalaydi. Quloqdagi muammolar esa birovlarini eshitishlikni istamaslikdandir.

Ko'z – o'tmish, bugun va kelajakni aniq ko'ra olish qobiliyati timsoli. Ko'z kasalliklari hayotda ko'rishni istamayotgan narsalarni ko'rayotganingiz sizga yoqmaydi.

Yurak – hayotdan zavq olib, o'zi va o'zgalar bilan murosqa qilib yashash qobiliyati timsoli. Yuragi kasal odamlarda o'ziga va o'zgalarga muhabbat xissi yetishmaydi.

O'pka – berish va olish qobiliyatini aks ettiradi. O'pkadagi muammolar ko'nglimizdagidek hayot kechirishdan qo'rqishimiz yoki istamasligimiz tufayli kelib chiqadi.

Ro'yhatni davomi uzun chunki Har bir a'zoimiz bizning nafaqat tanamiz balki ongimiz bilan ham uzviy bog'lanib, bizni psixosomatika yo'nalishiga olib keladi. Xo'sh psixosomatika o'zi nima?

Psixosomatika – psixologik omillarning somatik ya'ni tana kasalliklarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganadigan tibbiyot va psixologiyadagi yo'nalish hisoblanadi. Psixogen omillar ta'sirida yuzaga keladigan tana kasalliklari “psixosomatik kasalliklar” deb ataladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tanadagi kasalliklar nafaqat tashqaridagi “bakteriya” va “viruslar” oqibatida yuzaga kelishi mumkin balki bizning doimiy ruhiy holatimizda bo'layotga “ag'darilishlar” natijasida ham yuzaga kelishi mumkin ekan. O'z vaqtida Gippokrat ham insonning sog'ligi uning fe'l atvoriga bog'liq ekanligi haqida aytib o'tgan. 1920 yilda sil bilan kasallangan Frants Kafka o'zining holatiga shunday ta'rif bergan: "Mening ongim kasal, o'pkamdagi kasallik esa shunchaki ruhiy kasalligimning aksidir".

Ilmiy tadqiqotlarga qaraydigan bo'lsak, psixologik holat haqiqatda kasalliklar rivojiga ta'sir qilishi mumkin, kasalliklar esa inson psixikasiga ta'sir ko'rsatadi.

Shifokorlar depressiya va stressga chidamlilikning past darajasini xavf omili deb hisoblashadi: ular immunitetni tushiradi, buning natijasida esa organizmdagi yoki tashqaridagi kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar faol shaklga o'tishi mumkinligi haqida aytib o'tishgan. “Shunday bo'lsa-da, psixologik holat o'z-o'zidan 100 foiz salomatligimiz uchun javob bera olmaydi. U faqat kasallikni keltirib chiqargan omillardan biri bo'lishi mumkin. Alohida xavotirlar doim ham biron kasallikni keltirib chiqarishi mumkin emas” -ligi haqida ham bahs – munozaralar bo'lib turadi.

O'rta asrlarda qadimgi tabiblariga qaraydigan bo'lsak, ularning davo muolajalari shifobaxsh giyohlar bilan birgalikda meditatsiya va turli marosimlardan iborat bo'lganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular tanadagi

energiya oqimlari va muvozanatning kuchiga ishonishgan va maxsus amaliyot va ibodatlar orqali uning uyg'unligini tiklashga intilishgan.

O'rta asrlarda musulmon tabibi Abu Zayd al-Balxiy kasalliklarning rivojlanishida biologik va psixologik omillarning o'zaro ta'siri nazariyasini yaratdi. Uning "Tana va qalb ozuqasi" nomli qo'lyozmasi Istanbul shahrining Ayo Sofiya kutubxonasida saqlanib kelinadi. O'ziga xos qobiliyati orqali Abu Zayd al-Balxiy shaxslardagi psixopatologk muammolarni nisbatan yengil hisoblangan psixologik buzilishlarni: stress, depressiya, qo'rquv, xavotir, fobiya va obsessiv-kompulsiv buzilishlarni kognitiv-bixeviorial terapiya orqali tushuntirgan va diagnoz qilgan. Bu esa hozirgi zamonaviy psixologiyadagi terapiyaning tarmoqlariga mos keladi. Shuningdek, u qalb muolajasi va Allohga ibodatning psixologik ahamiyatini o'z ichiga oladi.

Abu Zayd al-Balxiy tana va ruhiy kasalliklarning belgilari, ularni aniqlash, oldini olish, davolash va salomatlikni dastlabki holatiga qaytarish yuzasidan aniq izohlar keltirgan. U insonning psixologik holati va hissiy jihatlarini tibbiy jihatini ko'rsatib berdi. Afsuski, bunday manbalarning aksariyati: qimmatli hujjatlar, qo'lyozmalar yo yo'qolgan yoki muzeylarda, borish imkonsiz bo'lgan kutubxonalarda yashiringan holda saqlanib kelinmoqda. Muallifning biografik ko'rinishdagi asarlari esa deyarli saqlanmagan. Yozuvchining hayoti haqidagi ma'lumotlarni faqat Yoqut al-Hamaviy asarlaridagina uchratish mumkin.

Yevropa tomonlarda "Psixosomatika" atamasi birinchi bo'lib 1818-yilda nemis shifokori Iogann-Kristian Geynrot tomonidan kiritilgan. 1822-yilda Nemis psixiatri Karl Yakobi "somatopsixik" tushunchasini kiritdi, bu "psixosomatik" munosabatga qarama-qarshi va ayni paytda to'ldiruvchidir. Biroq, faqat bir asr o'tgach, bu atama asosan psixoanalitik psixologlar tufayli tibbiy amaliyotda umumiy qabul qilindi; bu davrda psixosomatik terapiya ba'zan "tibbiyotda amaliy psixoanaliz" deb ataladi.

Xususan, Zigmund Freyd, Jozef Breyer bilan birgalikda, bostirilgan his-tuyg'ular va ruhiy travma, "konversiya" deb nomlangan himoya mexanizmi orqali o'zini somatik alomatlar shaklida namoyon qilishi mumkinligini ta'kidlab o'tdi. Freyd ta'kidlaganidek, buning uchun "somatik tayyorgarlik" — "kasallik o'zini namoyon qiladigan organni tanlash" uchun muhim bo'lgan jismoniy omil talab qilinadi. Freydning muhim kashfiyotlaridan biri shundan iborat ediki, his-tuyg'ular oddiy yo'llar orqali ifoda etilmasa, surunkali ruhiy va somatik kasalliklar manbai bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, yuzaga chiqmagan, qo'yib yuborilmagan davomiy stresslar Yurak qon -tomir sistemasida ma'lum bir o'zgarishlarni yuzaga kelishi haqida ko'plab eshitganmiz va hozirgi kunda dunyo miqyosida ko'plab ruhiy holatni yengillashtiruvchi va stressdan xalos qiluvchi

trening-mashg'ulotlar avj olib bormoqda. Bunga ong osti bilan ishlash, kechirish praktiklari, genetik psixologiya kurslarini misol qilishimiz mumkin bo'ladi.

Hozirgi zamon Mashhur amaliyotchi psixoterapevt, psixolog, minglab odamlarga sog'lig'ini tiklashga, moddiy farovonligini oshirishga, hayot quvonchini xis qilishga yordam bergan oddiy va samaradorligi bilan o'ziga xos bo'lgan psixologik metodikalar muallifi Valeriy Sinelnikov o'zining “Dardingni sev” nomli kitobida “Men anchadan buyon kasalliklarning ichki ongosti sabablarini bir tizimga solish, mukammal tasnif tuzish niyatida yurardim. Vaqt o'tishi bilan mukammal tizim yaratishning iloji yo'qligini tushunib yetdim. Har bir insonning o'z kasalligiga o'ziga yarasha sabablari bo'ladi. Lekin kasalliklarning yuzaga kelishida qandaydir qonuniylik mavjud. Bu muayyan bir organ yoki organizm tizimi o'ziga xos fiziologik funksiyalarni bajaribgina qolmay, o'zida emotsional yukni ko'tarib yurishi bilan bog'liq. Ya'ni tanamizning qaysidir qismi energetik-ma'lumot darajasida bizning u yoki bu fikrlarimiz va xis tuyg'ularimizni aks ettiradi.”- deydi. Sinelnikov o'z nazariyasini shakllantirgan holda, inson koinot qonunlariga muvofiq ishlaydigan tashqi dunyo bilan uyg'unlikda mavjud bo'lishi kerak degan g'oyaga amal qildi. Buni nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham tushunish kerak, chunki aqliy daraja inson rivojlanishida bir pog'ona yuqoriroqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonning psixologik xolati umumiy sog'lig'ida muhim rol o'ynaydi va somatik kasalliklarning paydo bo'lishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Psixologik muvozanat va uyg'unlikni saqlash salomatlikni mustahkamlash va turli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Jiddiy kasalliklarga duch kelish hayotni qayta ko'rib chiqish, iymonni mustahkamlash yoki yangi ruhiy yo'nalishlarni izlashda muhim qadam bo'lishi mumkin. Kasallik ko'pincha ichki rivojlanishni, hozirgi zamonning qadr-qimmatini anglashni va bosib o'tilgan hayotni qayta ko'rib chiqishni rag'batlantiradi, bu esa shaxsning ma'naviy o'sishi va o'zgarishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.V. Sinelnikov “Dardingni sev” kitobi (1999)
2. Wikipedia

AXBOROTLAR ASRIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI

Qahhorjonova Qurbonoy Farrux qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada axborotlar asrida pedagog qanday mahoratlarga ega bo‘lish, zamonaviy pedagogga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, mahorat, didaktik, innovatsion, emotsional intellekt, xalqaro, zamonaviy, axborot.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining eng muhim masalalaridan biri pedagog kadrlarni rivojlantirish va ta‘limning har bir bosqichida axborot resurslaridan foydalanib sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasini amalga oshirishdir[1]. Shu bois bugungi kunda dunyo axborotlar asri deb nomlangan global rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan davrda texnologiyalar va axborot manbalarining yildan-yilga ortib borishi, inson faoliyatining barcha sohalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bundan ta‘lim jarayoni ham mustasno emas, shu bois pedagogik mahoratning ahamiyati va o‘rni har qachongidan-da dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Axborot texnologiyalari ta‘lim jarayoniga jiddiy o‘zgarishlarni olib kirdi. An‘anaviy ta‘lim vositalari o‘rnini zamonaviy texnologiyalar egalladi: elektron darsliklar, masofaviy ta‘lim platformalari, virtual va aralash o‘qitish usullari keng joriy etilmoqda. Bunday sharoitda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bilim olishga yo‘naltiruvchi, innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, axborot oqimini boshqaruvchi mutaxassis sifatida maydonga chiqishi kerak[2]

Pedagogik mahorat – bu faqatgina o‘z fanini mukammal bilish emas, balki ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning ehtiyoj va qobiliyatlarini his qilish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish, motivatsiyani shakllantirish hamdir. Bunda quyidagi jihatlar muhim o‘rin tutadi:

Didaktik mahorat: murakkab tushunchalarni oson va tushunarli tarzda yetkazib bera olish.

Innovatsion yondashuv: yangi texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish.

Emotsional intellekt: o‘quvchilarning psixologik holatini anglab, ularga moslashish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari: onlayn ta‘lim vositalarini samarali boshqarish va ulardan unumli foydalanish.

Axborotlar asrida pedagogik mahorat ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Zamonaviy pedagog quyidagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

1. Axborot oqimini boshqarish: o'quvchilar uchun to'g'ri va ishonchli ma'lumot manbalarini tanlash va ularga yo'naltirish.
2. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: hozirgi davrda axborotning ko'pligi sababli yolg'on va haqiqatni ajratib olish ko'nikmasi muhim.
3. Zamonaviy metodlardan foydalanish: masofaviy ta'lim, aralash dars usullari, o'yinlashtirish elementlari kabi innovatsion yondashuvlarni qo'llash.
4. Hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish: o'quvchilarni faqat bilim emas, balki amaliy hayotda muvaffaqiyat qozonishga tayyorlash.[3]

Bunday axborotlar asrida bo'lajak o'qituvchilar ta'lim jarayonining asosiy boshqaruvchisi sifatida o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lish uchun nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Quyida bu boradagi asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

- Fan va metodikani chuqur o'rganish

O'z sohasini mukammal bilish: Bo'lajak o'qituvchi o'z yo'nalishi bo'yicha yetarli nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu nafaqat dars berish jarayonini samarali tashkil etish, balki o'quvchilarning qiziqishini uyg'otishda ham muhimdir.

Metodik ko'nikmalarni egallash: Darsni rejalashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish, turli didaktik materiallarni ishlab chiqish va ulardan foydalana olish mahoratiga ega bo'lish kerak.

- Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash: Elektron ta'lim platformalari, onlayn dasturlar, multimedia vositalarini qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Innovatsion yondashuvlar: Masofaviy ta'lim, virtual laboratoriyalar va boshqa zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etishga tayyor bo'lish.

- Psixologik va pedagogik bilimlarni rivojlantirish

O'quvchi psixologiyasini tushunish: Har bir o'quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini tushunib, ularga moslashish.

Motivatsiyani oshirish: O'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish va ularda mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantirish.

Ta'sirchan muloqot: O'qituvchi aniq, samimiy va ishonchli muloqot orqali o'quvchilar bilan aloqani mustahkamlashi lozim.

- Shaxsiy rivojlanish

Ijodiy yondashuv: O‘qituvchi dars jarayonida ijodkorlikni namoyon etib, standart yondashuvlardan qochishi kerak.

Hayot davomida o‘rganish: O‘z sohasidagi yangiliklarni o‘rganish, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni egallash uchun doimiy o‘qish va tadqiqot olib borish.

O‘z-o‘zini tahlil qilish: Dars o‘tish jarayonini doimiy ravishda tahlil qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilish.

- Tajriba orttirish

Amaliyot jarayonlarida ishtirok etish: O‘quv amaliyotlarida faol ishtirok etish, tajribali ustozlarning ish uslubini o‘rganish.

Yangi usullarni sinab ko‘rish: O‘z darslarida turli pedagogik usullarni tajriba asosida qo‘llash va ularning natijalarini baholash.

- Jamoaviy ishga tayyor bo‘lish

Hamkasblar bilan tajriba almashish: Ta‘lim sohasidagi dolzarb masalalar bo‘yicha fikr almashish va hamkorlikda ishlash.

Ota-onalar bilan hamkorlik: O‘quvchilarning rivojlanishida ota-onalar bilan samarali aloqani yo‘lga qo‘yish.

- Milliy va umumbashariy qadriyatlarga e‘tibor berish

Ma‘naviy tarbiya berish: Bo‘ljak o‘qituvchi milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini, ma‘naviy mezonlarni ta‘lim jarayoniga singdirishi lozim.

Xalqaro tajribadan foydalanish: Zamonaviy pedagogik usullarni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirib qo‘llash.[4]

Axborotlar asrida pedagogik mahorat nafaqat ta‘lim sifatini oshirish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagog axborot texnologiyalari va ta‘lim metodologiyasini puxta egallab, o‘quvchilarni yuksak maqsadlar sari yo‘naltiruvchi bo‘lishi zarur. Shu bois, pedagogik mahoratni uzluksiz rivojlantirish va zamon talablariga moslashish har bir pedagogning ustuvor vazifasiga aylanishi kerak. Bo‘ljak o‘qituvchilar esa pedagogik mahoratga ega bo‘lish uchun o‘z ustida muntazam ishlashi, zamon talablari va innovatsiyalarga moslashishi zarur. Pedagogik mahorat faqatgina bilim va tajribaga bog‘liq emas, balki insoniy fazilatlar, ijobiy munosabat va uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali shakllanadi. Shu bois, pedagogika yo‘nalishida ta‘lim olayotgan har bir talaba kelajakdagi faoliyatiga mas‘uliyat bilan yondashishi va yuqori maqsadlarga intilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. // www.ziyounet.uz
2. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

XALQARO VA MILLIY HUQUQDA BOLA HUQUQLARINING O`RNI

Sulaymonova Roziyabonu

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

sulaymonovaroziyabonu@gmail.com

Annotatsiya: *Bola huquqlarini xalqaro va milliy huquqda himoya qilish, ularning barcha huquqlari tengligini, ijtimoiy holatidan kelib chiqib kamsitmaslik*

Kirish so`zlar: *bola, deklaratsiya, pakt, siyosiy huquqlar, tenglik*

Kirish

Bola-o`n sakkiz yoshga to`lguniga (voyaga yetgunga) qadar bo`lgan shaxslardir. Bolalar doim davlat va jamiyat tomonidan g`amxo`rlik qilish va qo`llab quvvatlashga muhtoj qatlamlardir biri.¹⁵ Sitseron “Majburiyatlar haqida” asarida fuqarolarning majburiyatlarini ularning zarurligi darajasiga qarab bir qancha guruhga bo`lgan. Birinchisi Vatan va ota-ona oldidagi majburiyat, Ikkinchisi bolaga nisbatan majburiyat bo`lgan. Ammo bolalar u davrda davlatda, jamiyatda, oilada loyiq sharoitga ega bo`lishdan mahrum edilar. Qadimgi Rusda IX-XVII asrlarda bolalarni toifalarga ajratish urf-odat bo`lgan. Ayniqsa nikohsiz tug`ilgan bolalarga bepisandlik bilan qarash illatga aylanib borgan. Bundan tashqari bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda bolani urish, unga yomon munosabatda bo`lish va bolaning sog`ligi uchun zararli sharoitlarda ishlatish holatlari kuzatilmoqda. Aynan shu kabi holatlarni oldini olish va uni yo`qotish uchun Xalqaro huquqda va O`zbekistonda bir qancha konvensiyalar, qonunlar ishlab chiqilgan. BMTning inson huquqlariga oid universal standartlar deb ataluvchi deklaratsiyalar va konvensiyalari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari. Bu kabi hujjatlar orqali bolalarni har taraflama himoya qilish, ularning tengligini, hech qanday kamsitishsiz ularni himoya qilish o`rin oladi va bu hujjatlar barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladigan hujjatdir.

¹⁵ Mo`minov Abdulxay Rashidovich, Tillabayev Mirzatillo Alisherovich “Bola huquqlari” darslik

Asosiy qism:

Xalqaro huquqda bola huquqlariga oid ko'plab konvensiyalar, paktlar ishlab chiqilgan. Ularda bolalarning sog'ligi, ta'lim olishi, tengligi kabi huquqlari o'rin olgan. Ulardan bittasi ¹⁶Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hisoblanadi. Unda onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini berishi. Nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar barcha bolalar ijtimoiy himoyadan foydalana olishlari mumkin. ¹⁷Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida har bir bolaning irqi, tana rangi, jinsi, tili, dinidan qat'i nazar hech bir sababsiz davlat tomonidan himoya qilinishi kerakligi berilgan. Bundan tashqari har bir bolaning tug'ilganidan so'ng ro'yxatga olinishi va ismga ega bo'lishi kerak. (24-modda) ¹⁸Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to'g'risidagi paktida ham barcha bolalar va o'smirlarga hech bir kamsitishlarsiz alohida himoya choralari va yordam ko'rsatilishi kerak. Unga ko'ra: iqtisodiy va ijtimoiy eksplutatsiyadan himoyalangan bo'lishi kerak. Ularning mehnatini axloqi va salomatligi uchun zararli bo'lgan yoki hayot uchun xavfli sohalarda qo'llash qonun bilan jazolanishi kerak. (10-modda 3-qism) Deklaratsiya va paktlarda bola huquqlariga bevosita taalluqli qoidalar: bolalarning tengligi, onalik va bolalikni davlat tomonidan himoya qilish, bolalarni eksplutatsiya qilish to'g'risida, ta'lim olish huquqi shakllangan. Bundan tashqari bolalarning tengligi ta'moyili elon qilingan. ¹⁹Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ham bolalarning irqi, rangi, jinsi, tili, dini siyosiy yoki boshqa etiqodi, ijtimoiy qarashlaridan qat'i nazar har bir bolaga ushbu konvensiyadagi huquqlar ta'minlanadi. Shuningdek bolaning fuqarolikka ega bo'lish va ism qo'yilishi (7-modda), bolaning o'z fikrini erkin bayon etish, o'zi izlagan axborotni olish huquqi (13-modda), har bir bolaning shaxsiy daxlsizligi, oilaviy hayoti, uy-joy yoki yozishmalariga bo'lgan huquqidan qonunga xilof ravishda ajratish ta'qiqlanadi (16-modda). Shuningdek har bir

¹⁶ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

¹⁷ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt

<https://lex.uz/docs/-2640479>

¹⁸ Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt

<https://lex.uz/docs/-2686000>

¹⁹ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya

<https://lex.uz/docs/2595909>

bolaning tibbiy xizmatlardan foydalanish, ijtimoiy sug`urtadan foydalanish huquqi tan olinadi. Shuningdek bola bepul va majburiy boshlang`ich ta`lim olishi, ish joyiga joylashish uchun minimal yoshni belgilash,, ish kunining davomiyligi va mehnat sharoitlariga qo`yiladigan zaruriy talablarni aniqlash kerak. Umuman olganda bolalarni jinsiy, iqtisodiy eksplutatsiyadan asrash, bolalarni o`g`irlash, sotishni taqiqlash, ta`lim olishini taminlash va zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi huquqlari mavjud. Shunday qilib, Bola huquqlari konvensiyasida bola huquqlarini ta`minlashning asosiy tamoyillari berilgan bo`lib:

birinchidan:18yoshga to`lmagan barcha bolalarning huquqlarini ta`minlash

ikkinchidan: Ularni irqi, rangi, jinsi, tili, dini yoki siyosiy qarashlaridan qat`i nazar ajratmaslik

uchinchidan: o`z fikrini erkin ifoda etish, istalgan axborotni izlash huquqi

to`rtinchidan: yetim bolalar va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga davlat va jamiyat tomonidan g`amxo`rlik qilish

Milliy huquqda ham bola huquqlariga oid bir qancha qonunlar qabul qilingan va bolalarning rivojlanishi, ta`lim olishi, tengligi huquqini himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek konstitutsiyamizda bolalar mehnatining bolaning sog`ligi, xavfsizligi, axloqi va ta`limiga to`squinlik qiladigan har qanday shakli taqiqlanadi. Shuningdek konstitutsiyamizda oila, bolalar va yoshlar uchun alohida bob mavjud bo`lib, unda <sup>20</sup>farzandlarning nasl-nasabidan qat`i nazar tengligi, ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishlari, tarbiyalashlari kerakligi belgilangan.Bunda tashqari konstitutsiyamizda quyidagi asosiy tamoyillar ham muhim o`rin egallagan:

birinchidan: bola huquq va erkinliklarini taminlashda xalqaro huquqning normalariga amal qilish

ikkinchidan: bola huquqlarining himoyasi davlat va jamiyat tomonidan ta`minlanishi

uchinchidan:bolalarni nasl nasabi va ijtimoiy ahvolidan qat`i nazar kamsitmaslik

to`rtinchidan:ota-onalarning bolalarni o`qitish, boqish vatarbiylash majburiyati

Shuningdek davlatimiz bola huquqlarini himoya qilish uchun bir qancha ishlar amalga oshirgan va bu davom etmoqda. 1992-yilda “Bola huquqlari to`g`risida” gi konvensiyani ratifikatsiya qildi. Milliy qonunchiligimizni konvensiya qoidalariga implementatsiya qilish orqali 2008-yil 7-yanvarda “Bola

²⁰ konstitutsiya <https://lex.uz/docs/-6445145>

huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi.²¹ Unda bolaning sha'ni qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, bolalarda vatanparvarlik, tinchliksevarlik tuyg'ularini rivojlantirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab quvvatlash masalalari, nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalarning teng hamda har taraflama himoyadan foydalanishi, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik kabi huquqlari ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa: Xulosa qilib shuni ayta olamanki, xalqaro huquqdagi konvensiya, paktlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolalarni himoya qilishning asosiy normalari keltirib o'tilgan va ularning istiqbolli rejalari tuzilib, yanada takomillashtirilmoqda. Buni yuqoridagilar orqali ham bilib olish mumkin. Umuman olganda xalqaro darajadagimi yoki milliy huquqdagimi barcha normalar bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu sohani muhimligini davlatlar tarafidan chiqarilgan hujjatlar ham isboti hisoblanadi. Kelgusida bolalarga nisbatan zo'ravonlik va shavqatsizliklar deyarli kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mo'minov Abdulxay Rashidovich, Tillabayev Mirzatillo Alisherovich “Bola huquqlari” darslik
https://sg.docworkspace.com/d/sIF_uxt-3AZTw1LwG
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt
<https://lex.uz/docs/-2640479>
4. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt
<https://lex.uz/docs/-2686000>
5. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya
<https://lex.uz/docs/2595909>
6. konstitutsiya <https://lex.uz/docs/-6445145>
7. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/uz/docs/-1297315>

²¹ Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/uz/docs/-1297315>

IQLIM O'ZGARISHI HAQIQIY TAHDIDMI?!

Qilichova Madina A'zam qizi

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 11-maktab

o'quvchisi

Sir emaski, global muammolardan biri iqlimda yuz beradigan o'zgarishlar: issiq to'liqlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlarning tez-tez sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, joriy yilda bu jarayon juda ham ko'paydi va bugungi kunning global muammolardan biriga aylandi. Jumladan, gazlar, iqlimga zarar yetkazuvchi moddalar, oltingugurt dioksidi kabi havoni ifloslantiruvchi moddalarning har xil turlari tufayli havo ifloslanmoqda. Bu esa odamlarning kasalliklarga chalinishi ayniqsa, ularda allergiya paydo bo'lishi va hatto o'limga olib kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi ozon qatlamining yemirilishiga olib keladi va yer sharining litosfera, gidrosfera qatlamlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatan, nafas olish yo'llari, teri zararlanishi kabi havo kasalliklari bilan bog'liq bo'lib bu holat bir qator kasalliklar uchun muhim xavf omilidir. Mavjud muammo borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida olib qaralganda havo ifloslanishi darajasi jihatidan Toshkent shahri 1-o'rinda turadi. Buning asosiy sabablaridan biri, Toshkentda juda ham ko'p tirbandlik, samolyot qatnovi, oxirgi 2024 -yil fevral oylarida ob-havo sharoiti, qor yog'ish paytida ko'chalarda tuproqli aralashmalar sepilganligi natijasida havo ifloslanishi ortgan, bu esa insoniyat hayotiga eng katta tahdiddir. Shu jumladan, isish va sovush kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Arktikada dengiz muzlari misli ko'rilmagan darjada har o'n yilda 12 % dan ko'proq eriyotgani barchani xavotirga solmoqda. Bu, asosan, Arktikada haroratning isishi, dengiz oqimlarining yo'nalishini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuningdek, bunday vaziyat butun dunyo bo'ylab ekstremel ob-havo sharoitini yuzaga keltiradi. Masalan, Suv toshqinlarini olsak, bu iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy jihatdan ham katta muammolarni keltirib chiqaradi va insoniyatga ham zarar keltiradi shu jumladan Qozog'istonda suv toshqinlari tufayli 75mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilindi. Bundan tashqari, insonlar suvga tashlaydigan chiqindilari katta qismi okeanlarga to'planadi. Yillar davomida suzib yuradigan ko'plab axlat tabiatni zararlaydi. Nafaqat tabiatlar balki yanada tunets yoki boshqa turdagi baliqlargacha yetib boradi. Plastmassa chiqindi tarkibida karsinogenlar, yani saraton kasalligini qo'zg'atuvchi moddalar bor. Bular baliq organizmiga singib zararlanishiga olib keladi. Shu oqibatida, havzalar, plyajlar

ifloslanish kuzatiladi. Okeandagi chiqindilar katta qismi parchalangani yoki cho‘kib ketgani tufayli ko‘zga ko‘rinmaydi. Yanada yomon bo‘lib ketmasligi uchun hozirdan bularning oldini olish, ko‘plab daraxtzorlar, yashilliklarni ko‘paytirish, ekologik tejamkor transport turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, zavod, fabrikalar aholi yashaydigan hududdan chetda bo‘lishi lozim. Kimyoviy chiqindilar ko‘p chiqmasligi uchun, kimyoviy zaharli moddalarni ishlab chiqarishdan kamroq foydalanish zarurdir. O‘ylaymanki, iqlim o‘zgarishi muammolariga qarshi kurashish uchun har bir inson o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Bu borada tabiatda zarar yetkazmaydigan omillardan foydalanish muhimdir. Asosan, ko‘plab davlatlarga va shu jumladan O‘zbekistonga ham mashinasiz haftasiga 1 kun e‘lon qilinishi kerak chunki bu sanoat tomonidan chiqariladigan ifloslanish miqdorini kamaytiradi. Bu esa havo sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishlari va atrof-muhitni himoya qilish uchun yaxshi chora hisoblanadi.

IMPLEMENTATION OF GAMIFICATION TECHNIQUES FOR ENHANCING LANGUAGE SKILLS

Iqbol Isroil qizi Rakhmatova

*3rd –year-Student of Tourism faculty,
Chirchik state pedagogical university*

Abstract: *In recent years, in the field of education, great attention has been paid to the search for innovative methods to actively involve students in classes and increase their motivation to learn. One particularly effective approach to language learning is gamification, which involves incorporating game elements into the learning process. This approach not only increases students’ interest in learning, but also helps reinforce knowledge and makes lessons more fun and enjoyable. Gamification uses various game mechanics—such as points, rewards, rankings, and challenges—to encourage participation. creates a dynamic learning environment that encourages and fosters a sense of achievement. The main benefits of gamification include increasing motivation, encouraging student engagement, and facilitating the learning process through play. By turning traditional learning into an interactive experience, gamification can significantly increase students’ willingness to participate in the learning process and invest in their own knowledge. ‘aimed at learning, specifically focusing on listening,*

speaking and improving vocabulary. The study includes a comparative analysis of an experimental group and a control group using traditional educational methods. The results show a significant improvement in all assessed language skills of students through the use of gamification techniques.

Key words: *Gamification, dynamic learning environment, interactive games, digital platforms, monitoring progress, rewarding progress*

Introduction: In recent years, new methods have been developed in the field of education to actively involve students in classes and increase their motivation. One of the effective methods in language learning is gamification. Gamification is the introduction of game elements into the educational process, which increases students' interest in learning, helps to consolidate knowledge and makes lessons more interesting. The main advantages of gamification include increasing motivation, student activation and facilitating the learning process through games. In the 21st century, innovative approaches in the educational process, including gamification, play an important role in making the learning process of students more effective. As the famous educational expert, Professor *Karl D. Poppers* said, The learning process should be interesting and interactive, not just acquiring knowledge.²² This idea shows how important gamification methods are in the educational process. Another teacher and educational innovator, Dr. Mann says, Students need to develop their knowledge while learning in a fun and interactive environment.²³ Its Khan Academy platform shows students how to improve their knowledge through the use of gamification elements. In particular, the impact of gamification methods aimed at increasing listening, speaking and vocabulary is analyzed. Research shows that student outcomes are significantly improved with gamification, but more research is needed to fully understand the potential and limitations of this method. It is important to increase their interest in learning and encourage them to actively participate. This process, in turn, creates new opportunities for the development of students' language skills and makes the educational process more effective.

Methodology

Gamification Techniques - A number of gamification methods were used to develop language skills in the experimental group. These methods are aimed at increasing students' interest in learning, actively engaging them and strengthening language skills. Below is a detailed description of each method:

²² Popper, K. (2005). *The logic of scientific discovery*. Routledge

²³ Mann, B. (2014). *The One World Schoolhouse: Education Reimagined*.

Students played quizzes and vocabulary games using apps like Kahoot and Quizlet. These games allow students to learn in a fun and competitive environment. Through quizzes, students can test their knowledge and see the results in real time. This process helps students to strengthen their vocabulary and grammar skills as they try to answer correctly during the game. And interactive games allow students to interact and learn from each other, which makes the learning process more interesting.

In the method of role-playing games, students described dialogues and situations in English in different roles. This method allows students to simulate real-life situations, which helps them develop their speaking skills. Students use the language in a practical way by interacting, sharing ideas and role-playing. Role-playing games allow students to express themselves freely, learn new words and better understand the language. This process increases students' self-confidence and encourages them to actively participate.

Digital platforms like Duolingo and Quizlet have helped students improve their knowledge. These apps allow students to review material they have worked on and learn new words. Through digital platforms, students can control their learning process, identify their strengths and weaknesses. These platforms allow students to learn and consolidate their knowledge on time, and also develop students' self-assessment skills.²⁴ Students were awarded points for winning games, and successful students were rewarded. This method increased competition and motivation among students. Students were able to track their progress and compare it with others, which increased their interest in learning. Rewards, such as small gifts or extra time after class, helped motivate students. B.F. Skinner said: Learning through games plays an important role in increasing students' motivation. He showed a clear example. This process encourages students to compete with each other and further develop their knowledge.²⁵

In the control group, traditional methods were used, i.e. lessons taught by the teacher, grammar exercises and listening tests. These methods can help students develop language skills, but they can reduce students' interest because they are presented in a more monotonous and rigid manner. Traditional methods limit the active participation of students and can make the learning process difficult, which further demonstrates the advantages of gamification methods. Several methods were used to collect data during the research. Tests and questionnaires were developed to assess students' language skills.

²⁴ Lee, J. J., & Hammer, J. (2011). Gamification in education: What, how, why bother?. *Academic exchange quarterly*, 15(2), 146.

²⁵ Skinner, B. F. (1965). *Science and human behavior* (No. 92904). Simon and Schuster.

Tests - Pre- and post-tests were administered to assess students' listening, speaking, and vocabulary skills.

- *Listening skills* - students were presented with audio materials to assess their listening skills. They had to listen to these materials and answer the given questions. This test aims to measure students' listening skills, comprehension and ability to extract important information.

- *Speaking skills* - individual interviews were conducted with students to assess their speaking skills. They had to express their opinions on given topics and answer questions. This process helped to assess students' ability to use the language in practice, to express their thoughts clearly and fluently.

- *Vocabulary skills* - to assess vocabulary skills, students were given tests related to words and their meanings. These tests are aimed at measuring students' level of learning new words and their ability to use them in context. Also, questionnaires were filled out to students to find out their opinions about teaching methods. These questionnaires helped to study students' attitudes towards gamification methods, their level of interest and their experiences in the learning process.

The SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) program was used to analyze the research results. SPSS is a statistical analysis program widely used in social sciences, psychology, education, economics, and other fields, which allow you to analyze data, perform statistical calculations, and visualize results. This program provides a user-friendly interface and powerful statistical functions for students, researchers and professionals.

Paired t-tests - data obtained were analyzed using paired t-tests. These tests help identify differences between the two groups. Paired t-tests were used to compare students' pre-test and post-test results.

Results

The results of the study show changes in the language skills of the experimental and control groups. These results demonstrate the effectiveness of gamification methods in developing listening, speaking and vocabulary skills.

Listening skills - In the experimental group, there was a 25% improvement in listening skills. In the initial test, the average score of the group was 60%, which reflects the initial level of students' listening ability. In the next test, the average scores increased to 85%, which shows the impact of gamification methods on improving listening. Students were actively involved in developing their listening skills through games and interactive exercises, which increased their focus and comprehension. In the control group, only an 8% increase was observed, with these results increasing from 62% to 70%. This difference shows the

effectiveness of gamification methods even more clearly, since traditional educational methods were used in the control group.

Speaking skills - the increase in speaking skills in the experimental group was 17%. Students facilitated speaking through role plays and interactive exercises. As a result, speaking scores increased from 65% to 82%. This increase shows the impact of gamification methods in developing students' expressiveness and communication skills. Students had the opportunity to practice speaking skills by interacting, role-playing and simulating real-life situations. In the control group, only a 7% increase (from 67% to 74%) was observed, which shows the limitations of the learning process through traditional methods.

Vocabulary - a significant increase in vocabulary was also observed in the experimental group. Students showed a 30% improvement, with scores rising from 55% to 85%. This increase demonstrates the effectiveness of gamification methods in improving students' ability to learn new words and use them in context. Students actively participated in the process of learning new words through games and interactive exercises, which helped to expand their vocabulary. A 12% increase (from 58% to 70%) was observed in the control group, which limits the effectiveness of the learning process through traditional methods.

Student feedback - through questionnaires, students expressed their attitude towards gamification methods. 90% of students of the experimental group rated gamification methods as effective and interesting. Students noted that the learning process through games is interesting and interactive. However, some students found the competitive aspect of the games to be challenging, which may cause them to feel stressed or pressured to learn. In the control group, more negative opinions were expressed about traditional methods, because they were presented in a more monotonous and rigid way. Students reported feeling less motivated and less interested in learning during traditional classes. Table-1 provides a clear comparison of the improvements in skills between the experimental and control groups, highlighting the effectiveness of gamification methods.

Skill Area	Experimental Group Improvement	Control Group Improvement	Initial Average Score	Final Average Score
Listening Skills	25%	8%	60%	85%
Speaking Skills	17%	7%	65%	82%
Vocabulary	30%	12%	55%	85%

Student Feedback	90% found it effective	More negative feedback	N/A	N/A
---------------------	------------------------------	------------------------------	-----	-----

Table-1

Discussion

The research results show that gamification methods are effective in language learning. The results confirm that gamification has led to significant improvements in listening, speaking and vocabulary development. These methods increase students' interest in learning, stimulate their activity and facilitate the learning process. Through gamification, students perceive competition in an interesting way, which increases their motivation for the learning process.

Gamification methods make the learning process of students more interesting and interactive. Game elements, such as points, rewards, and competition, help motivate students. Students will have the opportunity to apply their knowledge in practice, which will make their learning process more effective. The same, Combining gamification methods with traditional educational methods helps to make the educational process more effective. Students have the opportunity to interact, exchange ideas and learn from each other through games.²⁶ This process, in turn, helps to develop the social skills of students. The results show that with the help of gamification, students strengthen their knowledge. Through games, students have the opportunity to learn new words, develop listening skills, and express themselves freely in speaking. The fact that this method is interesting and interactive increases the efficiency of students, because they actively participate in the learning process.

At the same time, gamification methods have some disadvantages. Some students found the games too competitive. Competition can, in some cases, cause students to feel stressed or pressured. This, in turn, can make the learning process difficult and reduce student motivation. Some students may not feel comfortable learning through games because they may have difficulty comparing their knowledge with others. In addition, gamification methods are too much for some students. It has become a time-consuming activity. Games and interactive exercises often require more time and attention, which can reduce students' attention to other important tasks. Therefore, combining gamification with traditional methods helps to make the educational process more effective. Traditional methods, such as imparting theoretical knowledge and learning key

²⁶ Skinner, B. F. (1965). Science and human behavior (No. 92904). Simon and Schuster.

concepts, may be necessary and should therefore be used in conjunction with gamification.

Conclusion: The results of this study clearly show the effectiveness of gamification methods in the development of language skills. The significant increases observed in the experimental group reflect how successful students were in improving their listening, speaking and vocabulary through gamification. The obtained results prove the effect of gamification methods in the development of students' language skills and show the necessity of using these methods in the educational process. The feedback of students also confirms that gamification methods are interesting and effective. Students in the experimental group noted that the learning process is interesting and motivating through game elements and interactive exercises. Traditional methods, such as imparting theoretical knowledge and learning key concepts, may be necessary and should therefore be used in conjunction with gamification. In the future, a deeper study of gamification method and their application in various educational institutions will help improve the language learning process of students. Taking into account the individual needs of students helps to further increase the effectiveness of gamification method. In general, this method is effective in language learning and plays an important role in increasing students' motivation and making the learning process interesting. This method, in turn, creates new opportunities for the development of students' language skills and makes the educational process more effective.

References

1. Popper, K. (2005). The logic of scientific discovery. Routledge.
2. Mann, B. (2014). The One World Schoolhouse: Education Reimagined.
3. Dewey, J. (1986, September). Experience and education. In The educational forum (Vol. 50, No. 3, pp. 241-252). Taylor & Francis Group.
4. Skinner, B. F. (1965). Science and human behavior (No. 92904). Simon and Schuster.
5. Kapp, K. M. (2012). What is gamification. The gamification of learning and instruction: game-based methods and strategies for training and education, 1-23.
6. Lee, J. J., & Hammer, J. (2011). Gamification in education: What, how, why bother?. Academic exchange quarterly, 15(2), 146.

MENEJMENT NAZARIYASINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

Jamoliddinova Mohinur Ilhomjon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Menejment yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada menejment nazariyasining bugungi kundagi rivojlanishi va global o'zgarishlarga qanday javob berishi, shu jumladan innovatsiyalar va tezkor moslashuvchanlikning ahamiyati tahlil etiladi. Tashkilotlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan metodlar muhokama qilinadi. Menejment nazariyasini o'rganish va tahlil qilishning ahamiyati, ayniqsa boshqaruv sohasida menejmetning tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatini tahlil qilish bo'yicha ilmiy taqdiqotlar olib borilgan va metodologik jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: menejment, iqtisod, raqobatbardoshlik, samaradorlik, tashkil etish, o'rganish, taraqqiyot, sektor, nazariy, amaliy.

Abstract: This article analyzes the development of management theory today and how it responds to global changes, including the importance of innovation and rapid adaptability. Methods aimed at increasing the efficiency of management of organizations and ensuring competitiveness are discussed. The importance of studying and analyzing the theory of management, especially in the field of management, scientific studies on the analysis of the organizational-economic, social, cultural-educational significance of management have been carried out and studied methodologically.

Key words: management, economy, competitiveness, efficiency, organization, learning, development, sector, theoretical, practical.

Menejment nazariyasi - bu tashkilotlarni samarali boshqarish va rivojlantirish uchun asosiy tamoyil va metodlarni o'rganadigan ilmiy sohadir. Bu nazariya, tashkilotlarning ishlash jarayonlarini yaxshilash va ularni optimallashtirishga qaratilgan turli yondoshuvlarni o'z ichiga oladi. Menejment nazariyasining rivojlanishi vaqt o'tishi bilan o'zgarib borayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir. Menejment nazariyasi va amaliyoti evolyusiyasi turli xil qarashlarda o'z ifodasini topdi. Masalan, XX asrning 50—60-yillarida asosiy e'tibor boshqarishning tashkiliy tuzilishiga qaratilgan bo'lsa, 60—70-yillarda strategik rejalashtirishdan strategik boshqarishga o'tish davri bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib menejment O'zbekistonda tez sur'atlar bilan rivojlandi. 1966-yilda O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Kibernetika institutining tashkil qilinishi, akademik V. K. Qobulov boshchiligida olib borilgan nazariy, uslubiy, amaliy ilmiy tadqiqot ishlari respublikada menejment fanining rivojlanishiga asos bo'ldi. Menejment sohasida birinchi tadqiqotlar sinfiy maktablar tomonidan amalga oshirilgan. Birinchi menejerlarni asosan ishlab chiqarish (texnik yondashuv) masalalari tashvishga solgan. Ular o'z faoliyatlarini ishchilarni moslash masalalariga qaratganlar. Bu maqsadlar uchun ish joyi dizayni ishlab chiqilgan. Turli operatsiyalarga ish vaqti o'rganilgan va hokazo. O'sha davrning ko'pchilik tadqiqotchilari menejment bu san'at deb tasavvur qilgan. Menejmentni bunday tushunishning sababi hamma xodimlar ham o'z o'lchovlari bo'yicha rahbarlik lavozimiga to'g'ri kelmasligidir. Menejmentning nazariyasi va uslubiy asoslari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Uning nazariy va uslubiy asoslarini ko'rib chiqish, faoliyat ko'rsatish mexanizmining xususiyatlarini tushunishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, boshqaruv maqsadlarini aniqlash, boshqaruv faoliyati mantiqini tushunish bo'yicha ko'rsatmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi. Ma'lumki har qanday faoliyat turi Menejment asosida quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish,

shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish choratadbirlari Menejment jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi. Bunda boshqaruvga iqtisodiyotda mavjud tizim ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidanoq iqtisodiyot boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqaruv borasida ularning xususiyatiga mos keladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga kelishiga qaratilgan edi va bu menejmentda yangi bir tizim vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bunday bozor munosabatlari sharoitida butun jamiyatga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv ilmini o'rganishda, iqtisodiyotning barcha butun tarmoqlarida boshqaruvni amalga oshira oladigan malakali rahbarlarni tayyorlashda "Menejment nazariyasi" fani muhim o'rin tutadi.

Menejment tushunchasi tor ma'noda biror- bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarini foyda keltirishi, samara berishi qanchalik faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayon borishiga bog'liq bo'ladi. Menejment keng ma'noli tushuncha sifatida jahondagi menejment va uni tashkil etishning nazariyotchilaridan biri Piter F. Druker aytganidek, "Menejment alohida faoliyat turi bo'lib, tashkil etilmagan betartib ommani bir maqsadga yo'naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi element hisoblanadi". Menejment nafaqat korxona doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o'z tanlagan yo'li, maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi. Menejment ma'lum turdagi tizim bo'lib, uning samarali ishlashi tizimning har bir elementi tomonidan muayyan funksiyani bajarishi bilan ta'minlanadi. Bunda o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar yoki tuzilmalar tizimi sifatida menejment haqida ko'proq yoki kamroq adekvat g'oyani shakllantirish muhimdir. Boshqaruv jarayonining tarkibiy qismlari orasida ko'pincha qonuniyatlar, boshqaruv tamoyillari, usullari, mexanizmlari, funksiyalari va boshqalar ajralib turadi.

Menejment nazariyasining asoschilari Teylor, Ford, Gilbert, Emerson, Fayol va boshqalardir. Menejment nazariyasining tarixan dastlabki yo'nalishi «klassik» (an'anaviy) maktab nomini olgan. Bu maktabning vujudga kelishida amerikalik muhandis va tadqiqotchi Frederik Teylorning xizmati katta. Teylor xizmat pog'onasining barcha darajalarini AQShdagi Bestlegemdagi yirik metallurgiya korxonasining kichik xizmatchisidan boshqaruvchisigacha bo'lgan lavozimlarni egallagan. U birinchilar qatorida ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarini tashkil etish hamda butun korxonani boshqarishga ilmiy yondoshishni qo'lladi. Uning «Korxonani ilmiy boshqarish asoslari», «Menejmentni ilmiy tashkil etishning tamoyil va usullari», «Sanoat korxonalarini m a'muriy-texnikaviy tashkil etish» kabi mashhur asarlari xorijda chop etilgan ishlab chiqarishni boshqarishni ilmiy tashkil etish bo'yicha adabiyotlarning katta to'plamiga asos soldi. Teylor mehnat jarayonlarini maxsus funksional boshqarish zarurligini asoslab berdi, jismoniy mehnat bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etishni tarkibiy unsurlarga ajratib ko'rsatishga harakat qilgan holda ishlangan sxemada o'lda-jo'lda, pala-partish ishlash mumkin emasligi, har bir narsa oldindan qilingan, ishning barcha shartlari va usullari oldida aniq, belgilangan bo'lishi aks ettirilgan. Menejment asosida jamoa qonun tizimlari yotadi. Iqtisodiyotni boshqaruv tizimida iqtisodiy qonunlar muhim rol o'ynaydi. Menejment asosiy tamoyillari bo'lib: yakkahokimlik va kollegiyal, ilmiylik,

rejalashtirish, boshqaruv usullari va tizimlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni rejalashtirish -menejmentning asosiy funksiyalaridan biridir. Strategik va innovatsion boshqaruv zamonaviy menejmentni rivojlanishi uchun asosiy yo'nalish hisoblanadi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat boshqaruv shakli asosiylardan biridir. Menejmentga birinchi qiziqish 1911-yilda kuzatilgan. Xuddi o'sha paytda Frederik U. Teylor o'zining an'anaviy ravishda menejmentni ilm va tadqiqotning mustaqil sohasi deb tan olinishining boshlanishi deb hisoblangan "Ilmiy boshqaruvning tamoyillari" degan kitobini nashr etdi. Albatta, tashkilot maqsadlariga unumli ravishda erishish uchun uni tizimlashtirilgan holda boshqarish tushunchasi darhol paydo bo'lmagan. Bu konsepsiya uzoq muddat mobaynida, XIX asrning o'rtalaridan boshlab asrimizning 20-yillarigacha rivojlanib kelgan. Menejmentga dastlabki qiziqishning asosiy kuchi Angliyada boshlangan sanoat revolyutsiyasi sababchi bo'lgan. Ammo boshqaruvning o'zi tashkilot rivojlanishi va muvaffaqiyatiga jiddiy hissa qo'shadi degan g'oya ilk bor Amerikada paydo bo'ldi.

Menejment insonlarni ongli mehnatga, tadbirkorlikka qiziqtirish, ishga mas' uliyatliligini nazorat qilish, ularni bilim va ko'nikmalarini faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash, rag'batlantirishni tashkil etishdir. Bu fanning predmeti ham xo'jalik yuritishning barcha bo'g'inlarida menejmentni tashkil etish shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tamoyillari majmuidan iborat. Boshqaruv usullarini puxta egallagan, qo'llay biladigan rahbar shu faoliyatni samarali boshqarishi nafaqat ishlab chiqarishda, qolaversa, butun iqtisodiyotni rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Menejer - bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassisdir. Menejer bu - yollanma boshqaruvchi bo'lib, alohida ijtimoiy qatlamga mansub bo'ladi. Kompaniya, firma, korxona, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchilar menejerlar deb yuritiladi.

Menejerlar boshqaruv pog'onasiga binoan uch toifaga bo'linadi:

- Yuqori pog'ona menejerlari.
- O'rta pog'ona menejerlari.
- Quyi pog'ona menejerlari.

Yuqori pog'ona menejerlari firma istiqbolini belgilash, uning kelajagi uchun ahamiyatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bir so'z bilan aytganda firma rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

O'rta pog'ona menejerlari firma faoliyatining ayrim tomonlarini, chunonchi, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni o'zlashtirish, texnologiyani qo'llash, mehnatni tashkil etish kabilarni boshqarish bilan shug'ullanadi.

Quyi pog'onali menejerlar quyi bo'g'inda, masalan, sex, bo'lim, brigada doirasida ishni tashkil etish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi.

To'g'ri, korxonani boshqarish bevosita mulk egasining vazifasi deyishimiz mumkin. Ammo boshqarish uchun mulk egasi bo'lish shart emas. Shu xususdan orkestrni boshqaruvchi dirijyor musiqa asboblarning egasi bo'lmasa ham o'z ishini qilaverishi o'rinli. Boshqarish vazifasini korxona egasining o'zi yoki yollangan, ammo mulkdor nomidan ish qiluvchi menejer bajaradi.

Iqtisodiy aloqalar murakkablashgan sari menejer xizmatiga talab oshadi, o'z ishining ustasi bo'lgan maxsus ijtimoiy toifa - menejerlar toifasi paydo bo'ldiki, uning alohida ijtimoiy maqomi bor. Menejer g'oyat murakkab, o'ta mas'uliyatli ish bilan shug'ullanishi, firmaning hayot-momotiga javobgar bo'lganligi uchun ham yollanib ishlovchilar orasida eng katta xizmat haqi oladi. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotini menejmentning iqtisodiy usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Menejmentning iqtisodiy usullari kishilarga iqtisodiy manfaatlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ular manfaati bo'lishini ta'minlovchi iqtisodiy sharoit yaratishdan iboratdir. Menejment usullari tizimida iqtisodiy usullaryetakchi o'rinni egallaydi. Menejmentda huquqiy me'yorlar davlat-huquqiy va tashkiliy-huquqiy me'yoriy hujjatlarda aks etadi. Uning jumlasiga davlat korxonasi to'g'risida qonun, tadbirkorlik haqida, mulk to'g'risida qonunlar kiradi. Lekin qonunlar har bir korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga ololmaydi. Shu sababli, har bir korxona, qonunga asoslangan holda, korxonada ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi me'yoriy qoidalar o'rnatiladi. Iqtisodiy me'yorlar korxona faoliyati jarayonida erishilishi lozim bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilaydi. Ular jumlasiga moliya-kredit me'yorlari, ssudalar olish tartibi, amortizasiya me'yorlari, mahsulotning hisoblangan bahosi, foyda me'yori, rentabellik me'yori, fondlar uchun to'lovlar, budjetga to'lovlar, iqtisodiy rag'batlantirish me'yorlari kiradi.

Tashkiliy me'yorlar tashkilot tarkibini, alohida bo'linma va shaxslar faoliyati tarkibi va tartibini ichki tartib faoliyat turlarini, xodimlar vazifalarini, axborotni qayta ishlash va foydalanish jarayonini belgilaydi. Texnikaviy me'yorlar korxonaning va uning bo'linmalarining boshqaruv uchun zarur uskuna, texnika va transport vositalari, asboblarning bilan qurollanganlik darajasini bildiradi. Menejment nazariyasi o'z vaqtida tashkilotlarning samarali boshqarilishi uchun zarur bo'lgan bilimlar va metodlarni taqdim etdi. U tarixan rivojlanib, turli davrlarda iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga qarab yangi tamoyillar va uslublarni ishlab chiqdi. Bugungi kunda menejment nazariyasining asosiy maqsadi, tashkilotlarni samarali boshqarish, ularga yangiliklarni joriy etish va muammolarni tezda hal qilishga

qaratilgan. Menejment nazariyasining rivojlanishi, shuningdek, biznes muhitining o'zgaruvchanligi va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.S. Qosimova. Menejment nazariyasi. Darslik. - Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni». 2011. 336-bet.
2. M.B.Bekmuradov., X.X.Shodiyev. "Menejment nazariyasi va amaliyoti". Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - 2021 y. "Zamon poligraf" OK nashriyoti. 272 b.
3. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma) Akademiya Toshkent 2006

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLAR

Sulaymonova Shabona Sirojqizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion o'qitish metodlari va ta'lim sifatini rivojlantirish usullarini qamrab olgan. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv axborot texnologiyalari, turlicha yondashuvlar va motivatsion usullarning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada ushbu yondashuvlarning afzalliklari, ta'siri va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'z: Innovatsion texnologiyalar, kreativlik, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, statistika, IELTS, TOFEL.

Kirish

Zamonaviy davrda ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar va axborot tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lmoqda. Pedagogika yangicha va zamonaviy yondashuvlarga muhtoj chunki, an'anaviy o'qitish usullari hozirgi texnologiyalar

jamiyat ehtiyojlariga mos kelganligi sababli zaruriyat sezmoqda. Innovatsion pedagogik metodlar faqatgina bilimni samarali yetkazib berish yoki darslarni qiziqarli olib borilishini ta'minlab qolmaygina, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativlik, tanqidiy fikrlash va o'ziga bo'lgan ishonch qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Pedagogik lug'atda «ta'lim» tushunchasining izohi «tizimlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi, insonni hayotga tayyorlashning sharti» deb bayon etiladi. «Ta'lim – bu shaxsni madaniyatga o'rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo'naltirilganlikni egallashi jarayonidir». Ta'lim mazmunini yangilash, sifat ko'rsatkichlarini oshirish va bu jabhada yutuqlarga erishishni o'qituvchilarning malakasini oshirgan holda yoki raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari interfaol usullardan unumli foydalanish, vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi o'quv o'rinlarini yaratish orqali ham kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin bo'ladi. Zamonaviy ta'lim metodikasi - o'qitish jarayonini samarali, inkreativ va ijodiy qilishga qaratilgan yondashuvlar majmuasidir. Zamonaviy o'qitish metodlarining asosiy tamoyillari:

1. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim - bunda o'qituvchi markaziy shaxs emas, balkim tavsiyalar, maslahatlar berib boradigan shaxs va talaba esa o'z ustida ishlaydigan, mustaqil izlashga harakat qiladigan shaxs sifatida olib boriladi.
2. Muammoli ta'lim - talabalarga yoki o'quvchilarga muammoli yechish topshiriqlari beriladi, bu esa ularda analitik tafakkur rivojlanishini yaratadi.
3. Interfaol o'qitish - bu jarayonda talabalar o'zaro fikr almashadi va muloqotga asoslangan bo'ladi.
4. Amaliyotga asoslangan ta'lim - nazariy bilimdan ko'ra amaliy mashg'ulotlar ko'proq olib boriladi va bu metodika ham Juda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy o'qitish metodikasining ijobiy tomonlari:

1. Texnologik rivojlanishga moslashadi va raqamli vositalardan foydalanish malakasini oshiradi.
2. Muloqot almashish, o'z fikrini to'liq ayta olish qobiliyatlarini kuchaytiradi.
3. Amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi.
4. Yangicha yondashuvlar va innovatsion g'oyalarni yaratishda ko'maklashadi.
5. Talabaning faolligini oshiradi - ular bilimni passiv shaklda emas, balkim faol o'zlashtiradi. "Zamonaviy o'qitish metodikasi ta'lim jarayonini interfaol, muammoli va amaliy yondashuvlar orqali samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, u talabalar faolligini oshirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi" [1].

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimlari samaradorligini baholashda turli xalqaro reytinglar va tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur va AQSh kabi davlatlar yetakchi o'rinlarni egallaydi. Masalan, PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash dasturlarida ushbu davlatlarning o'quvchilari yuqori natijalarga erishib kelmoqda [2]. Finlandiya ta'lim tizimi, masalan, ko'plab o'quvchilarning muvaffaqiyatiga erishganini ko'rsatdi. Bu davlatning ta'lim tizimi o'qituvchilarning yuqori malakasi, talabalarga individual yondashuvi va o'qitish metodlarining sifatiga asoslanadi. Yaponiya va Janubiy Koreya ham o'zlarining intizom va bilimga katta e'tibor qaratishi bilan tanilgan. Singapur esa yuqori samarali ta'lim tizimi bilan mashhur bo'lib, o'quvchilarni yuqori darajadagi akademik ko'nikmalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullarini qo'llaydi. AQSh esa dunyoning eng yirik va xilma-xil ta'lim tizimlariga ega bo'lib, ko'plab maktablar va universitetlar yuqori reytinglarda turadi. Bu davlatlarning ta'lim tizimlarining muvaffaqiyati ko'plab ilmiy izlanishlar va baholashlar orqali ta'kidlangan va ular o'qitishning global standartlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida yetakchi o'rinlarni egallashi uchun bir nechta muhim yo'nalishlarda islohotlar va takomillashtirishlarni amalga oshirishi zarur. Bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim tizimi o'qituvchilarga yuqori malaka va doimiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishi kerak. O'qituvchilarni yangilangan pedagogik metodlar va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, shuningdek, ularni ilmiy va amaliy jihatdan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash lozim.

2. O'zbekiston ta'lim tizimi o'quvchilarga keng qamrovli bilimlar va ko'nikmalarni berishi kerak. Bu, ta'lim dasturlarining global talablar va standartlarga mos kelishini ta'minlashni anglatadi. O'quvchilarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni o'rgatish zarur.

3. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarini faol qo'llash, shuningdek, ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarga global maydonda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

4. O'quvchilarga nafaqat akademik, balki jismoniy va madaniy rivojlanish uchun ham keng imkoniyatlar yaratish kerak. Sport, san'at, ilmiy tadqiqotlar va

volontyorlik faoliyatlari orqali ularning jamiyatga nisbatan mas’uliyatini oshirish lozim.

5. O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro ta’lim muassasalari bilan ko‘proq hamkorlik o‘rnatishi, talabalar va o‘qituvchilarga xalqaro tajriba almashish imkoniyatlarini yaratishi kerak. Bu mamlakatni ta’lim sohasida yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Maktablar va oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar, o‘quv uslublari va inshootlar bilan ta’minlash zarur. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish muhimdir.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini shakllantirishda ilg‘or texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Masofadan o‘qitish usullari zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam bermoqda. Hozirgi sharoitda dunyoning istalgan burchagidan turib, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali bilim olish imkoni mavjud. An’anaviy ta’lim o‘z mavqeini saqlab qolgan holda, masofaviy o‘qitish uslublari ham tez sur’atlar bilan ommalashmoqda. Mamlakatimizda ta’lim tizimi globallashtirish jarayoniga moslashtirilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni muhim omillardan biriga aylantirmoqda. Yangi texnologiyalar ta’lim usullarini takomillashtirish, o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish imkonini yaratmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta o‘rin tutadi. AKT turli dasturiy va texnik vositalar yordamida axborotni qayta ishlash imkoniyatini ta’minlaydi. Asosiy tarkibiy qismlaridan biri esa zamonaviy dasturiy ta’minot hamda telekommunikatsiya vositalari orqali ma’lumotlar uzatish imkoniyatidir.

1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunining 1-moddasida ta’lim berish, kasb-hunar o‘rgatish hamda tarbiya jarayonining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Ushbu qonunda ta’limning uzluksizligi, ilmiy asoslanganligi va hayot bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlangan. Hozirgi paytda ta’lim sohasi jadal rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Masofaviy ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi esa o‘quv jarayonining sifatini oshirish va boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin egallaydi[3]. Shu yo‘nalishda mamlakatimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

EF English Proficiency 2024-yil ma’lumotiga ko‘ra; O‘zbekiston dunyo bo‘yicha ingliz tilini o‘rganish foiziga ko‘ra 98-o‘rinni egallagan. Bu ko‘rsatkichlar ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo‘shish orqali yoki onlayn,masofaviy ta'limni rivojlantirish orqali yanada yuqoriroq o‘ringa ega bo‘la oladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali talaba yoshlarda yangicha

orzular, maqsadlar yoki o‘zlari hohlagan kelajaklari uchun sharoit yarata olinadi. Chet tillarini o‘rganishni osonlashtirish uchun bir necha xil ilovalar yaratilmoqda. Misol uchun: Duolingo, Memrise, Babbel kabilar juda samarali va vaqtni, mablag‘ni tejovchi ko‘makchidir.

2012-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi barcha oliy ta’lim muassasalari (OTM) o‘rtasida yagona videokonferensiya ta’lim texnologiyasi amalga oshirildi va hozirgi kunda bu borada elektron ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda OTMlarga yangi imkoniyatlar va istiqbollar ochib berish borasida rejali ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, hududlardagi kadrlar malakasini masofadan boshqarish bunga misol bo‘la oladi. Elektron yoki masofaviy ta’limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo‘llash, balki elektron shakldagi ta’lim manbalari bilan ta’minlashni ko‘zda tutiladi. Elektron va masofaviy texnologiyalari-ta’limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llangan variantlaridir. Elektron ta’lim- avval "Elektron ta’lim" atamasi kompyuter yordamida o‘qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi bugungi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarga muhtoj hisoblanadi chunki bu ta’lim jarayoni an’anaviy tizimdan yaxshiroq natija ko‘rasata oladi. O‘zbekiston ta’lim tizimi bu kabi o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda va bir qancha davlat singari yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Yoshlarimiz zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlardan unumli foydalangan holda yuqori natijalar ko‘rsatib borishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karamatovna M. A. Innovatsion Yondashuvlar Asosida Oliy Ta’lim Jarayoni Sifatini Oshirishning Metodologik Jihatlarini //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 52. – C. 59-64.

2. Tojiyeva M. M. SAMARALI PEDAGOGIK MULOQOTNI TASHKIL ETISH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI MUHIM OMIL //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2024. – T. 11. – C. 71-75.

3. Berdiyeva N. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI BOSHQARUV USULLARI //Nordic_Press. – 2024. – T. 2. – №. 0002.

4. Ruzmetova D. K. LANGUAGE GAMES IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH GRAMMAR //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 372-376.

5. Ruzmetova D. K. CRUCIAL ROLE OF GRAMMAR IN EFFECTIVE COMMUNICATION //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – T. 5. – №. 05. – C. 246-250.

6. Akmalxonov S. F. A. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A VIRTUAL ASSISTANCE TO ENGLISH TEACHERS //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 339-344.

7. Ruzmetova D. K. MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACH ENGLISH GRAMMAR FOR EFL STUDENTS //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1. – C. 405-408.

INSON INTELLEKTI VA KREATIV FIKRLASHNING SIRLI QIRRALARI

Chalayeva Zilola Qo‘yli qizi

*Chirchiq davlat pedagogika Turizm fakulteti
Gid hamrohligi va tarjimonligi faoliyati yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola inson intellekti va kreativ fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi, ularning psixologik asoslari va hayotdagi o‘rni haqida keng tahlil beradi. Maqolada IQ (aqliy koeffitsient), EQ (emotsional intellekt) kabi intellektning turli shakllari va ularning rivojlanish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kreativlikning psixologik mexanizmlari, uning shakllanishi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali metodlari batafsil tushuntiriladi. Intellekt va kreativlikning kuchayishiga to‘siq bo‘ladigan omillar hamda ularni yengish yo‘llari haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Maqola shaxsiy va professional rivojlanish uchun intellektual va ijodiy salohiyatni qanday oshirish mumkinligini o‘rganishga yordam beradi.

Kalit so‘z: Inson intellekti, kreativlik, IQ (aqliy koeffitsient), EQ (emotsional intellekt), shaxsiy rivojlanish, fikrni rivojlantirish, kreativ fikrlash, psixologiya, yaratuvchanlik, intellektual salohiyat, mantiqiy fikrlash, o‘zgartirish va yaratish, o‘ng osti

Abstract: This article provides a broad analysis of the relationship between human intelligence and creative thinking, their psychological foundations and their role in life. The article examines different forms of intelligence, such as IQ (intelligence quotient), EQ (emotional intelligence), and ways of their development. Also, the psychological mechanisms of creativity, its formation and

effective methods of developing creative thinking are explained in detail. Information is also given about the factors that hinder the growth of intelligence and creativity and ways to overcome them. The article helps to learn how to increase intellectual and creative potential for personal and professional development.

Keywords: *Human intelligence, creativity, IQ (intelligence quotient), EQ (emotional intelligence), personal development, thought development, creative thinking, psychology, creativity, intellectual potential, logical thinking, change and create, right under*

Kirish

Inson ongining eng ajoyib va sirli jihatlaridan biri – bu uning intellektual va ijodiy salohiyatidir. Inson intellekti faqat aqliy koeffitsient (IQ) bilan cheklanmaydi, balki emotsional intellekt (EQ) va kreativ fikrlash kabi murakkab va boy jihatlar bilan ham boyitiladi. Bularning barchasi insonning nafaqat o‘zi uchun, balki atrofdagi dunyo bilan muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatish va yangi imkoniyatlarni yaratishda qanday rol o‘ynashini belgilaydi.

IQ – bu odamning mantiqiy fikrlash, masalalarni hal etish va bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati, lekin bu faqat bir tomonlama qarashdir. Hamma insonlar bir xil intellektual salohiyatga ega bo‘lishi mumkin, ammo ular o‘zlarini boshqarish va boshqalar bilan munosabat o‘rnatish uchun boshqa ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak. Bu ko‘nikmalar emotsional intellekt (EQ) orqali rivojlanadi. EQ, o‘z navbatida, hissiyotlarni tushunish va boshqarish, boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Shuning uchun intellektual muvaffaqiyatlarga erishishda faqat mantiqiy fikrlash emas, balki hissiy ong va boshqaruv ham muhim ahamiyatga ega.²⁷

Kreativlik – bu odamning yangi g‘oyalar yaratish, an’anaviy fikrlashdan chiqib ketish va mavjud imkoniyatlarni kengaytirish qobiliyatidir. Bu ijodiy jarayon, insonning yirik yoki kichik yangiliklar kiritish orqali dunyoni yangicha ko‘rish va tushunishga imkon yaratadi. Kreativ fikrlash, odatda, ong osti jarayonlari orqali shakllanadi, chunki ko‘plab innovatsion g‘oyalar va fikrlar bevosita ong osti qismidan kelib chiqadi. Yaratgan har bir yangi g‘oya, fikr yoki yechim insonning ichki ijodiy salohiyatini ko‘rsatadi.

²⁷ Bolta o‘g‘li S. B. SOTSIAL INTELLEKT SHAXS KAMOLOTINI TA’MINLASHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTI //Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 1098-1102.

Intelлект va kreativlikni rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos usullarni talab qiladi. Mantiqiy fikrlashni kuchaytirish uchun bilimlarni kengaytirish, yangi vaziyatlar yuzasidan fikrlash va analitik yondashuvlarni o‘rganish muhimdir. Kreativlikni rivojlantirish esa erkin fikrlash, yangi tajribalar olish, ko‘p kitob o‘qish va boshqa madaniyatlarga ochiq bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Ijodiy fikrlarni rivojlantirishning eng samarali usuli – bu mantiqiy va ijodiy fikrlashni birlashtirishdir.²⁸ Intelлект va kreativlikning sirli qirralarini ochish, nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun jamiyatni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ular birgalikda ishlashga boshlaganda, inson o‘zining cheksiz imkoniyatlarini ochadi. Kichik bir o‘zgarishdan boshlab, inson o‘z hayotini yanada boy va mazmunli qilish yo‘lida katta qadamlar tashlaydi. Insoniyatning eng yuksak yutug‘i – bu uning cheksiz fikrlash va yaratish qobiliyati. Intelлект va kreativlik hayotning turli jabhalarida yuksak natijalarga erishishda bosh omillardan biridir. Ammo ularning to‘liq imkoniyatlarini ochish ko‘pincha ongli harakatlar va amaliy bilimlarni talab qiladi.²⁹

Bugungi zamonaviy jamiyatda, odatda, IQ inson muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Ammo bu yondashuv bir qirrali. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning emotsional intellekti (EQ) hayotiy maqsadlarga erishishda IQ bilan birdek muhim. Masalan, a‘lo darajadagi akademik bilimlarga ega bo‘lish muvaffaqiyat uchun yetarli emas, agar inson boshqalar bilan samarali muloqot qila olmasa yoki hissiyotlarini boshqara olmasa. EQ, insonning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va atrofdagilarning his-tuyg‘ularini anglash qobiliyati, jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatishning kalitidir.

Kreativlik esa inson ongining eng noyob tomonidir. Bu qobiliyat oddiy vaziyatlarga yangicha yondashish, mavjud resurslardan kutilmagan usulda foydalanish va yangilik yaratish bilan o‘z aksini topadi. Kreativlik, odatda, faqat san‘at yoki musiqaga xos deb qaraladi, lekin bu noto‘g‘ri tushuncha. Har bir inson kreativ bo‘lishi mumkin: yangi biznesni boshlash, texnologik yangilik kashf qilish yoki hatto kundalik hayotda muammolarga nostandart yondashish orqali.

Kreativ fikrlashning birinchi qoidasi – bu ochiq va moslashuvchan ong. Ko‘pincha, ijodiy fikrlarning paydo bo‘lishiga ortiqcha qoidalar, tanqidiy fikrlar yoki jamiyat tomonidan o‘rnatilgan cheklovlar to‘sqinlik qiladi. Buning o‘rniga,

²⁸ Rahmiddinova A. D. EMOTSIONAL INTELEKTNING HAYOTDAGI MUVAFFAQIYAT VA PROFESSIONAL SOHADAGI AHAMIYATI //YIL TADQIQOTCHISI-2024. – 2025.

²⁹ Ruzmetova D. K. MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACH ENGLISH GRAMMAR FOR EFL STUDENTS //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1. – C. 405-408.

erkin fikrlash va yangi g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish orqali inson o‘zining ijodiy salohiyatini ochishi mumkin. Shuningdek, kreativlik ko‘pincha ong osti faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, orzular, tasavvur yoki to‘satdan paydo bo‘ladigan ilhom orqali yuzaga chiqadi. Intellectual va kreativ imkoniyatlarni rivojlantirish oson bo‘lmasa-da, u inson hayotini o‘zgartirish qobiliyatiga ega. Masalan, mantiqiy fikrlash uchun turli xil muammolarni hal qilish, matematik masalalar yechish yoki o‘yinlar orqali miyani mashq qilish mumkin. Kreativlik esa turli sohalarida yangi tajribalar olish, san‘atga qiziqish, yozuv yoki boshqa ijodiy faoliyatlar bilan shug‘ullanish orqali rivojlantiriladi. Shuningdek, intellekt va kreativlikning rivojlanishi uchun ijobiy muhitning ahamiyati katta. Innovatsion fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydigan va tanqid qilishdan ko‘ra ilhomlantiradigan atrof-muhit insonning o‘z qobiliyatlarini yanada kengaytirishiga yordam beradi. Bu jarayonda kichik odatlar ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, har kuni yangi bilim olish, kundalik ishlarni yangicha yondashuv bilan bajarish yoki fikrlarni yozib borish intellektual va kreativ salohiyatni sezilarli darajada oshiradi.

Kreativlik va intellektning eng yuksak ko‘rinishi – bu insonning o‘z hayotini ijobiy tomonga o‘zgartira olish qobiliyati. Hayotda uchraydigan muammolar va qiyinchiliklarni imkoniyatga aylantirish, ulardan saboq olish va yangi ufqlarni ochish ijodiy va intellektual fikrlashning ajralmas qismidir. Bugungi dunyoda texnologiyalar va sun‘iy intellekt rivojlanayotgan bir paytda insonning ijodiy qobiliyati yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuterlar va mashinalar mantiqiy muammolarni hal qilishda mukammallikka erishgan bo‘lsa-da, inson ongining kreativlikka asoslangan ilhom manbai hali ham o‘zgarmas qiymatga ega. Demak, shaxsiy rivojlanish uchun intellekt va kreativ fikrlash qobiliyatlarini uyg‘unlashtirish hozirgi zamonda har qachongidan muhimroqdir.

Mashhur psixologlar R.Kettel va J.Xormlar esa intellektni ikki (2) ta tarkibiy qismdan iborat ekanligini takidlaydilar hamda ularning mohiyatini tushuntirib berishga harakat qiladilar:

1. Flyuidlashgan intellekt.
2. Kristallashgan intellekt.³⁰

Flyuidlashgan intellekt inson faoliyatining deyarli xar bir jabhalarida ko‘zga tashlanib, dastavval u ilk bolalik davrida yorqinroq namoyon bo‘ladi, keyinchalik esa asta-sekin inson ruhiyatiga singib boradi. Flyuidlashgan intellekt tarkibi go‘yoki nasldan-naslga meros tariqasida otadi. Kristallashgan intellekt tarkibi esa

³⁰ Rahmonova H. S. K., Ruzmetova D. K. THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL MANAGEMENT FACULTY: A COMPARATIVE STUDY OF DIFFERENT APPROACHES //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1 Part 2. – C. 46-49.

hayot davomida ontogenezda orttirilgan ko'nikmalardan tashkil topadi. Atoqli psixolog J.Gilfordning (1959-yil) intellekt strukturasini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlari ayniqsa qiziqarlidir. Gilford intellektning 120 (bir yuz yigirma) ga yaqin faktor (omili) ni ajratib ko'rsatadi. Gilford o'zining kubik modelida tafakkur olchamlaridan (operatsiyalar: bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergent tafakkur, baholash), mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy; natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim (sistema), o'zgartirish; islohot: qo'llash, tatbiq qilish (kelib chiqqan holda 120 ta o'ziga qobiliyat turlarini ajratib berishga harakat qiladi.³¹

Mazmun bizning biron-bir narsa haqida o'ylashimiz. Operatsiya qanday tarzda o'ylayotganligimiz. Natija bu aqliy harakatlarimiz nimalarga olib keladi, yani aqliy harakatimiz natijasi). Gilford divergent va konvergent tafakkur turlari negizida ijodiy tafakkur yotishini dalillab beradi. Psixologiya fanida intellekt tataqqiyoti muammosi ham juda qiziqarli nazariyalar kelib chiqishiga sabab boldi. Biz quyida ularni ayrimlariga to'xtalib otamiz. Atoqli fransuz psixologik maktab namoyondasi Robining fikricha, inson psixologik jihatdan taraqqiy etish jarayonida u o'zini qurshab turgan barcha obyektlarni ozlashtirib boradi va ular togrisida bazi tasirlar, tasavvurlarni umumlashtirish, deydi. Uning mulohazasiga ko'ra, idrok ko'lamining kengayishi bilimning siljishi, diqqatni bir davrning o'zida bir necha obyektga qarata olishi - inson psixologik taraqqiyotiga olib keladi. Uning taraqqiyotini 3 ta bosqichga ajratadi:

1. **Imitatsiya** (tashqi taqlid)

2. **Identifikatsiya** (o'quvchining bilimlarini o'zida singdirish, unig shaxsiy fazilarlari, xususiyatlarini o'zlashtirib borish)

3. **Refleksiya** (inson o'zini-o'zi anglagan holda bo'lgusi faoliyatini amalga oshirish, muayyan rejalar tuzish, ularni hayot va faoliyatga tatbiq etish.³²

Fikr yoki g'oya – bu aqlimizning ijod faoliyati mahsuli. Aqlimizda turli muammolarning yechimi yoki yangiliklar haqida fikrlar tug'iladi. Fikrlar odatda, biror hayotiy muammo yechimini izlash jarayonida shakllanadi. Biror bir vazifa haqida o'ylaganda yoki biror qiyin vaziyatga tushganda inson fikrlashga majbur bo'ladi. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ajoyib fikr tug'ilishi mumkin. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” so'zidan olingan bo'lib, “yaratish” ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish,

³¹ <https://mv-vatanparvar.uz/366/>

³² Akmalxonov S. F. A. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A VIRTUAL ASSISTANCE TO ENGLISH TEACHERS //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 339-344.

muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zahirida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. Bu o‘quvchilarni noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda inson intellekti va kreativ fikrlash – bu bizning hayotimizni shakllantiruvchi va boyituvchi eng muhim imkoniyatlardir. Intellekt bizga mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmasini beradi, kreativlik esa mavjud sharoitlarda yangi yondashuvlar va echimlarni kashf etish imkonini yaratadi. Ular birgalikda ishlaganda, inson hayotida ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirish qudratiga ega bo‘ladi. Intellekt va kreativlik bir-birini to‘ldiradi. Mantiqiy fikrlash bizga aniq yo‘nalish va aniqlik beradi, ijodiy yondashuv esa o‘ziga xoslik va moslashuvchanlikni ta‘minlaydi. Shuning uchun ularni rivojlantirish nafaqat shaxsiy hayotimizda, balki jamiyat rivojlanishida ham asosiy omil hisoblanadi. Bugungi zamonaviy dunyo tez sur‘atlarda o‘zgarayotgan bir paytda, inson intellektual va ijodiy salohiyatining chegarasiz imkoniyatlariga tayanadi. Sun‘iy intellekt va texnologiyalar insonning oddiy intellektual vazifalarini yengillashtirsa-da, haqiqiy kreativlik va ilhom faqat inson ongi orqali yuzaga chiqadi. Bu shuni anglatadiki, har bir inson o‘zida mavjud bo‘lgan intellekt va kreativ salohiyatni rivojlantirsa, o‘z hayotini nafaqat yaxshilaydi, balki jamiyatga ham beqiyos hissa qo‘shadi. Biroq intellekt va kreativlikni rivojlantirish uchun qat‘iyat, sabr va doimiy mashqlar talab etiladi. Bu jarayon kichik odatlar va muntazam amaliyotlar orqali amalga oshadi: yangi bilim olish, yangicha fikrlashga harakat qilish, ijodkorlik bilan shug‘ullanish va o‘z-o‘zini tahlil qilish. Har bir inson o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish uchun kundalik hayotida ijodiy yondashuvni qo‘llab, yangi yutuqlarga erisha oladi. Hayotning haqiqiy ma‘nosi – bu o‘z imkoniyatlaringizni ochish va ulardan foydalanishdir. Intellekt va kreativlikni uyg‘unlashtirish, hayotni yanada mazmunli, boy va qiziqarli qiladi. Bugun kichik bir qadam tashlash, ertangi katta o‘zgarishlar uchun asos bo‘lishi mumkin. O‘z qobiliyatlaringizni rivojlantirish uchun hech qachon kech emas – bugun boshlang va o‘z kelajagingizni ijodiy va aqlli qarorlar bilan qurib borishni davom eting!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo‘jamatova X. M. IJTIMOIIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘RNI VA AHAMIYATI //Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 390-403.
2. Rahmiddinova A. D. EMOTSIONAL INTELLEKTNING HAYOTDAGI MUVAFFAQIYAT VA PROFESSIONAL SOHADAGI AHAMIYATI //YIL TADQIQOTCHISI-2024. – 2025.
3. Bolta o‘g‘li S. B. SOTSIAL INTELLEKT SHAXS KAMOLOTINI TA’MINLASHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTI //Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 1098-1102.
4. Ulug‘bekovich Q. B. INSON KAPITALI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 576-579.
5. Ruzmetova D. K. MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACH ENGLISH GRAMMAR FOR EFL STUDENTS //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1. – C. 405-408.
6. Akmalxonov S. F. A. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A VIRTUAL ASSISTANCE TO ENGLISH TEACHERS //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 339-344.
7. Rahmonova H. S. K., Ruzmetova D. K. THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL MANAGEMENT FACULTY: A COMPARATIVE STUDY OF DIFFERENT APPROACHES //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1 Part 2. – C. 46-49.
8. <https://mv-vatanparvar.uz/366/>

INKLYUZIV TA’LIMNING ZAMONAVIY MENEJMENTI

Xayrullayeva Dinora

*CHDPU Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika: Surdopedagogika
1-bosqich 24/1-guruh magistranti*

Annotatsiya. *Taqdim etilgan maqola inklyuziv ta’limning aniq maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, uning zamonaviy boshqaruvi va ta’limda inklyuziv ta’limning tutgan o‘rni haqida bayon etadi. Maqolada inklyuziv ta’limning muhim jihatlari va har bir o‘quvchi, talaba uchun yaratuvchi teng huquqli sharoitlari va imkoniyatlari, inklyuziv ta’limga zamonaga mos yangicha yondashuvlar yoritiladi. Har bir o‘rganuvchi maqola orqali qisqa va eng muhim*

ma'lumotlarni o'rganishi mumkin. Sababi ushbu maqola orqali dunyo va O'zbekiston olimlarining eng muhim izlanishlarini o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar. *Inklyuziv ta'lim, zamonaviy menejment, kadrlar malakasi, kvalitatif yondashuv,*

Kirish

Ta'lim berish va olish bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Har bir individga alohida e'tibor berish esa zamonaviy ta'limning eng muhim jihatlardan biridir. Inklyuziv ta'lim – barcha o'quvchilarga teng huquq va imkoniyatlarni yaratish, imkoniyati cheklangan bolalarga kerakli shart-sharoitlarni yaratish maqsadida amalga oshiriladigan tizimdir. Bu ta'lim modeli, ta'lim tizimidagi eng kata muammolarni bartaraf etish va inklyuziv ta'lim qamrab oluvchi o'quvchilarga sifatli ta'limni samarali usllarda berish va barcha turdagi ehtiyojlarini qamrab olish, ularning jismoniy, ma'naviy, psixologik va intellectual farqlarini inobatga olish maqsadida keng qamrovda joriy etilgan. Zamonaviy menejment bilan birgalikda inklyuziv ta'limda amalga oshiriladigan jarayonlarni sifatli va samarali tashkil etish hamda boshqarish maqsadida strategiyalar va tizimlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Bugungi kunda inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun zamonaviy menejmentning o'рни juda muhimdir. U faqatgina ta'limni boshqarishning texnikaviy tomonlarini emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. Bunda muhim bo'lgan asosiy omillar — o'qituvchilarning malakasi, ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va jamiyatning inklyuziv ta'limga bo'lgan yondashuvi hisoblanadi. Barchaga ma'lumki, inklyuziv ta'lim tushunchasi yordamida biz imkoniyatlari odatdagidan tubdan farq qiluvchi jamiyat a'zolariga nisbatan nigohimiz o'zgardi. Ularning haq-huquqlariga nisbatan qo'shimcha vakolatlar yaratildi. Jamiyatda teng huquqli tizimni adolatli qiyofasi shakllantirildi. Yurtimizda bu ishlarning dalili sifatida bir nechta islohatlarni keltirishimiz mumkin. Masalan ta'limda, tibbiyotda, ijtimoiy hayotda imkoniyati cheklanganlar uchun yangi va samarali sharoitlar va yangiliklar kiritildi.

Zamonaviy menejmentning inklyuziv ta'limdagi roli

Zamonaviy menejment inklyuziv ta'limda ikki asosiy jihatni o'z ichiga oladi: boshqaruvni optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash. Har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etish uchun turli metodlar va strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning professional kompetensiyasini oshirishni talab qiladi.

Menejmentning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ta'lim muassasalarida:

1. Tayyorlov kurslari va seminarlar o'tkazish;

2. O‘qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirilishi;
3. O‘quv resurslarining muvofiqligi va moslashuvchanligini ta‘minlash zarur.

Shuningdek, ta‘limning inklyuziv modelini samarali amalga oshirishda jamoaning hamkorligi, ota-onalar va jamiyat bilan o‘zaro aloqalar ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy menejment bu jarayonlarda resurslarni tejash va optimallashtirishni, shuningdek, o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga qarab individual yondashuvni yaratishni ta‘minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta‘limni zamonaviy menejment asosida rivojlantirish, o‘quv jarayonini yanada samarali va barqaror qilish imkonini beradi. Buning uchun ta‘lim tizimida yangi boshqaruv metodlari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va jamiyatni inklyuziv ta‘limga tayyorlash zarur. Faqat shunda har bir o‘quvchining potensialini to‘liq ochish va ularning muvaffaqiyatli ta‘lim olishini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Inklyuziv ta‘lim XXI asrda dunyodagi eng adolatli va mashhur ta‘lim tizimi sifatida keng targ‘ib etildi.[1] Ta‘lim tizimini samarali tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘lim bilan shug‘ullanuvchi pedagog-kadrlarni shakllantirish masalasi qo‘yildi va maxsus pedagogika kabi yo‘nalishlar yaratildi. Ushbu ta‘lim tizimi nafaqat barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga oladi, balki, ijtimoiy hayotda teng huquqli va adolatli tizimni yaratishni maqsad qilgan. Zamonaviy menejment inklyuziv ta‘limda juda muhim rol o‘ynaydi. Bunga asosiy sabab shundan iborat-ki, ta‘lim tizimi o‘zining boshqaruvi bilan rivojlanib botadi. Boshqaruv qanchalar benuqson va talablarga mos bo‘lsa ta‘lim tizimi ham xuddi shu qiyofada ko‘rinadi. Buning uchun zamonaviy boshqaruv usullarini ishga solish zarur hisoblanadi. Bu boshqaruv negizini pedagog-kadrlarning malakasini oshirish, ta‘lim muassasalarining infratuzilmasini yaratish, o‘quvchilarni kerakli sharoitlar bilan ta‘minlash va jamiyatni inklyuziv ta‘lim shart-sharoitlariga moslashtirish kabi masalalar tashkil etadi. Ushbu maqolada inklyuziv ta‘limning muhim jihatlari o‘rganiladi, tahlil qilinadi va samarali boshqaruv usullarining qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda menejmentning o‘rni va zaruriy chora-tadbirlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Inklyuziv ta‘limni zamonaviy menejment asosida yanada samarali va barqaror qilish yo‘llari taqdim etiladi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limning rivojlanishi bo‘yicha ham bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularni izchil o‘rganish davomida bir qator masalalarga guvoh bo‘lamiz. O‘zbekiston olimlari yuqorida muhim masala sifatida e‘tirof etilgan masala yuzasidan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borishmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ta‘lim va pedagogika bo‘yicha ilmiy tadqiqot institutida olib borilgan izlanishlar inklyuziv ta‘limning muhim jihatlari o‘rganishga qaratilgan. Bu haqida

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ma’sullaridan bilib oldik. Ilmiy tadqiqotchi va izlanuvchi G‘.X.Karimova tomonidan olib borilgan tadqiqotda inklyuziv ta’limning o‘ziga xos jihatlari, ahamiyatliligi va o‘quvchilarga ijobiy ta’sirlari tahlil qilingan. Uning fikriga ko‘ra, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun unga mos kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ta’lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash va jamiyatda inklyuziv ta’limga bo‘lgan ijtimoiy talabni rivojlantirish zarur deb hisoblaydi. Uning ilmiy tadqiqotlari inklyuziv ta’limning ijtimoiy va psixologik tomonlarini qamrab oladi va kelajak uchun aniq rejalarni ko‘rsatib bera oladi.[2]

Keyingi tadqiqotchi A.R.Qurbonov inklyuziv ta’limning boshqaruv metodlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borgan.[3] Tadqiqotchi inklyuziv ta’limni tatbiq etishda zamonaviy menejment usullarini qo‘shish zarurligini ta’kidlagan. Uning ishlarida zamonaviy menejment sohasida olib borilgan islohatlar, ularni tizimli yondashuv asosida joriy etish va jamiyatda inklyuziv ta’limga bo‘lgan talabni sifatli ravishda qondirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Uning ilmiy tadqiqot ishlarida, ushbu ta’lim tizimini amalga oshirish uchun zaruriy va muhim ahamiyatga ega omil sifatida pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni tayyorlashda inklyuziv ta’limga xos pedagogik metodlarning muhimligi haqida so‘z yuritilgan.

Yuqoridagi misollar orqali biz o‘zbek olimlarining inklyuziv ta’lim muhitiga qo‘shgan hissasini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Inklyuziv ta’limning zamonaviy menejmenti bilan bog‘liq ilmiy materiallarni tahlil qilish, avvalo, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashishni va ta’limni samarali boshqarish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu masala bo'yicha bir qator muhim tadqiqotlar va ilmiy manbalar mavjud. Birinchi navbatda, inklyuziv ta’limning asosiy maqsadlari hamda tamoyillari bo'yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, Ainscow (2005) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, inklyuziv ta’limning samarali amalga oshishi uchun ta’lim tizimidagi barcha ishtirokchilar, xususan o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligi belgilangan.[4] Tadqiqotda inklyuziv ta’limni amalga oshirishda menejmentning roli va samarali boshqaruv usullari haqida batafsil tahlillar keltirilgan. Bundan tashqari, inklyuziv ta’limni boshqarishga doir samarali usullar haqida bir qator ilmiy tadqiqotlarda ta’lim tizimidagi innovatsion boshqaruv usullari o‘rganilgan. Masalan, Tomlinson (2001) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, ta’lim jarayonini shaxsiy ehtiyojlarga mos keltirishda yangi pedagogik texnologiyalar va menejment usullarini qo‘llashni zarurati ta’kidlangan. Uning fikricha, zamonaviy menejment o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olib, ta’limni yanada samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradi.[5]

Shuningdek, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilarning professional o'sishi katta ahamiyatga ega. Bunday fikr UNESCO tomonidan chiqarilgan hisobotda ham aks etgan.[6] Hisobotda o'qituvchilarning malakasini oshirish va inklyuziv ta'limni amalga oshirishdagi ahamiyati keng qamrovli tarzda tushuntirilgan. Unga ko'ra, inklyuziv ta'limda o'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va o'quvchilarning ehtiyojlariga javob berishda asosiy shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlarda inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim boshqaruvi tizimini yangilash, jamiyatni inklyuziv qadriyatlarga asoslangan tarzda tarbiyalash va ta'lim muassasalarida kerakli infratuzilmani barpo etish zarurligi ta'kidlangan. Bir nechta ilmiy manbalarda, ayniqsa, Rouse va Florian (2012) tomonidan ta'kidlanganidek, inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar, masalan, ta'lim muassasalarining texnik va metodik bazasini rivojlantirish, shuningdek, jamiyatning inklyuziv ta'limga tayyorgarligi kabi jihatlar alohida e'tibordan o'tkaziladi.[7]

Metodologiya.

Inklyuziv ta'limning zamonaviy menejmentini o'rganish davomida tahlil qilish, kuzatish va kognitiv metodlardan foydalanilgan. Ammo, eng asosiy metod sifatida **adabiyotlar tahlili** va **kvalitativ yondashuv** ishlatilgan. Adabiyotlar tahlili orqali inklyuziv ta'lim va menejmentning hozirgi kundagi ahamiyati, muhim ahamiyatliligi, o'ziga xos jihatlari va eng dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlar qo'llanilgan:

1. **Adabiyotlar tahlili:** Ilmiy maqolalar, kitoblar, hisobotlar va konferensiya materiallari tahlil qilindi.

2. **Holat tadqiqoti (Case-study):** Inklyuziv ta'limning zamonaviy boshqaruvini muvaffaqiyatli amalga oshirgan ta'lim muassasalari haqida o'rganishlar olib borildi.

3. **Intervyu:** Ta'lim muassasalarining menejment xodimlari va o'qituvchilar bilan intervyu o'tkazilib, amaliy tajribalar to'plandi.

Intervyu metodi orqali Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim olayotgan talabalar, ish faoliyatini olib borayotgan xodimlarning fikrlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Metod yordamida juda ko'p sonli talabalar inklyuziv ta'lim haqida o'zlarining fikrlarini bildirish imkoniga ega bo'lishdi. Bundan tashqari, metodologiyada sistematik yondashuvdan foydalanilgan bo'lib, bu yerda ta'lim tizimi, uning tarkibiy componentlari (o'qituvchilar, o'quvchilar, boshqaruv strukturalari) o'rtasidagi muloqot va tizimda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilindi.

Natijalar (yangilangan)

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun quyidagi muhim omillarni ta’kidladi:

1. Zamonaviy menejment texnologiyalarining amalga oshirilishi: O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida inklyuziv ta’limni boshqarishda zamonaviy menejment texnologiyalarining ahamiyati ta’kidlanmoqda. Boshqaruvni yangilash, resurslarni samarali taqsimlash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarurligi mavjud.

2. O‘qituvchilarni tayyorlashning muhimligi: G‘. X. Karimova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligini yaxshilash va ularga yangi pedagogik usullarni tanishtirishning ahamiyati ta’kidlangan. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta’limning o‘ziga xos jihatlari, metodik uslublar va maxsus asboblardan bo‘yicha treninglar o‘tishining muhimligi ta’kidlangan.

3. Infratuzilma va resurslar: Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim muassasalarining infratuzilmasini va moddiy-texnik resurslarini rivojlantirish talab etiladi. Bu o‘quvchilarning talablarini hisobga olib, sharoitlarni yaratish va inklyuziv ta’lim uchun muhim asboblardan foydalanishni ta’minlaydi.

4. **Jamiyatning inklyuziv ta’limga tayyorligi:** Jamiyatning inklyuziv ta’limga tayyorligi: Jamiyatning inklyuziv qadriyatlar asosida inklyuziv ta’limni amalga oshirishga tayyorligini oshirish, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish ahamiyatlidir. O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning inklyuziv ta’limga nisbatan munosabatlari va yondashuvlari asosiy ahamiyatga ega.

5. **Zamonaviy menejment usullarining ahamiyati:** Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli boshqarish uchun innovatsion menejment usullari, masalan, individual yondashuv, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quvchilarning farqli ehtiyojlarini hisobga olish kabi usullar samarali bo‘lishi aniqlangan.

6. **O‘qituvchilarni tayyorlash:** O‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim metodlariga tayyorligi, ularning malakalarini oshirish va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim omil bo‘lib chiqdi. Bunday o‘qituvchilar jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni rivojlantirishda asosiy rolni o‘ynaydi.

7. **Jamoaning hamkorligi:** Inklyuziv ta’limda jamoa a’zolarining, shu jumladan, ota-onalar, o‘quvchilar va jamiyatning inklyuziv ta’limga tayyorligi muhim. Ularning o‘zaro hamkorligi va ta’limga bo‘lgan yondashuvlarini yaxshilash orqali inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi ta’minlanadi.

Xulosalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inklyuziv ta’limning zamonaviy menejmenti ta’lim jarayonini yanada samarali qilish uchun muhimdir. Asosiy xulosa sifatida menejmentni modernizatsiya qilish, inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun ta’lim boshqaruvining zamonaviy usullari, innovatsion yondashuvlar va tizimli boshqarish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish, ularga maxsus tayyorgarlik kurslari o‘tkazish, resurslarni samarali taqsimlash, ta’lim tizimida mavjud resurslar, shu jumladan moddiy-texnik, kadrlar va ma’lumotlar bazasini samarali boshqarish va taqsimlash, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda barcha jamoa a’zolari, shu jumladan ota-onalar va jamiyatning o‘zaro hamkorligini oshirish, ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma va sharoitlarni yaratish, o‘quvchilar uchun maxsus resurslar va vositalarni taqdim etish inklyuziv ta’limning zamonaviy menejmentini tashkil etadi desak adashmaymiz. Har bir zamonaviy boshqaruv shakllari kelajakdagi zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Yo‘ldasheva Marg‘iyona Asrorxon qizi. O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI. “Ta’lim siafti yangi O‘zbekiston taraqqiyotini rivojlantirishning eng muhim omili” nomli anjuman to‘plamidan, 879-bet.

[2] Karimova, G. X. *Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va amaliy jihatlar*. Toshkent-(2017). O‘zbekiston Fanlar akademiyasi

[3] Qurbonov, A.R. *Inklyuziv ta’limning boshqaruv metodlari*. (2019) Ta’lim va pedagogika ilmiy tadqiqotlar instituti.

[4] Ainscow, M. *Developing Inclusive Education Systems*. Routledge. (2005).

[5] Tomlinson, C. A. *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. ASCD. (2001).

[6] UNESCO. *Inclusive Education: The Way of the Future*. UNESCO Publishing. UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) (2017). Sayt: <https://www.unesco.org>

[7] Rouse, M., & Florian, L. *Inclusive Education: A Practical Guide to Implementation*. Sage Publications (2012).

Mavzuga doir web-saytlar:

The Inclusive Education Network (Inclusive Education)
<https://www.inclusive-education.com>

Inclusive Education Australia <https://www.inclusiveeducation.edu.au>

**«УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИ ЯНАДА
РИВОЖЛАНТИРИШ УЧУН МЕНИНГ ТАКЛИФИМ»**

Андижон шаҳар «Collegium Humanum»

Varshava Университети

Андижон филиали,

«Мактабни бошқариш ва бошланғич таълим йуналиши»

IP 11-22 гуруҳ, 3- курс талабаси

Кадирова Нилуфар Ганиджановнанинг

“Иктисодиёт асослари»

фанидан тайёрлаган.

«Макола»

Режа:

1. Ривожлантириш буйича ҳаракатлар стратегияси.
2. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш.
3. Мамлакатимизни янада гуллаб яшнаши учун менинг таклифим.

1. * Мамлакатимизда мустақиллик йилларда олиб борилган кенг қоламли ислохотлар натижасида миллий давлатчилигимиз пойдевори муスタҳкамланиб, давлатимиз суверенитети, чегараларимиз дахлсизлиги таъминланди, жамиятимизда тинчлик ва осойишталик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини кучайтириш, қонун устиворлиги, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатларини роёбга чиқариш бойича улкан ишлар амалга оширилди.

* Эски бошқарув тизимидан мутлақо воз кечиб, бозор муносабатларига босқичма – босқич отилгани, пул – кредит сиёсати пухта ойлаб борилгани, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, фермерлик ҳаракати учун йул очиб берилгани макроиктисодий барқарорликни, иктисодиётнинг юқори суръатлар билан ривожланишини таъминлаш, инфляцияни прогноз қорсаткичлари даражасида саклаб қолиш, энг муҳими, халқимизнинг ҳаёт сифати даражасини оширишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга болмоқда.

* Айни вақтда мамлакатимиз босиб отган тараккиёт йулининг чуқур тахлили бугунги кунда жаҳон бозорида қонъюктура узғариб, рақобат тобора кучайиб бораётганини ҳар томонлама ҳисобга олишни, шу асосда давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янги ҳаёт стратегик ёндашув ва тамойилларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни тақазо этмоқда.

2. * Иктисодий мустакилликни кучайтириш ва иктисодий ушш суръатларини саклаб қолиш, етакчи ишлаб чиқариш тармоқларини модернизация ва фаол диверсификация қилиш, молия – банк соҳасини тубдан ислох этиш, хусусий мулк ва тадбиркорликни ҳар томонлама ҳимоя қилиш, ташқи иктисодий алоқаларни янада кенгайтириш, хорижий инвестицияларни фаол жалб этиш, туризм тармоғини самарали ривожлантириш, қишлоқ ҳожалигида таркибий узлаштиришларни амалга ошириш мақсадида иктисодиётни янада ривожлантириш керак деб уйлайман.

* Иш ҳақи, пенсия ва нафақалар миқдорини босқичма – босқич ошириш, аҳоли бандлигини таъминлаш масаласини самарали ҳал этиш, фуқароларни замонавий ва арзон уй – жойлар билан таъминлаш, уй – жой ва коммунал хужалигини, социал инфратузилма объектларини модернизация қилиш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва соғлиқни сақлаш, илм – фан, таълим – тарбия тизимини, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш йулида ижтимоий соҳани ривожлантириш керак.

* Давлатнинг мустақиллиги ва суверенитети мустаҳкамлаш, минтақамизда ҳавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қушничилик муҳитини вужудга келтириш, жаҳон ҳамжамиятида мамлакатимизнинг ижобий ҳалқаро нуфузини мустаҳкамлаш йулида ҳавфсизлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни янада кучайтириш ҳамда чуқур уйланган, узаро манфаатли, амалий ташқи сиёсатни юритиш ва мустаҳкамлаб бориш.

3. * Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон Миллий Телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Матбуот ва Ахборот агентлиги оммавий ахборот воситаларини жалб этган ҳолда, Ўзбекистон мустақил босма оммавий ахборот воситалари ва ахборот агентликларини қўллаб – қувватлаш ва ривожлантириш жамоат фонди, Электрон оммавий ахборот воситалари миллий ассоциацияси, Ўзбекистон Нодавлат ноτιжорат ташкилотлари миллий ассоциацияси билан ҳамкорликда мунтазам амалий ишлар олиб бориш керак.

* Фармоннинг мақсад ва вазифалари, унинг демократик ислохатларни чуқурлаштириш, қучли фуқаролик жамиятини шакллантириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, фуқароларнинг долзарб муаммоларини ҳал этишда давлат органларининг аҳоли билан узаро очик, тугридан – тугри мулоқотларини кучайтириш, аҳоли фаровонлигини ошириш, жамиятда қонун устиворлиги, қонунийлик ва адолатли, мамлакатимизда тинчлик – осойишталик, миллатлараро, фуқаролараро тотувликнинг қарор топишига йуналтирилганлиги оммавий ахборот воситалари орқали амалга оширилиши қўзда тутилган.

* Мамлакатимизнинг ривожлантиришимизнинг устувор йуналишларини амалга ошириш бўйича комиссияларга ривожланган хорижий мамлакатларнинг ижтимоий – иқтисодий, сиёсий ва социал – иқтисодий тараккиёт тажрибасини, зарур бўлганда, халқаро, хорижий давлатлар ва инвеститцияларини жалб қилган ҳолда: «Мамлакатимизни янада гуллаб яшнаши иттифокчилик муносабатларини юксак даражага кутариш қўл кирали ҳамкорликни барча йуналишларида ўз ҳиссамизни қўшиш ва келажагимиз ўчун бор қўл гайратимизни ишга соламиз».

JEYN OSTINNING BADIY USLUBI (“ANDISHA VA G‘URUR” ROMANI TAHLILIDA)

Yorbulova Dilso‘z Shokir qizi

Fan va texnologiya universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyo kitobxonlarining ko‘nglidan joy olishga ulgurgan sevimli adiba Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romani misolida uning ijod mahorati va badiiylik chizgilariga baho beramiz.*

Tayanch so‘zlar: *kompozitsiya, syujet, estetika, ruhiy olam, uslub.*

Badiiy asar o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lmaydi. Uning yaralishi, dunyo yuzini ko‘rish uchun ma‘lum bir sababiyat yoki turtki kerak. Yozuvchi asar yozishga kirishar ekan, o‘zining estetik dunyosiga shung‘iydi. Tal‘at Solihov aytganidek: “Har bir san‘atkorning o‘z mamlakati va shu mamlakatda yashaydigan, istiqomad qiladigan o‘z fuqarolari bo‘ladi”. Bu fikrga professor Bahodir Karim quyidagicha fikr bildiradi: “Shu ma‘noda har bir ijodkorning o‘z ma‘naviy-ruhiy olami, poetik dunyosi, o‘z e‘tiqodiy tayanchlari mavjud”[1, 167]. Haqiqatan ham, ijodkor o‘z hissiy olamini boshqarishga, qalbidagi g‘alayonlarni tartibga solishga kirishar ekan qalam va qog‘ozdan boshqa yaxshi do‘st topolmaydi. 14 yoshida badiiy asarlar yozishni boshlagan Jeyn Ostin ham ijod maydoniga o‘z ruhiyat olamini chizish uchun kirib keldi. Adabiy muhitga erta kirib kelgani unga to‘siq bo‘lmadi, u o‘z asarlari bilan nafaqat Angliya, balki butun dunyo kitob ixlosmandlari qalbidan chuqur joy egalladi. Jeyn sakkiz farzandli oilaning yettinchisi edi. Uning otasi Jorj Ostin cherkov ruhoniysi, onasi Kassandra Ostin esa o‘z zamonasining o‘qimishli ayollaridan edi. Oilasi ma‘rifatli bo‘lgani bois Jeyn bolaligidan kiytobxonlikka qiziqqan. U maktabda qisqa muddat o‘qigan, ammo asosan uyda

o‘qib mustaqil ta’lim olgan. Jeyn adabiy jarayonga hikoyalar va kichik pyesalar orqali kirib keldi. Uning asarlarida o‘z davridagi ijtimoiy qatlamlar, boylik va nikoh mavzulari muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi ijodida ijtimoiy qatlamning tanqidiy tasviri va inson fe’l-atvorini ifodalash birlashtirilgan. Jeyn Ostin butun umrini ijodga bag‘ishladi, o‘z shaxsiy hayotini qurmadi. Uning “Andisha va G‘urur” romani -yilda dunyo yuzini ko‘rdi. Roman rus tilidan Muhabbat Ismoilova tomonidan tarjima qilindi. Ungacha o‘zbek kitobxonlari mashhur romannavisni “Tikuvchining xatosi”, “Ustasi farang o‘g‘rilar hikoyasi”, “Klamping oshpazning yo‘qolishi” kabi bir qator hikoyalari bilan tanir edi. Filologiya fanlari doktori Nusratulla Jumaxo‘jayevning aytishicha: “Jeyn Ostin o‘z asarlarini yozuvchining vazifalari to‘g‘risidagi tasavvurlari va qat’iy prinsiplaridan kelib chiqib, faqat o‘zining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib yozadi” [2, 4]. Adabiyotshunos olimning ushbu ta’rifi o‘zini to‘laqonli oqlaydi deb bo‘lmaydi. Negaki, eng mashhur va tahlil maydoniga tortilyotgan romanlaridan biri “Andisha va g‘urur” shunchaki tajribalardan yoki tasavvurlardan bunyod bo‘lmagan.

Asar birinchi marta 1813-yilda nashr etilgan bo‘lib eng mashhur klassik asarlardan biri hisobalanadi. Roman uch katta bo‘lim va kichik boblardan tashkil topgan. Roman sevgi, g‘urur, andisha va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq tushunchalarni o‘ziga xos voqeliklar bilan aks ettiradi. Romandagi yozuvchining uslubi o‘zgacha u turli tugunlarni yechishni qahramonlarning o‘ziga havola etadi. Asarda bosh qahramonlar: Jeyn, Elezabet, Bingli va Darsi. Ularning xarakteri, bir-biriga munosabatlari juda chalkash qilib tasvirlanadi. Birida andisha, yana birida mag‘rurlik tuyg‘usi o‘z hislarini oshkora aytishga yo‘l qo‘ymaydi. Asar markazida Bennet Elezabet va janob Darsi o‘rtasidagi chigal munosabatlar turadi. Darsi ijtimoiy mavqeyi o‘ziga xos, boy zodagonlardan. U o‘ziga xos mag‘rur xatti-harakatlari bilan Elezabetda noto‘g‘ri tassurotlar qoldiradi. Darsi esa asar davomiyligida o‘z g‘ururini chetga surib muhabbatni tan oladi.

Elizabet aqlli, mustaqil fikrli va o‘z qadr-qimmatini yaxshi biladigan qiz. U jamiyatdagi odatiy nikoh tushunchalariga qarshi chiqib, haqiqiy sevgi va hurmatga asoslangan munosabatlarni muhim deb biladi. Janob Darsi esa boy va obro‘li yigit bo‘lsa-da, ilk uchrashuvda Elizabetga nisbatan mag‘rur va sovuq munosabatda bo‘ladi. Bu esa qizning unda salbiy taassurot qoldirishiga sabab bo‘ladi. Jeyn Ostinning obrazlar tabiati ustida qurgan syujet tizimini bir qator ko‘rib chiqamiz. Vaqt o‘tishi bilan Elizabet va Darsi turli sinovlardan o‘tib, bir-birlarini yaxshiroq tushuna boshlaydilar. Elizabet Darsining aslida saxiy va yaxshi inson ekanligini anglaydi, Darsi esa o‘z g‘ururini yengib, Elizabetga bo‘lgan samimiy sevgisini namoyon etadi. O‘zaro tushunish va o‘zgarish natijasida ular bir-biriga bo‘lgan tuyg‘ularini tan oladilar va roman baxtli yakun

bilan tugaydi. Asar kompozitsiyasi to‘rtta asosiy mavzu doirasida aylanadi. Ularning har birini yozuvchi mukammal tarzda ifodalaydi.

G‘urur va noto‘g‘ri tasavvurlar:

Roman nomidan ham ko‘rinib turibdiki, uning markaziy mavzusi insonlarning g‘ururi va noto‘g‘ri tasavvurlaridir. Darsining g‘ururi va Elizabetning u haqidagi noto‘g‘ri fikrlari dastlab ularning bir-birlarini tushunishlariga halaqit beradi. Ammo asar davomida ular o‘z xatolarini anglab, shaxsiy o‘rish va o‘zgarish orqali bir-birlariga yaqinlashadilar.

Sevgi va ijtimoiy mavqe:

Jeyn Ostin bu romanida sevgi va ijtimoiy holat o‘rtasidagi ziddiyatni yoritib beradi. O‘sha davr Angliya jamiyatida boylik va mavqe nikoh uchun asosiy omil hisoblangan. Biroq, Ostin asar orqali insoniy fazilat va haqiqiy sevgi bularning ustun ekanini ko‘rsatadi.

Ayollarning jamiyatdagi o‘rni:

Roman o‘sha davrdagi ayollar hayotining qiyinchiliklarini ham yoritadi. Bennet oilasining qizlari moliyaviy mustaqillikka ega emaslar va ularning kelajagi yaxshi turmush qurishlariga bog‘liq. Elizabet esa o‘zining aql-zakovati va mustaqil fikrlashi bilan odatiy me‘yorlardan chetga chiqadi va o‘z qadri-qimmatini yuqori qo‘yadi.

O‘zgarish va o‘z-o‘zini anglash:

Asar qahramonlari asosan ichki o‘zgarishlar orqali rivojlanadilar. Darsi o‘z g‘ururini yengib, yanada ochiq va samimiy inson bo‘lishni o‘rganadi, Elizabet esa o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqib, Darsining aslida yaxshi inson ekanligini anglaydi. “Andisha va g‘urur” Jeyn Ostinning eng yaxshi romanlaridan biri bo‘lib, adabiyotda realizm va romantika uyg‘unlashgan eng mukammal asarlardan sanaladi. Uning yumor, kinoya va ijtimoiy tanqid bilan boyitilgan uslubi uni boshqa romantik asarlardan ajratib turadi.

Bu roman zamonaviy adabiyot va kino san‘atiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ko‘plab film va seriallar unga asoslangan holda yaratilgan. Eng mashhur ekranlashtirishlardan biri 2005-yilda suratga olingan bo‘lib, unda Kira Naytli (Elizabet Bennet) va Metyu Makfadyen (janob Darsi) bosh rollarni ijro etishgan. Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romani inson tabiatining murakkab jihatlarini ochib beruvchi, sevgi va hayotiy tanlovlar haqida chuqur fikr yurituvchi asardir. Uning qahramonlari real hayotga yaqin bo‘lib, har bir o‘quvchi ulardan o‘ziga yaqin jihatlarni topishi mumkin. Roman o‘zining jozibali hikoyasi, yaxshi chizilgan qahramonlari, Ostinning istehzo va hazildan mohirona foydalangani uchun ko‘pchilikning olqishiga sazovor bo‘ldi [3, 37]. Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchi o‘ziga xos kinoyali uslubi va jamiyatga tanqidiy nigohi romanning o‘iga xosligini ta‘minlaydi. Bugungi kunda bu asar adabiy va madaniy

jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, inson tabiatining yashirin jihatlarini ochishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nashriyoti. – 2018, 364.
2. Jeyn Ostin. Andisha va g‘urur. Yoshlar matbuoti. – 2023, 335.
3. www.ziyo.uz
4. Jumaboyeva Feruza. “Andisha va g‘urur” Jeyn Ostin. Yangi O‘zbekiston talabalar axborotnomasi. – 2023



Men **Bahrillayeva Sayqaloy Sunnatullo qizi**, 2006-yil, go‘zal Samarqandning Urgut shahrida tavallud topganman. Hozirda 19 yoshli ilmiy izlanuvchi hamda yosh ijodkorman. Adabiyotga bo‘lgan qiziqishim tufayli ko‘plab xalqaro maydonlarda o‘zimning maqolalarim va ijodiy ishlarimni taqdim etib kelmoqdaman.. Boshqa xalqlar va ularning ma‘daniyatini o‘rganishga qiziqishim meni ko‘proq til o‘rganishga undaydi. Hozirda bu borada ham bir nechta til bilish to‘g‘risidagi xalqaro va milliy sertifikatlarga egaman. Biznes sohasiga ham qiziqishimiz sabab, bu sohadagi bilimlarimni o‘zimning kichik shaxsiy brendim orqali qo‘llab, rivojlantirib kelmoqdaman. Bundan tashqari, o‘zimni pedagogik mahoratimni sinash va malakamni oshirish maqsadida yordamchi o‘qituvchi bo‘lib faoliyat yuritmoqdaman. Kelajakda O‘zbekistonning yosh avlodiga o‘rnak bo‘la oladigan darajada yetuk ijodkor bo‘lish mening maqsadim deb bilaman.

**TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKLAR VA YANGI
INTENSIV O'QITISH METODINI TARG'IB QILISH.**

Bugungi globallashuv davrida ta'lim faqat milliy miqyosda emas, balki xalqaro hamkorliklar orqali rivojlanib bormoqda. Ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorliklar tajriba almashish va zamonaviy usullarni joriy qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, yangi intensiv o'qitish metodlari ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada xalqaro hamkorliklarning ahamiyati va intensiv o'qitish usullarini joriy qilishning zamonaviy yondashuvlari haqida so'z yuritamiz.

Xalqaro hamkorliklar ta'lim tizimiga yangi yondashuvlar, resurslar va tajribalarni olib keladi. Masalan, rivojlangan davlatlarning ilg'or ta'lim tizimlari nafaqat O'zbekistonimizning, balki shu kabi davlatlarda ham ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashmoqda. Xususan, o'zaro hamkorlik orqali o'qituvchilar va talabalar tajriba almashib, ilg'or o'qitish usullarini o'rganib, milliy tizimni boyitish imkoniga ega bo'lishmoqda. Xalqaro grantlar va loyihalar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish uchun mablag' va vositalarni ta'minlamoqda. Masalan, Erasmus+ dasturi orqali o'qituvchi va talabalar xorijiy universitetlarda malaka oshirish imkoniyatiga ega va bu ta'limning interaktiv va ko'p qirrali bo'lishini ta'minlaydi. Hamda xalqaro hamkorlik tizimlari o'rtasida muvofiqlik yaratish uchun birlashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish kerak. Masalan, ikki tomonlama sertifikat dasturlarini joriy qilish mumkin. Chet el grandlarini kengaytirish va xalqaro stipendiyalar sonini oshirish ham talabalar va kadrlarni xorijiy universitetlarda malaka oshirishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Qo'shimcha laboratoriyalar va ilmiy tadqiqot va tajribalar uchun markazlarni hamkorlikda yaratish ham amaliy tajriba va malakani oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda faqat nazariy bilim berishning o'zi yetarli emas. Bugungi talablarga javob beradigan zamonaviy intensiv o'qitish metodlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular talabalarning o'zlashtirish qobiliyatini oshiradi. Turli xil loyiha asosida o'qitish, o'yin elementlari ham intensive o'qitish metodining bir qismini tashkil qiladi. Mavzuga doir video roliklar va video qo'llanmalardan foydalanish eslab qolish samaradorligini oshiradi. Bu metodni pedagoglar orasida targ'ib qilib, amalda qo'llash orqali esa ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Buning uchun o'qituvchilar va talabalar o'rtasida turli xil trening va kurslar tashkil qilish kerak. Mavzuni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish kerak. Davlat tomonidan ham turli grandlar va dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash ta'limni yuksak cho'qqilarga olib chiqish uchun xizmat qiladi. Talabalar xalqaro mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shadi. Shuning uchun ham talabalarga

xalqaro miqyosda ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratib berish, xalqaro loyihalarni amalga oshirishda ularga davlat tomonidan qo'shimcha mablag' ajratish davlat iqtisodiyoti va ta'lim sifati uchun ham manfaat keltiradi.

Ushbu takliflarni amalda qo'llash ta'lim sifatini va o'qish samaradorligini oshiradi, xalqaro standartlarga moslashishni tezlashtiradi va kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuvni ta'minlaydi. Xalqaro hamkorlik va intensive metodlarni tatbiq qilish ta'lim tizimining uzoq muddatli rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu jarayon raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan ta'limni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu yondashuv talabalarga ijodiy va ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro hamkorlikdagi laboratoriyalar esa talabalarni mahalliy olimlar bilan birga xalqaro loyihalarda ishtirokini ta'minlaydi. Natijada, ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida tan olinib davlatimiz ravnaqiga hissa qo'shadi.

THE HISTORY AND ROLE OF ENGLISH LANGUAGE IN INTERNATIONAL COMMUNICATION

Valiyeva Zarifa Ibrohim qizi

Student of Chirchik state pedagogical university

Abstract. *English has established itself as a dominant language in international communication, playing a significant role in fostering global connections across various domains, including business, science, education, media, and cultural exchange. This article explores the historical development of the English language and its current applications in global relations. It highlights English's contributions to diplomacy, trade, technological advancement, and cultural understanding. Furthermore, it examines how the growing number of English learners worldwide has amplified its importance as a universal language. The article underscores English's role in bridging cultural and linguistic gaps, facilitating collaboration, and promoting global integration.*

Keywords. *English language, international communication, cultural exchange, business, science and technology, education, diplomacy, global relations*

Abstrakt. *Ingliz tili xalqaro muloqotda dominant til sifatida o'zini namoyon qildi va biznes, fan, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va madaniy almashinuv kabi turli sohalarda global aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu maqola ingliz tilining tarixiy rivojlanishi va uning global munosabatlardagi hozirgi qo'llanilishini o'rganadi. U ingliz tilining diplomatiya, savdo, texnologik taraqqiyot va madaniy tushunishga qo'shgan hissasini ta'kidlaydi. Bundan*

tashqari, u butun dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganuvchilar soni ortib borayotgani uning universal til sifatidagi ahamiyatini qanday oshirganini o'rganadi. Maqolada ingliz tilining madaniy va lingvistik bo'shliqlarni bartaraf etish, hamkorlikni osonlashtirish va global integratsiyani rag'batlantirishdagi roli ta'kidlangan.


Kalit so'zlar. *Ingliz tili, xalqaro muloqot, madaniy almashinuv, biznes, fan va texnologiya, ta'lim, diplomatiya, global aloqalar*

Аннотация. *Английский язык зарекомендовал себя как доминирующий язык в международном общении, играя значительную роль в содействии глобальным связям в различных областях, включая бизнес, науку, образование, средства массовой информации и культурный обмен. В этой статье рассматривается историческое развитие английского языка и его современное применение в международных отношениях. В ней подчеркивается вклад английского языка в дипломатию, торговлю, технологический прогресс и культурное взаимопонимание. Кроме того, в ней рассматривается, как растущее число изучающих английский язык во всем мире усилило его важность как универсального языка. В статье подчеркивается роль английского языка в преодолении культурных и языковых разрывов, содействии сотрудничеству и содействию глобальной интеграции.*

Ключевые слова. *Английский язык, международное общение, культурный обмен, бизнес, наука и технологии, образование, дипломатия, глобальные отношения*

Introduction. In an increasingly interconnected world, language plays a vital role in bridging gaps between cultures, fostering communication, and building international relationships. Among the many languages spoken globally, English has emerged as the most widely used medium for international communication. Its significance extends across numerous domains, including business, science, education, diplomacy, media, and cultural exchange. English is not only the native language of millions but also serves as a second or foreign language for countless others, making it a true global language. This article explores the historical development of the English language, its rise to prominence as an international medium of communication, and its critical role in shaping global relations. By understanding the impact of English on various fields, we gain insight into how this language continues to connect the world and promote mutual understanding.

The history of English language is shown in (picture a).




The history of English language (picture a)[1]

It belongs to the Germanic language family and was developed mainly in England and the British Isles. Today, English is used as an official or primary language of communication in various countries, including the United States, Canada, Australia, New Zealand, and many African and Asian countries. The term "English" is derived from the language of the Angles, one of three Germanic tribes that invaded England in the fifth century. English is the primary language of several countries, including Australia, Canada, New Zealand, the United Kingdom and many of its former colonies, and the United States. It is also a second language in multilingual countries such as India, Singapore, and the Philippines [2]. As more and more people use English, the level of learning this language is increasing. This further emphasizes the role of English in establishing international relations. Here are **the stages of development of the English language**: **Old English** was the language brought to England by Germanic tribes (Angles, Saxons, and Jutes) in the 5th–11th centuries. During this period, English was significantly different from its current form. **Middle English** was influenced by the Norman Conquest of France between the 11th and 15th centuries. As a result, many words were introduced from French and Latin. **Modern English** began to approach the current form of English from the 15th century. In particular, the development of printing in the 16th century and the works of

writers such as Shakespeare helped to develop this language. The importance of English language is very great nowadays. Below are some of its important aspects: 1) English is accepted as an international language of communication in many countries of the world. Representatives of different cultures and nationalities communicate in English. 2) Many international universities, scientific articles, and textbooks are written in English. Being able to communicate in this language helps to expand education and scientific research. 3) The vast majority of content on the Internet is in English. English is also the primary language for modern software, technological devices, and IT-related industries. 4) Opportunities open up for people who know English, such as working in international companies, working with foreign clients, or developing global businesses. 5) Knowing English makes life easier when traveling around the world, as most tourist destinations understand this language. At the same time, you can learn about the life and culture of other people through English-language books, films, and other cultural products. It is no secret that English is important for establishing international relations in any field. The use of this language in developed countries also ensures that the language is studied more widely. And this further increases the importance of using the language. English plays a significant role in international communication, it is a common language used by people from different native language backgrounds to communicate effectively. Here are some key aspects of its role: 1) business and trade; 2) science and technology; 3) education; 4) media and entertainment; 5) tourism; 6) diplomacy and politics; 7) cultural exchange. **The role of English in business and trade.** English is the dominant language in global business, used in multinational corporations, international trade agreements, and global markets. Knowledge of English plays an important role in facilitating communication in international trade and serves as a common ground for businesses, governments and stakeholders around the world. One of the main advantages of English in international trade is its neutrality. This neutrality enhances trust and cooperation between trading partners, as they can negotiate and reach agreements on an equal basis [3]. Business negotiations, emails, and presentations are often conducted in English, even between non-native speakers. **The role of English in science and technology.** A majority of scientific research, academic papers, and technological advancements are published in English, making it essential for researchers and professionals to access global knowledge. Conferences, journals, and patents frequently require English proficiency. English is an international language, and it plays a major role in everything from tourism to business management, as well as in the development of science and technology. Therefore, English is recognized as the main means of communication in the field of science and technology. With

the development of science and technology, an increasing number of students choose to study science and technology in colleges or universities[4]. **The role of English in education.** Many universities worldwide offer programs in English to attract international students. Moreover, English proficiency tests like TOEFL and IELTS are often prerequisites for studying abroad. By learning English, there will not be any problems in communication with people all over the world, and if people learn English from an early age, they will not face many difficulties in the later stages of education. Therefore, it is said that people today should know and learn English so that they will have no challenges to communicate with people all over the world [5]. **The role of English in media and entertainment.** English dominates international media, including movies, TV shows, news, and social media platforms. This allows global audiences to consume content and stay informed about world events. **The role of English in tourism.** English is widely used as a means of communication between tourists and locals, even in countries where it is not an official language. Since English is used by a large part of the world's population, the use of English is essential in developing tourism. **The role of English in diplomacy and politics.** English is used in diplomatic negotiations and treaties. It is one of the official languages of international organizations like the United Nations, NATO, and the World Trade Organization. According to Mirvan Hemaili (2022), English has its own characteristics for international relations and diplomacy. The importance of learning this type of language is undeniable. Diplomats, specialists, and academics in international relations should learn this language, as communication is mandatory in this profession[6]. **The role of English in cultural exchange.** English bridges cultural gaps, enabling people from different countries to share ideas, traditions, and perspectives. The role of the English language in cultural exchange is profound, serving as a bridge that connects people from different cultures and facilitates the exchange of ideas, traditions and values. The English language serves as a bridge that allows different cultures to communicate, learn and grow together. Its role in cultural exchange is important in promoting global understanding and celebrating human diversity. The number of people learning English has been growing over the years, helping to make it easier for people around the world to communicate. Today, out of a population of approximately 7.8 billion people worldwide, 1.35 billion people speak English. However, most of them are not native speakers, with only about 360 million people using English as their first language. A graph (picture b) is given below to show the number of English speakers over time.



The number of English speakers over time (picture b)[7]

Conclusion. English has evolved into a global language that transcends borders, enabling effective communication between people of diverse linguistic and cultural backgrounds. Its historical roots and development have positioned it as a key medium in international relations, business, science, education, and cultural exchange. The widespread learning and use of English have further solidified its importance in fostering global understanding and cooperation. As the world becomes increasingly interconnected, the role of English continues to grow, serving as a vital tool for uniting nations and facilitating progress across multiple fields. Mastery of English has become essential for individuals seeking opportunities in a globalized world, highlighting its indispensable role in shaping the future of international communication and collaboration.

REFERENCES

1. https://triangulations.wordpress.com/wpcontent/uploads/2014/09/history_of_english5.png.
2. Richard N., English Language: History, Definition, and Examples, (July 25, 2024), <https://www.thoughtco.com/what-is-the-english-language-1690652>
3. Chowdhury M., Muhammad A., Gracy H. R., Govindappa S., Amit K., Mili R., Role Of English Language In International Trade And Economic

Development, Volume: 21, No: S7 (2024), pp. 1607-1612, ISSN: 1741-8984 (Print) ISSN: 1741-8992.

4. Yiqun Y., English for Science and Technology: A Project Based Approach, CC BY-NC, Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 176, (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>).

5. Akhyar M., The Importance of English for the Students, https://www.researchgate.net/publication/356842623_The_Importance_of_English_for_the_Students.

6. Mirvan X., The importance of the English language in public diplomacy and international relations, Journal of Liberty and International Affairs, Volume 8 Num.1(2022), eISSN1857-9760, <https://www.doi.org/10.47305/JLIA2281322x>.

7. <https://wordrated.com/wp-content/uploads/2023/12/Number-of-English-speakers-over-time-billions-1024x634.png>

ВЛИЯНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ЦИФРОВИЗАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Динеева Зильфира

*Чирчикский государственный педагогический университет,
студентка 1-курса магистратуры, направления «Теория и методика
начального образования»*

Another significant effect is that professional communication is improved by grammatical correctness. Establishing authority and demonstrating competence in a commercial or academic setting requires using proper grammar when speaking. Here, you instruct, clarify, and operate within the parameters of your position and rank. According to communication specialists, "grammar is not just about rules; it's about making sure what you're saying is understood without confusion" (Biber et al., 2015) [1]. In formal settings, speakers who misuse language could come across as unprepared or unprofessional, which could hurt their chances of succeeding academically or in their employment. This is due to the fact that the information you're attempting to convey may be difficult for others to understand and may result in mistakes or misunderstandings.

DISCUSSION

The results demonstrate how important grammar is to maintaining the effectiveness, consistency, and clarity of spoken English. The article also notes that native speakers may employ contractions or leave out specific grammatical structures for efficiency, indicating a certain amount of grammatical flexibility in informal speech. This is due to the fact that only in these casual settings can we recognize and fix the mistakes that non-native English speakers frequently make. Nonetheless, proper grammar is still necessary for correctness and credibility while speaking in formal contexts [3]. When speaking in professional settings and in circumstances pertaining to your academic degree, we must be mindful of your language and speech mistakes.

The results demonstrate that proper grammar is essential to producing clear, consistent, and efficient spoken English. However, the article also recognizes that informal speech has a certain amount of grammatical flexibility, with native speakers sometimes using contractions or leaving out specific grammatical

structures for efficiency. As Crystal (2018) argues, "Language, and specifically grammar, serves as a tool to position oneself in any social or professional context "[2]. This is because it is only in these casual settings that we are able to recognize and fix the mistakes that are frequently made by non-native English speakers. For accuracy and believability, proper grammar is still crucial while speaking in formal contexts. Grammar and speech mistakes must be taken into consideration when speaking in professional settings and in contexts pertaining to your academic degree.

Moreover, this article highlights the role of cultural influences in spoken grammar. In some cultures, speakers may prioritize fluency and naturalness over strict grammatical accuracy. For example, this may involve using irregular verbs without adverbs or switching tenses. While this may be acceptable in casual settings, it can lead to miscommunication in more formal contexts, particularly in international business or academic discussions. As the world becomes increasingly interconnected, the need for clear and correct spoken English is increasing, making grammar a key factor in achieving effective communication. Speaking without errors can prevent problems and misunderstandings between listeners and speakers.

CONCLUSION: In conclusion, grammar plays an important role in speaking English clearly and effectively in his or her speech. It ensures that the message is conveyed correctly and helps the speaker gain credibility and authority, especially in formal or professional contexts. While perfect grammar is not always necessary for casual conversations, mastering grammatical rules is essential for communicating effectively in a variety of situations. Being able to use tenses appropriately and matching verbs to tenses is considered essential. For English learners, consistently practicing and applying grammar in speech can lead to clarity, confidence, and successful interactions in both personal and professional settings.

REFERENCES

1. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (2015). Longman grammar of spoken and written English. Pearson Education.
2. Crystal, D. (2018). English as a global language (2nd ed.). Cambridge University Press.

IFODA MAZMUNIGA KO'RA MATN TIPLARINING TAHLILI

Meliboyeva Marjona G'ayrat qizi

JDPU talabasi

Email:marjonameliboyeva267@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada asarni lingvo-poetik jihatidan tahlil qilamiz, ya'ni tilshunoslik va adabiyotshunoslikni bir-biriga bog'lagan holda. Asosiy mazvu ifoda mazmuniga ko'ra matn tiplari va ularning tahlili*

Kalitso'zlar: *Mazmun, tasviriy, matn, asar, hayotiy, tahlil, ifoda, tilshunoslik, hiko*
a

Matn tiplarini tahlil qilish – tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til birliklarining mazmun jihatidan tasniflanishi, shakl va funksiyalarini aniqlashga qaratilgan. Matn tiplari inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali kishilarning fikrlash uslubi, turli vaziyatlarda nutqiy muloqotni tashkil etish usullari namoyon bo‘ladi. Mazkur mavzu bo‘yicha tahlil qilish, nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Maqolada matn turlarining mazmuniy xususiyatlari va ularga xos bo‘lgan asosiy belgilari yoritiladi. Shu bilan birga, matn tiplarining tahlili nutqiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘tkir Hoshimovning Tushda kechgan umrlar romani misolida

Dastavval, lingvo-poetika tushunchasiga e'tiborimizni qaratsak, ushbu tushuncha badiiy asarni lingvo-poetika yuzasidan tahlil qilib, tilning turli maqsad va vazifalarini qamrab oladi. Asarni tilshunoslik yuzasidan tahlil qiladi. Endilikda, biz O‘tkir Hoshimovning Tushda kechgan umrlar romani yuzasidan tahlil olib boramiz. Asarning dastlabki hikoyalardan birini tilshunoslik jihatidan tahlil qilamiz. "Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi...

Erta bahordan bo‘tana bo‘lib shosha-pisha qirg‘og‘iga sig‘may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoya ketganini tushunib olamga ma'yus boqadi.. Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko‘milib yotadi... Yer-u ko‘kni kafandek oppoq tuman chulg‘aydi. Oq zulmat orasidan qarg‘alarning xosiyatsiz fig‘oni eshitiladi. Asarning ushbu kichik qismini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu matnni tasviriy matn sifatida olishimiz mumkin. Ushbu matnda oddiy bir tabiat hodisasi, hayotiy jarayonlar ajoyib ifodalar bilan birgalikda tasviriy matnni yuzaga keltirmoqda. Matndagi tasvir ob'ektini Kuz deb olishimiz

mumkin. Kuz kelib, daraxt barglari xazonga aylanish jarayoni birlamchi xususiyat hisoblanadi. Ariqlardagi suvlarning tobora tiniqlashib borishi aloqador jarayon hisoblanadi. Matndagi kuzning o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshatilishi yoki kasalmand xazonlar ingraydi va kafandek tuman kabi birikmalarni ma'no ko‘chish turlarining metafora turiga kiritishimiz mumkin. Hayotimiz davomida kasalmand xazonlar yoki ingrayotgan xazonni ko‘rmaganligimiz aniq, shu sababdan ham ushbu birikmalarda ma'no ko‘chish jarayoni sodir bo‘layotganini anglashimiz mumkin. Demak matnni tasviriyl matn ekanligi, uning ifoda mazmuniga ko‘ra matn tiplariga ajratilganda kelib chiqadi. Har qanday matn ham ikkita yoki uchta gapdan tashkil topgan bo‘ladi. Albatta, ular bog‘lovchi vositalar yordamida ham mazmunan ham uslubiy jihatdan birika oladi. Biz bog‘lovchi vositalar qatoriga takrorlarni, zamon va makon ifodalovchi birliklarni, atov gaplarni, murojaat birliklarini kiritishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan matn asosan zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida bog‘langanligini ayta olamiz.

"Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi.. Erta bahordan bo‘tana bo‘lib, shosha-pisha, qirg‘og‘iga sig‘may oqqan ariqlar tiniqlashadi". O‘tkir Hoshimov bu matnni shakllantirishda zamon va makon ifodalovchi birliklardan foydalanganligi bejiz emas, sababi voqea sodir bo‘layotgan makonni tasvirlashga harakat qiladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Asardagi matnning uslubi ham katta ahamiyatga ega bo‘la oladi. Yuqorida keltirilgan matnni hech ikkilanishlarsiz badiiy uslub na'munasi deyishimiz mumkin. Matndagi har bir o‘xshatish, ma'no ko‘chishlarning hammasi badiiy uslubdagi matnning shakllanishida katta ahamiyatga molikdir.

Umuman olganda, Yozuvchining ushbu asarida ifoda mazmuniga ko‘ra matn tiplarining barcha turlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, ularning birinchisi bo‘lgan Hikoya mazmunli matnlar ham asarning ko‘p qismlarida uchraydi. Hikoya mazmunli matnlar - narrativ matnlar deb ataladi, bunday matnlarda, asosan, muallif yoki asar qahramoni o‘z boshidan o‘tkazgan, eshitgan, o‘qigan yoki guvohi bo‘lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Quyidagi matnga e'tiborimizni qaratsak: "G‘alati tovushdan uyg‘onib ketdim. Nima gapligini tushunolmay uzoq garangsib yotdim. Hushim joyiga kelganida anglab yetdim: Shahnoza teskari qaragancha yig‘lab yotibdi. Unini chiqarmaslik uchun yostiqni tishlab olgan. O‘kinch bilan, alam bilan yig‘layapti. Har xiqillaganida gavdasi silkinib -silkinib ketadi... O‘zimni uxlaganga solib yotaverdim" (O‘tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" Toshkent -2019 247-bet) Matndan ko‘rinib turibdiki, asar qahramoni tilidan bo‘layotgan voqea-hodisa hikoya qilib berilmoqda. Hikoya mazmunli matnlarda hikoya qiluvchilar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday matnlar yaratilishida muallif nutqidan ham, asar qahramoni tilidan ham keng

foydalaniladi. Ko‘pincha matnlar butunligicha hikoya mazmunli matnlar bo‘lmay, ularning ma‘lum bir qismigina hikoya mazmunida bo‘lishi mumkin.

Matn tiplarining yana bir turi bo‘lgan didaktik matnga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunday tipdagi matnlarda kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn didaktik matn deyiladi

"Voy, Xudo urdi-ketdi! Ko‘zdek qo‘shning to‘yiga chiqmasanglar, uyat bo‘lmaydimi? Erta-indin sizlar ham farzand ko‘rasizlar. To‘y qilasizlar", deb dashnom berdi. Odatda, matnda didaktemalarni keltirishdan asosiy maqsad shu orqali pand-nasihat berish, muammoli masalalarni yechishga ko‘maklashish to‘g‘ri yo‘lni topishda keltirilgan misoldan ibrat chiqarishga da‘vat qilish yoki bo‘lib o‘tgan voqeaga munosabat bildirishdan iborat.

Matn tiplarining yana biri xabar mazmunli matnlar hisoblanadi. Ularda asosan biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan bo‘ladi. Aynan asar ichidan keltirilgan bir asar qahramoni to‘g‘risida xabar beruvchi bir qismi xabar matni sanaladi. Bunday matnlarni yozishdan maqsad asarning ayrim o‘rinlariga oydinlik kiritish maqsadi bilan kiritilgan havola xarakteridagi xabar hisoblanadi. Matn tiplarining har birini alohida misollar yordamida ko‘rib chiqdik. Yozuvchi asarini o‘qishli va ifodali qilish uchun ham matn tiplaridan keng ko‘lamda foydalanadi. Biror bir badiiy matnda sanab o‘tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo‘lishi mumkin, yoki butun boshli asar bitta matn tipi asosida shakllangan bo‘lishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. (O‘tkir Hoshimov Tushda kechgan umrlar Toshkent -2019 21-bet)
2. G‘ulomov G‘. Tilshunoslik nazariyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
3. Matyoqubov O., Qurbonov N. Matn tahlili va muloqot lingvistikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va stilistika. Toshkent: Universitet, 2018.
5. Rizayev B. Matn va uning lingvistik xususiyatlari. Samarqand: Zarafshon, 2020.
6. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London: Longman, 1976.
7. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
8. Hasanov U. Matn va nutq turlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
9. Van Dijk T.A. Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse. London: Longman, 1977.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MUASSASALARDA TARBIYAVIY
ISHLARNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA QO‘LLASH
HOLATI**

Axunova Diyora

*CHDPU Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi:
boshlang‘ich ta‘lim mutaxassisligi magistranti*

Annatsiya: *Maqolada hozirgi zamon ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf talabalarida tarbiyaviy ishlarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishning uziga xos xususiyatlarini aks etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jamiyat, oila, loyiha, ilmiy intellektual, yondashuvlar, tadbirkorlik, sadoqat.*

Hozirgi zamon voqeliklardan kelib chiqqan holda tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotla ro‘qituvchidan doimiy izlanishni, o‘quv faoliyatda tarbiyaviy ishlarning yangi, nisbatan samaraliroq usullari va vositalaridan foydalanib ishlashni talab etmoqda. Yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalash ularni ma‘naviy-ma‘rifiy qobiliyatlarini o‘stirish, ularni jamiyatga, oilaga, Vatanga manfaat keltiradigan sifatida voyaga yetkazish o‘quv nazariyasining muammolaridan hisoblanadi.

Birinchi navbatda o‘quv muassasalar ta‘lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta‘lim tizimining asosi bo‘lgan yangi o‘quv rejalar, dasturlar yaratildi.

Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o‘quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi milliy o‘quv dastur”, hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda oliy ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarini kasbiy-dunyoviy bilimlarini yuqori darajaga ko‘tarish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, mashg‘ulotlik va o‘quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta‘minlash amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo‘shma fakultet va institutlar ko‘magida tayyorlash tajribasi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlari nufuzini

oshirish, nodavlat ta’lim maskanlar isonini ko‘paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Muassasalarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishi hozirgi tarbiya tizimini yanada oshirib borishda asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashqari muassasalardagi yuridik shaxs maqomi moliya ho‘jalik faoliyatida mustaqil bo‘lgani, o‘quv kadrlarni ish sifati natijalarini xolisona baholash asosida moddiy yordam berish tarbiya sohasida o‘quv yondashuvlar asosida olib borilayotgan jiddiy ishlar hisoblanadi.

Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan tushunchadan, ma’naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni tarbiyalab, mamlakat rahbari ta’biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko‘p bora ta’kidlandi.³⁶

Respublikamizda tarbiya tizimini rivojlantirish tamoyili o‘zluksiz tarbiya tizimining barcha turlarida tarbiya jarayonini demokratlashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, fa’ol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasini rivojlantirishning besh tashabbus ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar stratesgiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash uchun;

-ma’naniy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

-tarbiya jarayonida O‘zliksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

-homiladorlikdavridanboshlab 30 yoshgacha davom etadigan

o‘zliksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, o‘zliksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

³⁶ Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 2018

-aholining farzand tarbiyasi bo'yicha tushunchalarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni o'zliksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

-ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'I orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

-o'zliksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

Ta'lim-tarbiya sohasida o'quv yondashvlarni asoslantirish o'zida falsafiy, psixologik va ta'limning insonparvarlik g'oyalari asosida tayyorlanadi.

Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga hamo'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviysharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, o'zliksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga tushunchadan, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shujumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur mashg'ulotliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan «O'zliksiz ma'naviy tarbiya» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi chiqargan qarorlarida o‘quvchilar o‘rtasida ongli intizomni kuchaytirishni ta’minlash va ularning bo‘sh vaqtlarini yaxshi o‘tkazishga xizmat qiladigan tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish zarurligi ko‘rsatib berilgan edi. Bu qarorda o‘quvchilarning tarbiyaviy ishlarda tarbiya vazifalariga bo‘ysundirilishi muassasa o‘quvchilarining muvaffaqiyat bilan o‘qishlariga ko‘maklashuvchi va jamiyatning har tomonlama ma’lumotli holda fa’ol o‘quvchilari qilib tarbiyalashga yordam berish kerak deb aytilgan.

Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish ishlari asosan quyidagi yondashuvlardan iborat:

a. O‘quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashini tarbiyalashda siyosiy saviyasini oshirish;

b.O‘quvchilarni milliy g‘oya asosida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat ruhida tarbiyalash;

v.O‘quvchilarni ijtimoiy –siyosiyf aoliyatini, tashabbuskorligini o‘stirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy –iqtisodiy hayotga ongli ravishda ishtirok etishini ta’minlash;

g.O‘quvchilarning olgan tushunchalarini kengaytirish, chuqurlashtirish va amalda qo‘llanish vazifasini to‘g‘ri hal qilishga va muassasani bitirib chiqqandan keyin erkin ravishda biron kasb tanlashga tayyorlashga yordam berish;

d.Yoshlarni o‘z-o‘zini boshqarish va o‘stirish, san’at, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish;

y.O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini xursandona o‘tkazishlariga va ularning sog‘liqlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan o‘yin –kulgilar va boshqa xil tarbiyaviy ishlarini yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.R.D.Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari Toshkent. TDPU. 2005y.

2.A.Karimjanov. F.Ochilov. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim tarbiya muammolari.O‘quv qullanma. Toshkent.Chirchiq. 2021 y.

3. A.Karimjonov «Pedagogiktizimni boshqarish asoslari». (O‘quv qullanma), Nizomiy TDPI Toshkent, 2008.

4.A.Karimjonov. «Metodikai fanni Tarbiyavi» (Darslik) Toshkent, 2022.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA QO‘SHIMCHA EHTIYOJLARGA EGA
BOLALAR BILAN ISHLASH: INKLYUZIV TA‘LIMNI TA‘MINLASH
STRATEGIYALARI**

Rustamova Mohina Akbarali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya; *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida qo‘shimcha ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash muammolari va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Inklyuziv ta‘lim tamoyillari, samarali strategiyalar hamda pedagoglarning ushbu jarayondagi roli ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolarga asoslangan holda shaxsiy takliflar va innovatsion yondashuvlar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta‘lim, qo‘shimcha ehtiyojlar, boshlang‘ich ta‘lim, maxsus pedagogika, ta‘lim strategiyalari.*

Hozirgi zamonaviy ta‘lim tizimi har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olishni va ularga individual yondashishni talab etadi. Xususan, qo‘shimcha ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash masalasi dolzarb bo‘lib, bu bolalarning jamiyatga moslashuvi va ta‘lim olish huquqini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi. Bunday o‘quvchilarga ko‘rish, eshitish, harakatlanish, nutq yoki intellektual rivojlanishida nuqsonlarga ega bolalar, shuningdek, psixologik va emotsional qiyinchiliklarga duch kelgan o‘quvchilar kiradi.[1]

Inklyuziv ta‘lim har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratishni, ularga maxsus yondashuvni qo‘llashni nazarda tutadi. Shu bois, inklyuziv ta‘limni ta‘minlash uchun pedagoglar, o‘quv dasturlari va infrastrukturani moslashtirish muhim hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning mohiyati. Inklyuziv ta‘lim bu – har qanday o‘quvchining, jumladan, qo‘shimcha ehtiyojlarga ega bolalarning ham, umumiy ta‘lim muassasalarida boshqa o‘quvchilar bilan teng sharoitda bilim olishini ta‘minlaydigan tizimdir [2].

Inklyuziv ta‘limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Har bir bola ta‘lim olish huquqiga ega.
- O‘quv jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtirilishi kerak.
- O‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi va inklyuziv metodikalarni bilishi lozim [3].

L.S. Vygotskiy fikricha, bolalar ijtimoiy muhit orqali rivojlanadi, shuning uchun inklyuziv ta’lim sharoitida bolalar tengdoshlari bilan faol muloqot qilishi muhimdir [4].

Boshlang‘ich ta’limda qo‘shimcha ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash muammolari. Boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta’limni samarali tashkil qilish uchun quyidagi muammolarni hal etish lozim:

1. O‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi yetarli emas. Aksariyat pedagoglar maxsus pedagogika sohasida bilimga ega emas va qo‘shimcha ehtiyojga ega o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha yetarlicha tajribaga ega emas.

2. Didaktik materiallarning yetishmovchiligi. Inklyuziv ta’limga moslashtirilgan darsliklar va qo‘shimcha materiallar kam. Masalan, ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun brayl alifbosi asosida darsliklar yetarli emas.

3. Psixologik va ijtimoiy moslashuv muammolari. Qo‘shimcha ehtiyojga ega bolalar ko‘pincha o‘z tengdoshlari tomonidan kamsitilishi yoki e’tibordan chetda qolishi mumkin. Bu ularning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [5].

Inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro tajribalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyo bo‘ylab inklyuziv ta’lim turli usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayrim mamlakatlar bu borada katta yutuqlarga erishgan. Misol uchun, Finlandiya tajribasi. Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining moslashuvchanligi va individual yondashuvi bilan mashhur. Bu mamlakatda har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim dasturi ishlab chiqiladi va pedagoglar har bir bolaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlaydi. Finlandiya ta’lim modelining asosiy xususiyatlari:

- O‘quvchilar turli darajadagi qiyinchiliklarga moslashtirilgan holda o‘qitiladi.

- Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun individual reja ishlab chiqiladi.

- Pedagoglar doimiy ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadi.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta’lim. AQSh va Yevropa davlatlarida inklyuziv ta’limni ta’minlash bo‘yicha maxsus qonunlar qabul qilingan. Masalan, AQShda “Individuals with Disabilities Education Act” (IDEA) qonuni mavjud bo‘lib, unga ko‘ra har bir bola ta’lim olish huquqiga ega [7].

Yevropa davlatlarida esa “Salamanka deklaratsiyasi” asosida inklyuziv ta’lim tizimi shakllantirilgan bo‘lib, barcha bolalar umumiy ta’lim muassasalarida o‘qishi ta’minlangan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Asosiy qadamlar:

2019-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda inklyuziv ta’limning ahamiyati belgilangan. Respublikadagi maktablarda inklyuziv ta’lim sinflari tashkil etila boshlandi. Toshkent shahrida maxsus pedagogika markazlari

faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shunday bo‘lsada, hali ham mavjud muammolar: Pedagog kadrlarning yetishmovchiligi, maxsus darslik va metodik qo‘llanmalar kamligi, ota-onalar orasida inklyuziv ta‘limga nisbatan to‘g‘ri tushunchaning shakllanmaganligi.

Ayrim hollarda inklyuziv ta‘lim bolalarning jamiyatga moslashishida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun ota-onalar va o‘qiluvchilarga inklyuziv ta‘lim bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazish, jamiyatda nogiron bolalar huquqlarini targ‘ib qilish orqali hal qilishimiz mumkin.

Inklyuziv ta‘limni samarali tashkil etish strategiyalari:

1. O‘qituvchilar malakasini oshirish. Fazilat Xudoyqulova ta‘kidlashicha, inklyuziv ta‘limda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar maxsus kurslar va seminarlar orqali doimiy ravishda o‘z malakasini oshirishi lozim.

Individual ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish. Har bir bola o‘zining qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab o‘qitilishi kerak. Shu sababli, Jabborova Onaxon Mannopovna individual ta‘lim dasturlarining ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi.

Menimcha bu borada har bir inklyuziv o‘quvchi uchun shaxsiy rivojlanish rejasi ishlab chiqish, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligida bolaga mos ta‘lim strategiyasini tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi va samarali natija beradi.

O‘quv muhitini moslashtirish. O‘quv xonalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay bo‘lishi kerak. Masalan, nogironlik aravachasi foydalanuvchilari uchun rampalar, maxsus partalar va vizual yoki audio ko‘rsatmalar o‘rnatilishi zarur.[6]

Innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash. Hozirda zamonaviy texnologiyalar inklyuziv ta‘limni yanada samarali qilish imkonini bermoqda. Masalan: Braille Display – ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus braille yozuvli planshetlar.

Speech-to-Text – eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun matn formatiga o‘giruvchi dasturlar.

Virtual Reality (VR) – o‘quv muhitini yanada interaktiv qilish imkonini beradi.

Minecraft: Education Edition va CoSpaces Edu kabi vositalardan foydalanish orqali maxsus ehtiyojli bolalarga mos interaktiv o‘yinlar yaratish mumkin.

Onlayn ta‘lim platformalarining imkoniyatlari orqali ya‘ni Khan Academy, Coursera, Udemy kabi platformalarda maxsus kurslar tashkil qilish orqali qo‘shimcha ehtiyojga ega bolalar ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirsak bo‘ladi.

Inklyuziv ta‘lim har bir bolaga teng imkoniyat yaratish tamoyiliga asoslangan bo‘lib, uni samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni beramiz:

1. O‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

2. Individual yondashuv asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

3. Ta’lim jarayonida texnologik innovatsiyalardan keng foydalanish.

4. Maktab muhitini qo‘shimcha ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirish.

5. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha milliy dasturlarni takomillashtirish.

Inklyuziv ta’lim va tarbiya amaliyoti har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini qabul qilish g‘oyasiga asoslanadi va shuning uchun ta’lim nogironligi bo‘lgan har bir bolaning alohida ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etilishi kerak. Inklyuziv ta’lim o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va individual ta’lim dasturini ishlab chiqishga e’tibor beradi.

Nafaqat inklyuziv ta’lim, balki umuman ta’lim ham asos bo‘ladigan sakkizta tamoyilni ajratib ko‘rsatish zarur:

1) insonning qadr-qimmati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog‘liq emas;

2) har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega;

3) Har bir inson muloqot qilish va tinglash huquqiga ega;

4) xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilaydi;

5) haqiqiy ta’lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;

6) hamma odamlar tengdoshlarining yordami va do‘stligiga muhtoj;

7) Barcha o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatga erishish, ular qila olmaydigan narsadan ko‘ra, qila oladigan narsada bo‘lish ehtimoli ko‘proq;

8) hamma odamlar bir-biriga muhtoj.

Ta’lim inklyuziyasi, birinchi navbatda, nafaqat bolaning o‘zini, balki uning oilasini ham ijtimoiy rehabilitatsiya qilish vositasi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, inklyuziv ta’limni rivojlantirish har qanday bolaning jismoniy va boshqa imkoniyatlaridan qat’i nazar, teng huquqlilik, foydalanish imkoniyati va tegishli ta’lim yo‘nalishini tanlash imkoniyatini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichi ko‘plab qarama-qarshiliklar va muammolar bilan to‘lib-toshgan bo‘lib, o‘qituvchilardan professional va ochiq muloqot va pozitsiyalarni muvofiqlashtirishni talab qiladi[8].

Inklyuziv ta’limni joriy etish tashkiliy qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu birinchi navbatda "to‘siqsiz muhit" yaratishdir [9].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha qator qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, hali ko‘plab muammolar mavjud. Inklyuziv ta’lim – nafaqat ta’lim tizimi, balki butun jamiyat uchun dolzarb masala. Har bir bola sifatli va teng huquqli ta’lim olishga haqli. Shu sababli, davlat organlari, ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat a’zolari birgalikda harakat qilishi, jamiyatda inklyuziv ta’lim bo‘yicha

tushunchalarni shakllantirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Yangi texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, kelajak avlodning har tomonlama yetuk, mustaqil va o‘z jamiyatida munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Kuchkinov, A. (2023). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida differensial yondashuv.
- [2] Artikova, N. (2022). Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim asoslari.
- [3] Jabborova, O. (2021). Pedagogik psixologiya va inklyuziv ta’lim muammolari.
- [4] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society.
- [5] Xudoyqulova, F. (2023). Differensial va individuallashtirilgan ta’lim metodlari.
- [6] Tomlinson, C. A. (2017). How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms.
- [7] U.S. Department of Education. (2021). Individuals with Disabilities Education Act (IDEA).
- [8] Kanakina , V.P., Goretskiy V.G. Rus tili: [Matn] / Kanakina V.P., Goretskiy V.G. / Darslik: 3-sinf: Soat 2 da: 1- qism
- [9] Artyushenko , N.P. Inklyuziv ta'limdan foydalangan holda nogiron bolalarni o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari [Matn]: referat . dis . Ph.D. ped . Fanlar / Artyushenko N.P. - Tomsk, 2010 yil.

GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

Pardaboyeva Kamola Nishonboy qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

E-mail manzil: mirabbospardaboyev012@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyushiq bo'laklarning bog'lanishi xususida fikr yuritiladi. Uyushiq bo'laklarning bog'lanishi Uyushiq bo'lakli gaplarda ba'zan umumlashtiruvchi birliklar ham qatnashadi.

Kalit so'zlar: uyushiq gaplar, 4-sinflarda uyushiq bo'laklar qo'lanilishi, modal ma'nolar, uyushiq bo'laklar haqida, uyushiq bo'laklar tahlili, talaffuzga xos xususiyatlar.

Аннотация. В этой статье речь пойдет о соединении геометрических фигур. связь организованных частей в неорганизованных фрагментарных предложениях иногда участвуют и обобщающие единицы.

Ключевые слова: Тематические высказывания применение геометрических фигур в 4-х классах, модальные значения, о геометрических фигурах, анализ статических фрагментов, особенности произношения.

Annotation. This article will focus on connecting geometric shapes. connection of organized parts in unorganized fragmentary sentences sometimes generalizing units are involved.

Key words: Thematic statements, Application of geometric shapes in 4 grades, modal meanings, about geometric shapes, analysis of static fragments, pronunciation features.

Gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifasini bajaradigan, o'zaro teng aloqaga kirishgan, bir umumiy bo'lakka bog'lanadigan gap bo'laklari gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Masalan: Odamning eng shirin, lazzeatli va halol taomi o'z mehnati, qo'l kuchi bilan topgan rizqidir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Mazkur gapda eng shirin, lazzeatli va halol hamda o'z mehnati, qo'l kuchi bilan guruh so'zshakllari uyushib kelgan. Bunda birinchi guruhdagi so'zshakllar bir xil so'roqqa - qanday? degan so'rog'iga javob bo'lib, sifatlovchi vazifasini bajargani holda, taomi umumiy bo'lagiga – egaga bog'langan; ikkinchi guruhdagi so'zshakllar ham bir xil so'roqqa - qanday? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelib, topgan umumiy bo'lagiga – sifatlovchiga bog'langan. Har bir guruhdagi so'z shakllar o'zaro teng aloqaga kirishgan [1].

Bunday teng aloqadagi so'z shakllar soni ikkidandan va undan ortiq bo'lib, keyingi paytlarda ular tilshunoslikda «uyushiq qator», «tenglanishli qator» deb

yuritilmoqda. Tenglanishli qatorda ikkidandan tortib o`n, hatto undan ko`p so`zshakl qatnashishi mumkin: Saroytoshning ikki tomonida qad ko`targan dara sohillari, undagi archazorlar, soy bo`yida o`sguvchi yulg`unzoru bizning uyimiz yaqinidagi eski chashma, chashma atrofida ko`karib yotadigan nilufarlar, yana qishloqning tor, egri-bugri ko`chalari, muyulishda do`mpaygan go`ng to`dalari, atrofdan eshitilib turadigan kakliklar sayrog`i, oqshom tushganida uylar ayvonida yonuvchi chiroqlar, chiroqlar tevaragida qur tutib suhbatga berilgan odamlar – bularning hamma-hammasi biz uchun aziz, qadrdon edi. (Sh.Xolmirzaev).

Uyushiq qator quyidagi uyushiq bo`lak o`rnini egallaydi:

1. Uyushiq ega: Qor-yomg`ir yog`ayotgan paytlarda ham ayollar va bolalar suvga kelishadi. (P.Qodirov).

2. Uyushiq kesim:

a) uyushiq fe`l kesim: ufqqacha cho`zilgan lolazor rang-barang tovlanmoqda, yonmoqda. (J.Abdullaxonov);

b) uyushiq ot kesim: qalbi pok bo`lgan kishining ishlari ham pok bo`ladi, toza bo`ladi. («Oz-oz o`rganib dono bo`lur»).

3. Uyushiq aniqlovchi:

a) uyushiq sifatlovchi: Tabiatning hech kimga bo`ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so`rab o`tirmaydigan o`z qonunlari bor. (O`.Hoshimov).

Ba`zan ikki va undan ortiq sifatlovchilar sifatlanmishni turli tomondan aniqlaydi va shuning uchun ham uyushmagan sanaladi. Masalan: Tog` tepasida to`planayotgan qora bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi. (P.Qodirov). Bunda sifatlanmish (bulutlar) o`rniga nisbatan harakatdagi belgi (tog` tepasida to`planayotgan) va rang-tus (qora) jihatdan aniqlangan.

Bu daraxtzorda istaganicha quyoshdan *nur emishi*, *huzurlanib chayqalishi* mumkin edi. Tomirlari tobora kuchliroq qudrat kasb etib borardi. ...Tursunali ana shu og`ir dard tog`ini yelkasiga ortgan holda o`ringa cho`ziladi, sahar chog`i shu yuk bilan qaddini rostlaydi. Ba`zi erkaklar yig`laydilar. Ba`zilar dardlarini aytib, hasrat qiladilar. Tursunali dardini *kimga aytsin, kimga yig`lasin, kimga hasrat dasturxonini ochsin?! [2]*

4-sinfda gapning uyushiq bo`laklarini o`rganish bilan gap bo`laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o`quvchilarda gap bo`laklari haqidagi tasavvurni o`stirish gapni o`zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang`ich sinf

O`quvchilari gap bo`laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga) bo`linishini o`zlashtiradilar.

Bu sinflarda ikkinchi darajali bo`laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o`zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo`laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo`laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning

Grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali boʻlaklar esa bosh boʻlaklarni aniqlovchilik va toʻldiruvchilik vazifasini bajaradi.

4-sinfda oʻquvchilar «Gapning uyushiq boʻlaklari» mavzusi oʻrganilganda sanash ohangi bilan bogʻlangan boʻlaklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. Oʻqituvchi ikki gapni oʻqib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini koʻrsatadi. Masalan, *Biz ona tilimizni sevib oʻrganamiz* (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). *Men, Raʼno, Alisher boshqa tillarni ham sevib oʻrganyapmiz*

(*Men, Raʼno, Alisher* soʻzlaridan soʻng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi).

Oʻquvchilar uyushiq boʻlakli gap tarkibidagi uyushiq boʻlaklarning *ammo, lekin, biroq* soʻzlari bilan bogʻlanganda vergulning ishlatilishini ham amaliy oʻrganadilar.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod oʻrgatish davridayoq oʻqituvchi oʻquvchilar eʼtiborini vergul, tire, ikki uqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni oʻqiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni oʻrgatadi. Masalan, *Olma, olcha, nok - meva. Kitob — bilim bulogʻi* [3].

Darslik bilan ishlash. 38-mashq. Oʻqing. Soʻroqlar yordamida gapning uyushiq boʻlaklarini toping.

Bulbul, mayna, qumri


Xush ohangda sayrashar.

Erkin, Gulnoz, Umri

Bogʻdan jilmay yayrashar.

Qaysi boʻlak uyushib kelgan? Ular qaysi soʻzga bogʻlangan?

“Chizmani toʻldir” taʼlimiy oʻyini. Har bir oʻquvchiga chizma tarqatiladi. Sheʼr matnidan uyushiq boʻlaklarni va ular bogʻlangan soʻzni aniqlab chizmaga yozishlari kerak. Topshiriq tekshiriladi va matnlarda ega uyushib kelgani hamda uyushiq boʻlak kesimga bogʻlangani aniqlanadi [4]:



Hamid Olimjon XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biridir. *U adabiyot olamiga Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi yirik ijodkor bilan bir qatorda kirib keldi. Shoir serqirra ijodkor bo'lib, bir qancha adabiy tur va janrlarda ijod etishiga qaramasdan, kitobxon ko'nglidan, asosan, jo'shqin lirik shoir sifatida joy olgan. Uning she'rlarining qamrovi keng, mavzular barchasidan ko'ra hissiyotli, yuraklarni larzaga solguvchi, faxr tuyg'usini uyg'otguvchi bir mavzu – Vatan mavzusi, tug'ulib voyaga yetgan o'lkaga nisbatan hurmat va muhabbat hislari.*

Jamiki xalqlarning shoirlar ona yurt haqida ko'plab baytlar bitganlar. Bulardan eng betakror satrlar qoldirganlarigina yurt kuychisi degan sifat olganlar. Ularning Vatan haqidagi she'rlari necha zamonlar o'tsa-da, xalqining dilida va tilida yashaydi. Hamid Olimjon ham Vatan haqidagi o'z she'rlari bilan shunday qismat topgan. Bu o'rinda uning «O'zbekiston» she'ri alohida ahamiyat kasb e'tadi Hamid Olimjon «O'zbekiston» she'rida aniq va tipik detallar, rang-barang tasvir vositalari yordamida quyoshli diyorumimizning yaxlit obrazini yaratib, asar g'oyasini she'rning mag'zi-mag'ziga singdirib yuboradi. Mavzuni yoritishda tabiat manzaralari tasviridan foydalanadi. Darhaqiqat, «O'zbekiston» she'ri pezaj lirikasining nodir namunasi bo'lib, unda manzara asar g'oyasini badiiy yo'l bilan ochishga to'laligicha xizmat qiladi:

*O'xshashi yo`q bu go`zal bo`ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
O`zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur .
Chiroylidur go`yo yosh kelin,
Ikki daryo yurar kokilin.
Qorli tog`lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yo`qdir bundayin ko`klam...
Bu shundayin ajib diyordir [1.206].*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroyev M. Ona tili Toshkent: “Iqtisod-moliya” – 2007. B 214.
2. T.Malik. Murdalar gapirmaydilar. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi NNMU 2018. B 3-4.
3. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Nosir”nashriyoti. 2009. B 279.
4. Ikromova R. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik „O‘qituvchi“ Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017. B 19-20
5. Siddiqova Sh., Burxonov Sh. Hamid Olimjon ijodida go‘zal tuyg‘ular tarannumi. Filologiyaning umumnazariy masalalari (respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konf. materiallari). T.: 2020. B 62-63.
6. K.Qosimova va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2009 y “Noshir”n .
7. G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. –T.: Taffakur, 2007.
8. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O‘qituvchi, 2004.y
9. G‘ulomov A., Qodirov B. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1998..
10. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv- uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017

IJODIY TO‘PLAM

**“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA
IJODIY
ISHLAR TANLOVI**



KITOB ELEKTRON SHAKLINI YUKLAB OLING

**Bosishga ruxsat etildi: 20.01.2025-yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman ” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Hisob nashriyot t.: 16,0. Shartli b.t.: 10,2.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma 16.**

**“Phoenix scientific publication center” MChJ.
Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumani, Istiqlol ko‘chasi 102-uy**